ISSN 2181-3841

# O‘zbekistonda professional ta’lim

Профессиональное образование в Узбекистане

Vocational education in Uzbekistan



4-son
2024 - yil

www.profedu-jurnal.uz

ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal

**“Ta‘lim sohasida farzandlarimiz zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni puxta egallashlari uchun eng qulay sharoitlar yaratishni izchil davom ettiramiz”.**

***SHAVKAT MIRZIYOYEV,***
***O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti***



***Muhtaram o'quvchi!***

*"O'zbekistonda professional ta'lim" ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnalimizning 2024-yil 4-soni e'tiboringizga havola etilmoqda. Ushbu sonda kasbiy ta'lim tizimidagi eng so'nggi islohotlar, sohaga doir qabul qilingan huquqiy-normativ hujjatlar va ularga qisqacha sharh, kasbiy ta'limda kadrlar tayyorlash istiqbollari, sohada ilm-fan va innovatsion faoliyatning joriy etilishi, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha mualliflarning maqolalari keltirilgan.*

***«O'zbekistonda professional ta'lim» jurnali tahririyati***

Xususan, Xudayberdiyev Zayniddin Yavkachevich tomonidan yozilgan **"O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish: dual ta'lim va xalqaro hamkorlikning ahamiyati"** nomli maqolada kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi yo'nalishlari, shuningdek, dual ta'lim tizimi joriy etilishi hamda ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich muallifligidagi **"Kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy yo'llari va yechimlari"** maqolasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son Farmonida belgilangan kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan.

Siddiqova Sadoqat G'afforovna tomonidan yozilgan **"Dual ta'limda oliy ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligidagi integratsiya darajalari"** mavzusidagi maqolada dual ta'lim tizimida oliy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyaning samarali tashkil etilishi orqali talabalar uchun amaliy tajriba olish imkoniyatlari oshirilishi va ishlab chiqarish sohasiga yaxshi tayyorlangan mutaxassislar yetkazib berilishi, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida yanada samarali hamkorlikni yaratishga qaratilgan strategiyalar ko'rib chiqiladi.

Xolmuxamedov Murodullo Maxmudovich muallifligidagi **"Natijaga yo'naltirilgan kasbiy ta'limda kompetentlikni rivojlantirish didaktik mexanizmining ayrim jihatlari"** nomli ilmiy maqolada o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishning didaktik mexanizmining ayrim jihatlari bayon etilgan, xususan, o'quvchilarning pedagogik-didaktik munosabatlarini rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar, imitatsion, simulyatsion muhit talablariga muvofiq tarzda o'quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlari ochib berilgan.

Qo'chqorov Diyorbek Ulug'bekovich tomonidan yozilgan **"Kasbiy ta'lim tizimida rahbar kadrlarning intellektual salohiyati va kompetensiyasini takomillashtirishning metodologik asoslari"** nomli ilmiy maqolada rahbar kadrlarning murakkab masalalarni hal qilish qobiliyatlari, innovatsion qarorlar qabul qilish, zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalari haqida fikr yuritilgan.

Bugungi kunda kasbiy ta'limdagi muhim yo'nalish hisoblangan muhandis kadrlarni tayyorlashda loyiha-konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishning ahamiyati haqida batafsil Ruziyev Islambay Samandarovichning **"Bo'lajak muhandislarda loyiha konstruktorlik kompetentligini shakllantirishda "mexanika" (mashina detallari) fanining ahamiyati"** nomli ilmiy maqolasi keltirilgan.

Ergashev Bobirjon Bohodirovich va Xolikov Eldor Muxamadaliyevich hammuallifligida **"Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashda ilmiy-metodologik muammolar tahlillari"** nomli ilmiy maqolada integrativ yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi tamoyillarga e'tibor qaratiladi, ya'ni ta'lim jarayonini yanada insonparvarlashtirish; ta'lim, ma'naviy va ma'rifiy jarayonlarga doir ilmlarni tizimli integratsiyalash; bo'lajak o'qituvchilar shaxsi shakllanishini fanga oid bilimlarni anglash vositasida amalga oshirish; bo'lajak o'qituvchilarda fikrlash doirasida fanga oid bilimlar ta'sirining ustuvorligi kabilar.

Ibodov Zafar Muhiddinovich tomonidan dual ta'lim tizimining ijobiy tomonlari va kamchiliklari, xorijiy davlatlarda ushbu dasturning amaliyotga joriy etilishi hamda olimlarning dual ta'lim xususida nuqtayi nazari haqida **"O'quvchilarning mutaxassisligi bo'yicha ko'nikma va malakalarini mustahkamlashda dual ta'limining ahamiyati"** nomli ilmiy maqolada fikr yuritilgan.

G'ofurova Aziza Xidirnazar qizi tomonidan yozilgan **"Kasb ta'limi "dizayn" yo'nalishi talabalariga 3D max texnologiyasining maxsus dasturlarida ishlash bosqichlarini o'rgatish metodi"** mavzusidagi maqolada 3D max texnologiyasining libos dizayni uchun mo'ljallangan maxsus dastur turlari, ularda ishlash bosqichlari va bu jarayonni talabalarga tushuntirish, talabalarda bu dasturlarda ishlash bo'yicha amaliy ko'nikma hosil qilish metodlari keltirilgan. Shuningdek, maqolada o'qitish metodini tanlashda dars turi va mazmunidan kelib chiqib qo'yiladigan umumiy didaktik talablar keltirilgan.

Jamolov Anvar Kuchkarovich muallifligidagi **"Kasbiy ta'limda bo'lajak tibbiyot xodimlarining innovatsion faoliyatida kompetensiyalarni safarbar etishning ahamiyati"** mavzusidagi maqolada bo'lajak tibbiyot mutaxassislarini o'z bilim va ko'nikmalarini dinamik va rivojlanayotgan sog'liqni saqlash muhitida qo'llashga tayyorlashning usullari va tadqiqotchilar o'rtasida bilimlarni yaratish, tarqatish va tarjima qilishni o'z ichiga olgan bilimlarni safarbar qilish strategiyalarining integratsiyasi haqida ma'lumotlar berilgan.


ISSN 2181-3841

Jalilova Hulkar To‘rayevna tomonidan yozilgan **“Kasbiy ta’lim muassasalari o‘quvchilarida xorijiy tillarni o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish”** mavzusidagi maqolada ingliz tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida interaktiv o‘qitish usullaridan samarali foydalanish imkoniyatlari o‘rganilgan, shuningdek, kasbiy ta’lim muassasalari o‘quvchilariga ingliz tilida muloqot ko‘nikmalarini interaktiv tarzda o‘rgatishni tashkil etishning zamonaviy shakllari, tamoyillari va usullari keltirib o‘tilgan.

**“Ta’lim integratsiyasi asosida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish”** mavzusidagi maqola muallifi Mamataliyeva Mohinur bo‘lib, ushbu maqolada talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish oliy ta’limning sifatini oshirish jarayonidagi ijtimoiy rolini ta’minlash masalalari haqida fikr yuritilgan.

Soliyev Elyor Ravshanbek o‘g‘li muallifligida **“Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga meta texnologiyalar asosida tayyorlash yo‘nalishlari”** mavzusidagi maqolada kasbiy faoliyatda Meta-texnologiyalar o‘zlashtirib, ta’lim muassasalari joriy sanoat amaliyotlari va rivojlanayotgan tendensiyalarni aks ettirish uchun o‘z o‘quv dasturlarini yangilashlari yo‘lida bir qator ma’lumotlar yoritiladi.

Tagayev Odil Nurmuminovich tomonidan yozilgan **“Raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak iqtisodiyot mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning algoritmik bosqichlari”** nomli maqolada iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning algoritmik bosqichlari va har bir bosqichga alohida tegishli ijodiy yondashish zarurligi keltirib o‘tilgan.

**“Uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanishni ta’minlash maqsadida pedagog kasbiy mahoratini baholashni rivojlantirish”** mavzusidagi maqola Xalimov Zafar Xatamovich muallifligida bo‘lib, unda pedagoglarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash masalalari muhokama qilingan.

Ravshanov Bexruz Xasanovich muallifligidagi **“Kasbiy ta’limda infokommunikatsion texnologiyalar asosida mutaxassislar tayyorlashning global tendensiyalari”** mavzusidagi maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida ta’limni modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali jismoniy tarbiya yo‘riqchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi bayon etilgan.

**“Uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanishni ta’minlash maqsadida pedagog kasbiy mahoratini baholashni rivojlantirish”** mavzusidagi maqola Xalimov Zafar Xatamovich muallifligida bo‘lib, unda pedagoglarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash masalalari muhokama qilingan.

Yangibayev Kamol Norboyevich muallifligidagi **“Kasbiy ta’lim muassasalarida individual yondashuv orqali rahbar xodimlarning boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlari”** mavzusidagi maqolada kasbiy ta’lim muassasalarida individual yondashuv orqali rahbar xodimlarning boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlari o‘rganilgan.

Sirojiddinov Ilxom Ibroximovich muallifligidagi maqola yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Xasanova Nargiza Atxamovna muallifligidagi **“Kasbiy ta’lim tizimining turizm mutaxassislarini o‘qitish jarayonida muammoli ta’limning ahamiyati”** mavzusidagi maqolada muammoli ta’limning professional ta’lim turizm yo‘nalishida yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashda strategik ahamiyati yoritib berilgan.

Ushbu QR kodni skaner qiling va konferensiya materiallari bilan tanishing

**Professional ta’limni rivojlantirish institutida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi.**

Professional ta’limni rivojlantirish instituti tomonidan 2024-yil 9-noyabr kuni “Xalqaro tajribalar asosida professional ta’lim muassasalarining yangi qiyofasini yaratish va kadrlar tayyorlashni sifat bosqichiga olib chiqishning muammolari va yechimlari” mavzusiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi. Anjumanda xalqaro tajribalar asosida professional ta’lim muassasalarini rivojlantirish strategiyasi, professional ta’lim tizimida fan-ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash va dual ta’limni rivojlantirish masalalari, professional ta’lim tizimi rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish va kasbiy rivojlanish sohasida muammo va yechimlar, o‘quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash orqali kambag‘allikni qisqartirish masalalari, ta’lim tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish istiqbollari muhokama qilindi.

**27 nafar kasbiy ta’lim tashkilotlarining nemis tili o‘qituvchilari Germaniyada malaka oshirib qaytishdi.**

Joriy yil 15-oktabrdan 14-dekabrga qadar kasbiy ta’lim tashkilotlarining 27 nafar saralab olingan nemis tili o‘qituvchilari guruhi Germaniyaning Gyote instituti, “TELS” til o‘qitish tizimi va “Askania Future GmbH” kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil qilingan malaka oshirish kursida ishtirok etishdi. Germaniyalik mutaxassislar tomonidan 8 hafta davomida dushanbadan jumaga qadar o‘qituvchilar uchun har kuni 6 akademik soat (jami 240 soat) malaka oshirish kursi yo‘lga qo‘yildi. Malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan o‘qituvchilarga Gyote instituti va “TELS” til o‘qitish tizimining C1 va C2 sertifikatlari taqdim qilinadi.



# O‘ZBEKISTONDA KASBIY TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: DUAL TA’LIM VA XALQARO HAMKORLIKNING AHAMIYATI

**Xudayberdiyev Zayniddin Yavkachevich,**
Professional ta’limni rivojlantirish instituti direktori,
iqtisod fanlari doktori, professor

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi yo‘nalishlari tahlil qilingan. Ta’lim jarayoniga dual ta’lim tizimini joriy qilish mehnat bozori ehtiyojlarini qondirishdagi innovatsion yechim sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularning ta’lim tizimi samaradorligiga ta’siri, xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlashtirishning kadrlar malakasini oshirishdagi o‘rni keng yoritilgan. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari orqali ta’lim jarayonini kuchaytirish va milliy ta’lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlash strategiyalari muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy ta’lim, dual ta’lim, raqamli texnologiyalar, nazariya va amaliyot uyg‘unligi, xalqaro standartlar, mehnat bozori.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы новые направления проводимых реформ по совершенствованию системы профессионального образования в Узбекистане. Внедрение системы дуального образования в образовательный процесс рассматриваемое как инновационное решение в удовлетворении потребностей рынка труда. Также широко освещается внедрение цифровых технологий и их влияние на эффективность системы образования, роль сертификации по международным стандартам в повышении квалификации кадров. Обсуждались стратегии укрепления образовательного процесса и обеспечения международной конкурентоспособности национальной системы образования через механизмы финансовой поддержки.

**Ключевые слова:** профессиональное образование, дуальное образование, цифровые технологии, сочетание теории и практики, международные стандарты, рынок труда.

**Annotation.** This article examines the new directions of reforms aimed at improving the vocational education system in Uzbekistan. The implementation of the dual education system is analyzed as an innovative solution for meeting labor market demands. Additionally, the article explores the role of digital technologies in enhancing the efficiency of the education system and the impact of international certification standards on improving workforce qualifications. Strategies for strengthening the educational process through financial support mechanisms and ensuring the global competitiveness of the national education system are also discussed.

**Key words:** vocational education, dual education, digital technologies, integration of theory and practice, international standards, labor market.

Kasbiy ta’lim tizimi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Bugungi globalizatsiya jarayonlari va mehnat bozorining tezkor o‘zgaruvchanligi sharoitida har bir davlat uchun yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash ishlab chiqarish sohalarining innovatsion taraqqiyotini ta’minlay-

TO READ THE ARTICLE IN ENGLISH

ПРОЧИТАТЬ СТАТЬЮ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ


ISSN 2181-3841

digan muhim omil hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi va integratsiya jarayonlarining oshib borishi ham milliy ta'lim tizimlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yanada oshirmoqda. Bu o'z navbatida, iqtisodiyotning turli sohalari uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish, uni zamonaviy talablarga moslashtirish va xalqaro tajribalarni joriy etish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 16-oktabrda qabul qilingan PF-158-sonli Farmon mamlakatimizda kasbiy ta'lim sohasidagi islohotlarning yangi bosqichini belgilab berdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu farmonda ta'lim jarayonlarining integratsiyasini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish va xalqaro standartlarga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish belgilangan. Ta'lim tizimi nafaqat iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish, balki jamiyatning umumiy taraqqiyoti uchun ham asosiy omildir. Xususan, mehnat bozoriga muvofiq mutaxassislarni tayyorlash orqali mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ta'lim sifati jamiyatda bilimli avlodni shakllantirish orqali milliy taraqqiyot uchun mustahkam asos bo'ladi. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirish, uni jahon talablari darajasiga yetkazish va iqtisodiyotning yangi talablariga moslashuvchanlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida, ayniqsa, kasbiy ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sektor mehnat bozori ehtiyojlariga mos ravishda mutaxassislarni tayyorlashda muhim vosita hisoblanadi. Prezident farmonida ta'kidlanganidek, xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish, dual ta'lim amaliyotini tatbiq qilish va ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish O'zbekistondagi ta'lim sifatini yangi darajaga olib chiqish uchun strategik ahamiyatga ega bo'ladi.

**Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari, mehnat bozorining xalqaro ko'lamdagi integratsiyasi va raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talabning ortishi milliy ta'lim tizimlarining xalqaro tajribalarga asoslanishini talab qilmoqda. Xalqaro ta'lim dasturlari orqali mahalliy ta'lim jarayonini jahon standartlariga moslashtirish imkoniyati yaratiladi. Xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilishi bir qator muhim afzalliklarni taqdim etadi:**

***Birinchidan**, bu dasturlar orqali o'quvchilar xalqaro miqyosda tan olinadigan bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Xususan, ularning diplomlari xalqaro bozorda tan olinishi, ularni jahonning turli mamlakatlarida mehnat qilish imkoniyatiga ega qilishda muhim rol o'ynaydi.*

***Ikkinchidan**, xalqaro ta'lim dasturlari innovatsion o'qitish metodlarini joriy qilish orqali o'quv jarayonining sifatini oshiradi. Masalan, Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan dual ta'lim tizimi nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashtiradi. Bu esa o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda samarali yechim sifatida ko'rilmoqda.*

O'zbekiston Respublikasida xalqaro ta'lim dasturlari milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilinayotgani, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini xalqaro talablarga mos ravishda shakllantirishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Bu dasturlar orqali o'quvchilar xalqaro standartlarga muvofiq bilimlarga ega bo'lib, ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi oshadi. Shuningdek, bitiruvchilarga xalqaro standartlarga mos diplom va sertifikatlarning taqdim etilishi ularning ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dual ta'lim tizimi xalqaro ta'lim dasturlarining eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi. Ushbu tizim o'quv jarayonini ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg'unlashtirishga asoslangan. Bunda o'quvchilarning nazariy bilimlari real ishlab chiqarish jarayonida qo'llana-

di, bu esa ularning kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Prezident farmonida ta‘kidlanganidek, dual ta‘lim modeli O‘zbekistonda ham joriy etilib, mahalliy talablarga moslashtirilishi nazarda tutildi. Bu orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliyot orqali mustahkamlangan real kasbiy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Shuningdek, xalqaro ta‘lim dasturlari O‘zbekistonning ta‘lim tizimida ilg‘or texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy qilish uchun zamin yaratadi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan dasturlar orqali mahalliy o‘quvchilar xalqaro talablarga mos mutaxassis bo‘lib yetishadilar. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik orqali ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish va ularni mehnat bozorining murakkab talablariga moslashtirish imkoniyati yaratiladi.

Dual ta‘lim – kasbiy ta‘lim jarayonini ishlab chiqarish amaliyoti bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan innovatsion modeldir. Ushbu tizimda o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida ta‘lim muassasalarida nazariy bilim olishlari va ishlab chiqarishda amaliy tajriba orttirishlari mumkin. Dual ta‘lim tizimi Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilib, yuqori samaradorlikka erishilgan. O‘zbekistonda dual ta‘lim modeli mahalliy talablarga moslashtirilgan holda joriy etilmoqda.

**Dual ta‘limning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat:**

**• Ishlab chiqarishga yaqinlashtirish: dual ta‘lim orqali o‘quvchilar ish beruvchilar tomonidan belgilangan aniq kompetensiyalarni o‘zlashtiradilar.**

**• Kasbiy ko‘nikmalarni mustahkamlash: amaliyot jarayonida o‘quvchilar nazariy bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.**

**• Mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik: dual ta‘lim tizimi orqali bitiruvchilar zamonaviy mehnat bozori talablariga to‘liq javob beradigan ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.**

Dual ta‘limning samaradorligi ish beruvchilarning faol ishtirokida namoyon bo‘ladi. Ular ta‘lim jarayonining barcha bosqichlarida faol ishtirok etib, o‘quvchilarga amaliyot uchun zarur infratuzilmani ta‘minlaydi va o‘quv dasturlarining ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligini nazorat qiladilar. Shuningdek, ish beruvchilar o‘quv jarayonida ishtirok etish orqali o‘zlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarning ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashuvi kasbiy ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Bitiruvchilarning kasbiy ko‘nikmalari ishlab chiqarish jarayonining talablariga muvofiq ravishda shakllantiriladi. **Bunda ularning nazariy bilimlari va amaliy tajribasi o‘zaro uyg‘unlashtiriladi. Ishlab chiqarish jarayoniga bitiruvchilarni tayyorlash jarayonida quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:**

**• Aniq kompetensiyalarni shakllantirish:** bitiruvchilar ish beruvchilar talablariga muvofiq ravishda bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

**• Amaliyot orqali bilimlarni mustahkamlash:** ta‘lim jarayonining amaliy jihatlari ishlab chiqarishda qo‘llaniladi, bu esa bitiruvchilarning malakasini oshiradi.

**• Mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish:** tayyorlangan kadrlar mehnat bozoridagi talablarga tezkor moslashish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayoniga tayyorlash jarayonida kadrlarning malakasini baholash va ish beruvchilar tomonidan aniq talablarni belgilashning ahamiyati katta. Ish beruvchilar ishtirokida amalga oshiriladigan baholash jarayoni bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlashda muhim vosita bo‘ladi. Shu asosda o‘quv jarayoni qayta ko‘rib chiqilib, ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Kasbiy ta‘lim tizimini takomillashtirishda xalqaro hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Germaniya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning kasbiy ta‘limdagi ilg‘or amaliyotlari O‘zbekiston uchun o‘rnak bo‘ladi. Ushbu modellarning asosiy o‘ziga xosligi — dual ta‘lim tizimining


ISSN 2181-3841

keng qo‘llanilishidadir. Dual ta’lim tizimi, nazariy ta’limni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirgan holda, o‘quvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda eng samarali yondashuv hisoblanadi.

Germaniya modeli dual ta’limning klassik namunalaridan biri sifatida tan olingan. Germaniyada o‘quvchilar ta’lim jarayonining katta qismini ishlab chiqarishda o‘tkazadilar, bunda ish beruvchilar ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ishtirok etadilar. Mehnat bozori talablariga mos ravishda tuzilgan o‘quv dasturlari o‘quvchilarni ishlab chiqarish jarayonida zarur bo‘lgan aniq ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Bu tizim orqali ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashgan kadrlar mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘ladi.

Janubiy Koreya modeli esa texnologik va innovatsion yondashuvlari bilan ajralib turadi. Koreyada ta’lim jarayoni yuqori texnologiyali sanoat talablariga mos ravishda tashkil etilgan bo‘lib, o‘quvchilarga amaliyotda zarur innovatsion ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati taqdim etiladi. Shuningdek, Janubiy Koreyaning ta’lim tizimi ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashtirilgan holda tashkil etilgan bo‘lib, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlikka asoslanadi. O‘zbekistonda ushbu modellardan olingan ilg‘or amaliyotlar, xususan, dual ta’lim tizimini joriy etish, ta’lim jarayonini ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtirish va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish orqali tatbiq etilmoqda. Dual ta’lim modeli mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan holda rivojlantirilmoqda.

Kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirishda xalqaro standartlar va sertifikatlar asosida kadrlar tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Xalqaro darajada tan olinadigan sertifikatlar bitiruvchilarning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ularning malaka darajasini xalqaro talablarga mos ravishda oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda xalqaro sertifikatlar asosida ta’lim olish jarayoni yetakchi xorijiy universitetlar va ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik orqali tashkil etilmoqda. Masalan, dual ta’lim tizimida o‘quvchilar amaliyot davomida xalqaro sertifikatlarni olish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa ularga mehnat bozoridagi talabini oshiradi. PF-158-sonli farmonga muvofiq, bitiruvchilar xalqaro standartlarga mos diplom va sertifikatlar bilan ta‘minlanadi. Bu O‘zbekistonning ta’lim tizimini xalqaro darajada tan olingan zamonaviy modelga aylantirishda muhim qadamdir. Kasbiy ta’lim tizimini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun moliyaviy qo‘llab-quvvatlash muhim omil hisoblanadi. Ta’lim sohasidagi moliyaviy resurslarni muvofiqlashtirish va ularni samarali boshqarish maqsadida O‘zbekistonda Kasbiy ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi. Ushbu jamg‘armaning asosiy vazifalari quyidagilar etib belgilandi:

- Kasbiy ta’lim tizimini zamonaviy jihozlar va infratuzilma bilan ta’minlash;
- Xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish va ularni moliyalashtirish;
- Oliy ta’lim muassasalari va texnikumlar o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Dual ta’lim tizimini amalga oshirish uchun ish beruvchilar bilan hamkorlik qilish.

Jamg‘arma mablag‘lari davlat budjeti, xususiy sektor investitsiyalari va xalqaro grantlardan shakllantiriladi.

Dual ta’lim modelining muvaffaqiyati ish beruvchilarning o‘quv jarayonidagi faol ishtirokiga bog‘liq. Ularning ishtirokida o‘quv dasturlari qayta ko‘rib chiqiladi, amaliyot maydonlari yaratiladi va o‘quvchilarning malaka darajasi talablarga mos shakllantiriladi. Bu jarayon ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan tayyor kadrlarni yetishtirishga imkon beradi. Beshinchidan, dual ta’lim modeli bitiruvchilarning ishlab chiqarish jarayoniga tez moslashishiga yordam beradi, bu esa ish beruvchilar uchun resurslarni tejash va ish samaradorligini oshirish imkonini yaratadi. Shuningdek, dual ta’lim tizimi orqali milliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirish mumkin. O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu yondashuvlarning keng qo‘llanilishi mamlakatning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini takomillashtirish jarayonida dual ta’lim modeliga

asoslangan innovatsion yondashuvning joriy qilinishi mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu model nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash orqali ishlab chiqarish jarayoni uchun tayyor kadrlarni yetkazib berishga qaratilgan. Ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bu sohadagi asosiy yo‘nalishlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida dual ta’lim modeliga asoslangan yondashuv global raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy vositasi bo‘ladi. Ushbu modelning keng joriy etilishi mehnat bozoriga zamonaviy va raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim jarayonida innovatsiya va integratsiyani yanada rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

**Ushbu maqsadlarga erishish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:**

**Dual ta’lim tizimini kengaytirish:** Germaniya va Janubiy Koreya modellari tajribasidan foydalangan holda dual ta’lim tizimini O‘zbekistonning barcha hududlarida joriy qilish lozim. Bu jarayonda ish beruvchilarning faol ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

**Innovatsion infratuzilmani yaratish:** zamonaviy laboratoriyalar, ustaxonalar va amaliyot bazalarini tashkil qilish, o‘quv jarayonining amaliyot bilan uyg‘unlashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

**Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish:** yetakchi xorijiy universitetlar va ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali xalqaro standartlarga mos dasturlar va sertifikatlarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

**Raqamli texnologiyalarni yanada rivojlantirish:** “Kasbiy ta’lim” elektron platformasining faoliyatini kengaytirish, uning “Elektron hukumat” tizimi bilan integratsiyasini takomillashtirish lozim.

**Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash:** kasbiy ta’limni rivojlantirish uchun davlat budjeti mablag‘lari bilan birga, xususiy sektor va xalqaro grantlarni jalb qilish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 16-oktabrdagi PF-158-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o‘rtasida ko‘p qirrali hamkorliikni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 1-fevraldagi PQ-4145-son qarori.
3. Choriyev R.K., Kasb ta’limi mutaxassislarini dual ta’lim tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoref.- T.: 2020. 22 s.
4. Ashurova S.Y., Karmova N.N., “Dual ta’lim shaklida mutaxassisning kasbiy standartlarini loyihalash”, Uslubiy qo‘llanma.-T.:2024.
5. Pardayev M.Q. va boshqalar. “Ta’lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari”. Monografiya. “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi”, 2020. – 256 b.
6. Avliyaqulov A.K., Xodjayev N.S., “Professional ta’lim tizimida dual ta’limning modeli”, Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, 2020-yil, 48-52 b.



ISSN 2181-3841

# KASBIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNINIG ZAMONAVIY YO‘LLARI VA YECHIMLARI

**Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich,**
Professional ta’limni rivojlantirish instituti direktor o‘rinbosari,
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Annotatsiya:** Maqolada kasbiy ta’lim tizimida olib borilayotgan so‘nggi islohotlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kasbiy ta’limni rivojlantirishga oid farmon va qarorlarining mazmun va mohiyati ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Milliy malaka tizimi, respublika va tarmoq kengashlari, yagona raqamli platforma, kasbiy ta’lim, akademik mustaqillik, raqamli kontent, raqamlashtirish, xalqaro ta’lim dasturlari.

**Аннотация:** В статье раскрывается содержание и характер последних реформ в системе профессионального образования, в том числе указов и постановлений Президента Республики Узбекистан О развитии профессионального образования.

**Ключевые слова:** Национальная квалификационная система, республиканские и отраслевые советы, единая цифровая платформа, профессиональное образование, академическая независимость, цифровой контент, оцифровка, международные образовательные программы.

**Annotation:** The article reveals the content and nature of recent reforms in the vocational education system, including decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan On the development of vocational education.

**Key words:** National qualification system, republican and sectoral councils, unified digital platform, professional education, academic independence, digital content, digitization, international educational programs.

Bugun jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan yangi O‘zbekistonni zamonaviy bilimga ega, mustaqil fikrlaydigan, ilmiy innovatsion salohiyatli kadrlarsiz tasavvur qilish qiyin. Yurtimizda 2030-yilga borib jon boshiga hisoblaganda aholi daromadlari dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga chiqish maqsad qilingan.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarimizning bilimi va saviyasini, intellektual salohiyatini oshirish birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Zero, fan va innovatsiya renessans poydevoridir. Bugun ilm-fan va innovatsion yutuqlarni keng joriy etish orqaligina raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash mumkin.

Mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan o‘rta bo‘g‘in mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida bo‘layotgan o‘zgarishlar, ya’ni qabul qilingan qonun, farmon, qaror va farmoyishlar jamiyatimiz ravnaqiga ijobiy ta’sir qilishi shubhasizdir. Ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishda, davlat ta’lim standarti talablariga javob bera oladigan yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Shu o‘rinda, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 24-sentabr kuni kasbiy ta’limni rivojlantirish va milliy malaka tizimini isloh qilishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishib,

bugungi kunda kasbiy ta’lim muassasalari tabaqalashganligi, ta’lim dasturlari o‘rtasida uzviylikning yo‘qligi sababli mavjud quvvatlardan unumli foydalanilmayotgani, ular turli vazirlik va idoralarga qarashli bo‘lib, xalqaro ta’lim dasturlarining yo‘lga qo‘yilmaganligi, tizim bo‘yicha maqsadli elektron platformaning yaratilmaganligi, Milliy malaka tizimini isloh qilish bo‘yicha ishlar talab darajasida emasligi kabi bir qator kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha aniq topshiriq va ko‘rsatmalarni berib o‘tgan edi.

Ta’kidlash joizki, yangi O‘zbekiston yoshlarini davr talabiga mos ravishda tarbiyalash va ular kelajagi uchun ulkan zamin yaratish maqsadida kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi yangi farmon va qarorlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son qarori bilan Milliy malaka tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha respublika va tarmoq kengashlari, ularning tarkibi va asosiy vazifalari, tarmoq kengashlari faoliyatini tashkil etish uchun mas’ul bo‘lgan vazirlik va idoralar o‘zlarining markaziy apparati tuzilmasida umumiy shtat birliklari doirasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha alohida bosh mutaxassis lavozimini kiritish, Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasini yaratish vazifalari belgilab berildi.

Shuningdek, ushbu qaror bilan “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi huzurida Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti tashkil etildi. Mazkur institutning tashkil etilishi Respublikada Milliy malaka tizimini rivojlantirish, kasb standartlarini mazmunan va sifatli yaratish, Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasini joriy etish, Milliy malaka tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va bu borada metodologik xizmatlar ko‘rsatish, tarmoq kengashlari a’zolari va malakalarni baholash markazlari xodimlarining malakasini oshirish hamda tasdiqlangan malakaga ega shaxslar milliy va kasbiy standartlar reyestrlarini shakllantirish va yuritishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ushbu qarorda “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisiga Milliy malaka tizimini rivojlantirish bo‘yicha malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish, tegishli takliflarni tayyorlash, kasbiy standartlar asosida natijaga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish, malakalarni baholash markazlarini uslubiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida asosiy baholash mezonlarini ishlab chiqish, Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasini yaratish va uning amaliyotga kiritilishini ta’minlash, kasbiy standartlar loyihalarini ishlab chiqish, muhokamadan o‘tkazish va manfaatdor tomonlar bilan kelishish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1 800 ta kasbni qamrab oluvchi kasbiy standartlar ishlab chiqilishini va amaliyotga kiritilishini ta’minlash vazifalari yuklatildi.

ПРОЧИТАТЬ СТАТЬЮ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ

TO READ THE ARTICLE IN ENGLISH

***O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonida kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib kasbiy ta’limning barcha darajalari bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona ko‘p tarmoqli o‘quv muassasalari tizimini joriy qilish, ularning akademik mustaqilligini ta’minlash, maxsus elektron platformani yaratish, eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, zarur o‘quv adabiyotlari va raqamli kontentlar bilan ta’minlash, o‘quv jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish hamda kasbiy ta’lim sohasida zamonaviy boshqaruv tizimini va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish, bitiruvchilarning ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash tizimini tubdan yangilash vazifalar belgilab berildi.***


ISSN 2181-3841

**Mazkur qabul qilingan Farmon va qaror mamlakatimizda kasbiy ta’lim tizimini izchil rivojlantirishga katta xizmat qiladi. Mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlarning mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan ushbu normativ-huquqiy hujjatlarga asosan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:**

*kadrlar tayyorlash Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi va O‘zbekiston milliy malaka tizimi talablariga mos ravishda tashkil etiladi;*

*boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus kasbiy ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi, shuningdek, malaka va kompetensiyalar bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etiladi;*

*boshlang‘ich kasbiy ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining 9-sinfini tamomlagan o‘quvchilar uchun — davlat granti asosida, kamida umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan boshqa talabgorlar uchun — to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi;*

*o‘rta va o‘rta maxsus kasbiy ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlar tayyorlash davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida tashkil etiladi;*

*turli darajadagi kasbiy ta’lim dasturlarining o‘zaro muvofiqligi va uzviyligi ta’minlanadi hamda ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish muddatlari o‘quvchi tomonidan oldin o‘zlashtirilgan modullardan kelib chiqib belgilanadi;*

*o‘rta maxsus kasbiy ta’lim dasturlarining bitiruvchilariga o‘zlashtirgan modullari, to‘plagan kreditlari va oliy ta’lim tashkiloti tomonidan belgilangan ballar o‘rtacha qiymatidan (GPA) kelib chiqib, bakalavriatning tegishli bosqichidan o‘qishni davom ettirishga ruxsat etiladi;*

*zarur metodik va pedagogik ta’minot, o‘quv va laboratoriya xonalari, ustaxona jihozlari, amaliyot bazalari hamda ish beruvchilarning buyurtmalari mavjud bo‘lgan taqdirda, oldin o‘qitish yo‘lga qo‘yilmagan ta’lim darajalari bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yishga ruxsat etiladi;*

*kasbiy ta’lim dasturlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi hamda kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashlari, tadbirkorlik subyektlari birlashmalari, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilganidan so‘ng amaliyotga kiritiladi;*

*bitiruvchilarni yakuniy baholash soha ekspertlari, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashlari, baholash tashkilotlari, ish beruvchilar, uyushmalar va tadbirkorlik subyektlari birlashmalari vakillari ishtirokida demonstratsion imtihonlar shaklida amalga oshiriladi;*

*kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilariga davlat namunasidagi hujjatlarni berishning yagona tartibi joriy etiladi. Bunda kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirgan shaxslarga — diplomlar, qisqa muddatli kurslar bitiruvchilariga — o‘qigan moduliga qarab tegishli kompetensiyani (malakani) egallaganlik to‘g‘risidagi sertifikatlar beriladi;*

*barcha yuridik va jismoniy shaxslarga «Kasbiy ta’lim» platformasidan ochiq va bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi;*

*oliy ta’lim muassasalari zimmasiga ularga biriktirilgan texnikumlarga o‘quv-uslubiy yordam ko‘rsatish, ta’lim sifatini oshirish hamda ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash vazifalari yuklatildi.*

*2025/2026-o‘quv yilidan boshlab texnikumlarga:*

*ta’lim dasturlari doirasida ishlab chiqilgan ishchi o‘quv rejasi va dasturlarini qayta ko‘rib chiqishga, shu jumladan, buyurtmachilarning takliflariga muvofiq fanlarni bir-biriga integratsiya qilishga hamda ajratilgan soatlar doirasida mutaxassislik va umumkasbiy fan (modul)larning soatlarini 30 foizgacha o‘zgartirishga;*

*Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda yetakchi xorijiy ta’lim tashkilotlari ishtirokida to‘lov-kontrakt asosidagi qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy qilishga;*

*mahalliy va xorijiy ish beruvchilar bilan to‘lov-kontrakt asosida kadrlar tayyorlash va qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzishga, ushbu dastur va kurslarning ta’lim tili va o‘qitish qiymatini mustaqil belgilashga;*

*Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan turli yoshdagi fuqarolar va ishsizlarni kasb-hunar, xorijiy tillar va tadbirkorlikka o‘qitish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil qilishga;*



*kasbiy ko‘nikmalar markazlaridan amaliyot bazalari sifatida bepul foydalanishga ruxsat berildi.*

2025/2026-o‘quv yilidan boshlab 14 ta texnikumda xalqaro ta’lim dasturlari joriy qilinadi va ularga to‘liq akademik mustaqillik beriladi hamda 12 ta kvalifikatsiyalar bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi;

xalqaro ta’lim dasturlari asosida ta’lim olgan va imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan o‘quvchilarga xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha diplom (sertifikat) hamda kasbiy ta’lim to‘g‘risida davlat namunasidagi diplom beriladi;

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga texnikumlarda xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish bo‘yicha xorijiy tashkilotni eng maqbul takliflarni tanlab olish yo‘li bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida jalb qilishga ruxsat berildi;

kasbiy ta’lim tizimida yagona davlat siyosatini yuritish bo‘yicha mas’ul organ etib Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi belgilandi;

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda davlat texnikumlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash vakolati berildi;

texnikumlarning direktor va direktor o‘rinbosari lavozimlariga talabgorlarni ochiq tanlov asosida tanlash tartibi joriy qilinib, bu Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maxsus elektron platformasi orqali amalga oshiriladi;

direktor va direktor o‘rinbosarlari bilan ular tomonidan taqdim etilgan strategik rejaga asosan uch yillik mehnat shartnomasi tuziladi;

muddati tugagandan so‘ng direktor va direktor o‘rinbosarlari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi strategik rejada belgilangan vazifalarning bajarilganligiga qarab, kelgusi uch yilga uzaytirilishi mumkin;

o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Kasbiy ta’limni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etiladi.

Mazkur Farmon bilan 2025–2027-yillarda kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining tasdiqlanishi professional ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalarni belgilab berdi, jumladan:

belgilangan muddatlarda vazirlik, idora va tashkilotlar tasarrufi (tizimi)dagi kollej va tex-


ISSN 2181-3841

nikumlarni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufiga o‘tkazib berish;

texnikumlarning o‘quv amaliyotlari (modul amaliy mashg‘ulotlari)da o‘quvchilar tomonidan foydalaniladigan xomashyo materiallari me’yorlarini ishlab chiqish;

texnikumlarni yuqori malakali rahbar va pedagog xodimlar bilan ta’minlash;

mehnat qonunchiligiga dual ta’limni tashkil etishga doir o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil qilish;

texnikumlar faoliyatini yaxshilash bo‘yicha xalqaro moliya institutlari mablag‘larini jalb etish;

kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari bilimini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish;

texnikumlarda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish;

chet el fuqarolarini texnikumlarga o‘qishga qabul qilish tartibini takomillashtirish;

texnikumlarga ish beruvchi tashkilotlarni biriktirish;

texnikum o‘quvchilarining kasblar bo‘yicha xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlash;

kasbiy ta’lim va qisqa muddatli o‘quv kurslarning dasturlari loyihalarini manfaatdor vazirlik va idoralar hamda ish beruvchilar bilan kelishish tizimini joriy etish;

texnikumlarda o‘quvchilarni jalb qilgan holda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish;

Yevropa kasbiy ta’lim va kasbga o‘qitish sifatini ta’minlash (EQAVET) tizimi asosida Milliy kasbiy ta’lim sifati mezonlarini ishlab chiqish;

o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim tashkilotlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari va tarif razryadlarini belgilovchi yagona tartibni ishlab chiqish;

texnikumlarning raqamli infratuzilmasini yaxshilash, ularda AR/VR laboratoriyalari, shourumlar hamda Wi-Fi hududlar tashkil etish;

texnikumlar o‘quv jarayoniga Germaniyaning ilg‘or tajribalari va metodikalari asosida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini joriy qilish;

texnikumlar va oliy ta’lim tashkilotlarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlash;

texnikumlarning xorijiy ish beruvchilar bilan yaqindan hamkorlik qilishini ta’minlash;

Milliy ta’lim dasturlarini xalqaro ta’lim dasturlari bilan uyg‘unlashtirish;

texnikumlarda xorijiy va mahalliy ish beruvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda maqsadli kadrlar tayyorlashni joriy qilish bo‘yicha karyera markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

texnikumlarning xalqaro ta’lim dasturlariga o‘quvchilar qabulini tashkil qilish;

Xalqaro ta’lim dasturlari joriy qilinadigan texnikumlarning xodimlari va pedagoglari mehnatiga haq to‘lashning alohida tartibini joriy qilish;

Xalqaro ta’lim dasturlari joriy etiladigan texnikumlarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash.

Xorijiy tajribalar asosida yuqorida qayd etilgan vazifalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bu kasbiy ta’limning zamon talablariga munosib ravishda rivojlanishiga va mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlanishiga zamin yaratadi va pirovard natijada iqtisodiy barqarorlik ta’minlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son qarori.

# DUAL TA'LIMDA OLIY TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISH HAMKORLIGIDAGI INTEGRATSIYA DARAJALARI

**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,**
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dual ta'lim tizimida oliy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya darajalari tahlil qilingan. Dual ta'lim – bu ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirgan tizim bo'lib, talabalar nazariy bilimlar bilan birga amaliy ko'nikmalarni ham egallashi ko'zda tutilgan. Integratsiya darajalari quyidagi besh bosqichda ko'rib chiqilgan: past daraja, o'rtacha daraja, yuqori daraja, ikki tomonlama hamkorlik va strategik daraja. Shu bilan birga har bir integratsiya darajasining ta'lim jarayoniga ta'siri va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan imkoniyatlar tahlil qilinib, oliy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyaning samarali tashkil etilishi orqali talabalar uchun amaliy tajriba olish imkoniyatlari oshirilishi va ishlab chiqarish sohasiga yaxshi tayyorlangan mutaxassislar yetkazib berilishi, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasida yanada samarali hamkorlikni yaratishga qaratilgan strategiyalar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** dual ta'lim, oliy ta'lim, ishlab chiqarish korxonalari, integratsiya darajalari, amaliy ta'lim, ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligi, o'quv jarayoni, ko'nikma va malakalar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются уровни интеграции высшего образования и производства в системе дуального образования, дуальное образование - это система, которая объединяет процессы образования и производства, студенты приобретают практические навыки наряду с теоретическими знаниями, уровни интеграции рассматриваются в следующих пяти стадиях: низкий уровень, средний уровень, высокий уровень, двустороннее сотрудничество и стратегический уровень. В то же время анализируется влияние каждого уровня интеграции на образовательный процесс и возможности, реализуемые в сотрудничестве с производством, и считается, что благодаря эффективной организации интеграции между высшим образованием и производством для студентов будут увеличены возможности получения практического опыта и подготовки специалистов для производственной сферы.

**Ключевые слова:** дуальное образование, высшее образование, производственные предприятия, уровни интеграции, практическое образование, образовательно-производственное сотрудничество, система образования, учебный процесс, навыки и компетенции

**Annotation:** This article analyzes the levels of integration between higher education and production in the dual education system, dual education is a system that combines the processes of education and production, students acquire practical skills along with theoretical knowledge, integration levels are considered in the following five stages: low level, average level, high level, bilateral cooperation and strategic level. At the same time, the impact of each level of integration on the educational process and the opportunities carried out in cooperation with production are analyzed, the opportunities for students to gain practical experience through the effective organization of integration between higher education and production are increased, and strategies aimed at providing well-prepared specialists to the field of production, creating more effective cooperation between.

**Key words:** dual education, higher education, manufacturing enterprises, integration levels, applied education, educational and production cooperation, educational process, skills and qualifications.

**Kirish.** Dual ta'limda integrativ ta'limning maqsadi sifatida talabaga ta'lim jarayoni bosqichlarining tizim sifatida o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi bilim va ko'nikmalarni berish, kasbni o'rganishning dastlabki bosqichlaridan boshlab barcha elementlar o'zaro bog'liq bo'lgan butun jarayonni tasvirlashga o'rgatish uchun mo'ljallangan. Integratsiya o'quv quroli sifatida talabaning bilimdonligini rivojlantirishga, ta'limdagi mavjud tor ixtisoslikni yangilashga qaratilgan. Shu bilan birga, integratsiya klassik fanlarni o'qitishning o'rnini bosmasligi kerak, u faqat mutaxassislik fanlaridan olingan bilimlarni yagona ko'nikmalar tizimiga birlashtirishi lozim [1].

Muammoning murakkabligi mashg'ulotning boshidan oxirigacha integratsiyani qanday dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida "hamma narsa haqida biroz" o'rganish tavsiya etilsa, unda turli xil bilim va ko'nikmalar sintezi bo'lsa, trening oxirida "biroz haqida hamma narsani" bilib oldik, ya'ni bu tor ixtisoslashuv, lekin yangi integrativ darajada tez o'zlashtirdik, degan fikrga kelishida ifodalanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Ushbu masala bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilib, integratsiyaning quyidagi ta'rifini shakllantirish mumkin: integratsiya – bu fanlar, o'quv fanlari, o'quv fanlarining amaliy mashg'ulotlari va mavzularining chuqur, izchil, ko'p qirrali ochib berilgan yetakchi g'oya va yetakchi pozitsiyalarga asoslangan tabiiy o'zaro bog'liqligidir. O'rganilayotgan jarayonlar va hodisalar birligidir. Shuning uchun turli amaliy darslarni birlashtirib emas, balki tanlangan mavzularni bir butunga birlashtirgan holda bir mavzuning materialini boshqasining materiali bilan to'ldirish kerak. Bundan tashqari, har qanday material kombinatsiyasi bilan, dars bag'ishlangan mavzu g'oyasi yetakchi, asosiy bo'lib qolishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalari va korxonalar hamkorligida integratsiyalashgan dars tushunchasining o'zi munozarali bo'lib qolmoqda. Bunday darsni aniq va uzoq muddatli vazifalarni hal qiladigan va rejalashtirilgan ikkita yoki mavzulardan sifat jihatidan farq qiladigan yangi murakkab birlikni ifodalovchi dars deb hisoblash mumkin. Shu sababli, bir nechta o'qituvchi mavjudligi ham, o'quv fanlari materiallarining mexanik birikmasi ham integratsiya darajasining ko'rsatkichi emas. Bu daraja faqat integratsiya orqali bajarilishi mumkin bo'lgan vazifalar doirasi bilan belgilanadi. Bu, birinchi navbatda, kognitiv qiziqishning kuchayishi va umumiy ta'lim qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidir [2].

Integratsiyaning 1-darajasida o'quv materiali aniq bir mavzu doirasida birlashtiriladi. Yodlash emas, balki o'quv materialini o'rganish o'quv materialining turli qismlaridan yagona yaxlitlik yaratilganda, fan mavzusidan kompleks ta'limga o'tish imkonini beradi.

2-bosqichda ma'lumotni yaxshiroq yodlash, takrorlash va mavzuga qo'shimcha materiallarni kiritish uchun turli fanlarning konseptual va axborot sohasi birlashtiriladi.

3-bosqich korxonadagi texnik-texnologik jarayonlarni qiyosiy-umumlashtiruvchi o'rganish vazifalari bilan bog'liq bo'lib, o'quvchilarining hodisalar va obyektlarni taqqoslash qobiliyatini rivojlantirishda ifodalanadi.

Integratsiyaning 4-darajasida o'quvchilarning o'zlari faktlar, mulohazalarni solishtirish, aloqalar va jarayonlarning algoritmini o'rnatish, ishlab chiqilganlarni qo'llashni boshlaydilar. Korxonada integratsiyalashgan o'qitishning maqsadi o'quvchilarni dunyoni bir butun sifatida ko'rishga va unda erkin harakat qilishga o'rgatishdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dual ta'lim tizimi – ta'lim va ishlab chiqarishni birlashtirgan, o'quvchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan ta'lim modelidir. Ushbu tizimning samarali ishlashi uchun oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi integratsiya darajalari juda muhim ahamiyatga ega [3]. Integratsiya darajasi ta'lim jarayonining qanchalik amaliyot bilan bog'langanini, o'quvchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqaning samarali tashkil etilish darajasini belgilaydi. Dual ta'limda integratsiya darajalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

**1. Past daraja – sinfdan tashqari amaliyot.**

Bu darajada integratsiya minimal bo‘lib, oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori o‘rtasida ko‘p jihatdan aloqalar yo‘q. O‘quvchilar o‘quv jarayonining faqat nazariy qismini o‘zlashtiradilar, amaliyotlar esa sinf yoki laboratoriya sharoitida amalga oshiriladi. Bu daraja o‘quvchilarga ba’zi amaliy ko‘nikmalarni berishga yordam beradi, lekin ularning real ishlab chiqarish jarayonlariga moslashishi juda cheklangan.

**2. O‘rtacha daraja – amaliyot va o‘quv jarayonining birgalikda olib borilishi.**

Bu darajada ishlab chiqarish sektori va oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida hamkorlik kuchayadi. O‘quvchilar o‘quv jarayoni davomida ishlab chiqarish tashkilotlarida amaliyot o‘tashadi, lekin amaliyot faqat ma’lum bir vaqt oralig‘ida, odatda o‘quv yilining yakunida yoki ta’til vaqti amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishish va o‘quv mashg‘ulotlarida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish osonlashadi, ammo integratsiya hali ham qisman bo‘ladi.

**3. Yuqori daraja – ishlab chiqarish jarayonlariga to‘liq integratsiya.**

Bu daraja oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi integratsiyaning eng yuqori darajasi hisoblanadi. O‘quvchilar nafaqat amaliyot, balki butun o‘quv jarayonini ishlab chiqarish muhitida olib boradilar. O‘qishning bir qismi ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalashgan bo‘lib, o‘quvchi nazariy bilimlar bilan birga real ish muhitida ish tajribasini olishadi. Bu modelda oliy ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasida uzluksiz hamkorlik o‘rnatiladi, ularning o‘quv dasturlari ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtiriladi va talabalar real vaqt rejimida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

**4. Ikki tomonlama hamkorlik – oliy ta’lim va ishlab chiqarish sektori o‘rtasida o‘zaro aloqalar va mas’uliyatlarni taqsimlash.**

Bu integratsiya darajasida oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori birgalikda ta’lim dasturlarini ishlab chiqishadi va amalga oshiradilar. O‘quvchilar ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarida qatnashadilar, o‘qish va ish o‘rtasidagi chegara aniq farqlanmaydi. Ishlab chiqarish sektori talabalar uchun o‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi, ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda faol ishtirok etadi, bu esa ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida yanada yuqori darajadagi integratsiyani ta’minlaydi.

**5. Integratsiyaning strategik darajasi – ta’lim va ishlab chiqarishning uyg‘unlashgan strategiyasi.**

Bu integratsiya darajasi oliy ta’lim va ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikni va strategik aloqalarni nazarda tutadi. Bu darajada ishlab chiqarish va ta’lim sohalari bir-birining ehtiyojlariga moslashtirilgan va talabalar o‘qish davomida mutlaqo amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. Oliy ta’lim muassasalari, ish beruvchilar va hukumat o‘rtasidagi birlashgan strategiyalar




ISSN 2181-3841

orqali ta'lim va ishlab chiqarish tizimlari o'rtasida maksimal integratsiya amalga oshiriladi.

Shunday qilib, olimlar integrativlikdan umumiy pedagogik xususiyatni yuzaga chiqarib, tizimlilik va ketma-ketlikning didaktik tamoyillaridan ko'ra o'zida umumiy tartibdagi toifani tasvirlashini ko'rsatib beradilar [4, 5].

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Ko'pgina ilmiy ishlarda ta'lim sohasini integratsiyalash jarayoni muhim jarayon ekanligi, chunki ta'lim sohasida mutaxassislarni chuqur malakali etib tayyorlashda o'quv maqsadi – davlat buyurtmasi, ya'ni oliy ma'lumotli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan bilimdon muhandislarni tayyorlash g'oyasi bilan bog'liq bo'ladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, bunday integratsiya talabalarni o'zini o'zi rivojlantirishga olib boradigan ta'lim jarayonlari doirasida bir xil turdagi tarkibiy qismlar va mazmun elementlari, o'qitish metodikasi va tizimli ravishda tashkil etilishi hisoblanadi [6].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilida, bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarda, pedagogik adabiyotlarda olimlarimiz "integratsiya"ning mazmuni va mohiyati to'g'risida turlicha fikrlar bildirishgan. Bizning fikrimizcha esa, integratsiya – bu ta'lim turlari orasida, fanlararo va mavzulararo o'zaro bog'liqlik va munosabatlar to'g'ri o'rnatilishini ta'minlash va yaxlitlashdan iboratdir. Bizningcha, ta'lim muassasasi kafedrasi va ishlab chiqarish korxonasi o'rtasidagi ta'lim integratsiyasi ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim tushuncha bo'lib, ta'limning ma'lum bosqichi, fan yoki mavzularining muayyan ketma-ketlik va izchilligini ta'minlash orqali talabalarning ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish va rivojlantirishga xizmat qiladi [7].

**Xulosa va takliflar.** Dual ta'lim tizimida integratsiya darajalari ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqaning qanchalik chuqurligini va talabalar uchun amaliy tajriba olish imkoniyatlarini belgilaydi. Yuqori darajadagi integratsiya talabalarni real ish muhitiga to'liq moslashtirishni, ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishni va ta'lim tizimini ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirishni ta'minlaydi. Bu orqali nafaqat talabalar, balki ishlab chiqarish sektori ham foyda ko'radi, chunki yaxshi tayyorlangan mutaxassislar ishlab chiqarish jarayonlarida samarali ishtirok eta oladilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Mirzayev. A. (2017). Ta'limda innovatsion metodlar va dual ta'lim tizimining o'rni. Xalqaro ta'lim tadqiqotlari jurnali, 3(1), 15-19.
2. Saidov. D. (2020). Dual ta'lim va amaliy ta'lim tizimlari: oliy ta'limda samarali qo'llanilishi. Oliy ta'limda sifatni oshirish, 6(4), 112-118.
3. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
4. Shukurov. U. (2019). Normativ-huquqiy baza va dual ta'lim tizimining rivojlanishi. Huquqshunoslik va ta'lim, 8(2), 85-91.
5. To'xtayeva, Z., Usmonova, N., & Umedova, M. M. (2023). Bo'lajak muhandislarning loyihalash ko'nikmalariga qo'yiladigan kasbiy talablar. Talqin va tadqiqotlar, 1(27).
6. Sh, T. Z. (2020). Integration of special subjects in higher education. International Engineering Journal For Research & Development, 5(3), 125-131.
7. O'quv mashg'ulotlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablar. T Zebo, S Muhayo — Innovations in Technology and Science Education, 2023
8. Тўхтаева, З. Ш., Каноатова, Д. С., & Жамолов, Ж. Т. (2019). Интеграционные процессы в развитии системы высшего образования в Узбекистане. Вестник магистратуры, (4-3 (91)), 62.
9. Sharifovna, T. Z. (2019). Organizational-methodological inter-objective integrations in teaching special disciplines. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

# NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN KASBIY TA’LIMDA KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH DIDAKTIK MEXANIZMINING AYRIM JIHATLARI

**Xolmuxamedov Murodullo Maxmudovich,**
Mehnat bozori tadqiqotlari instituti direktori, pedagogika fanlari doktori

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada natijaga yo‘naltirilgan kasbiy ta’limda kambag‘allikni qisqartirish va yoshlar daromadlarini oshirish kabi jamiyat va iqtisodiyot talablari asosida o‘quvchilarning kompetentligini rivojlantirishning didaktik mexanizmining ayrim jihatlari bayon etilgan. Kompetentlikning asosiy komponenti sifatida daromad qilish ko‘nikmalarini belgilash, daromad qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda kasbiy ta’lim tashkilotlarining o‘qituvchi, ishlab chiqarish ta’limi ustalari va o‘quvchilarining pedagogik-didaktik munosabatlarini rivojlantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar, imitatsion simulyatsion muhit talablariga muvofiq tarzda o‘quv jarayonini tashkil etish imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy ta’lim, natijaga yo‘naltirilgan kasbiy ta’lim, iqtisodiy va ijtimoiy kompetentlik, didaktik mexanizm, daromad qilish ko‘nikmalari, imitatsion simulyatsion ta’lim muhiti

**Аннотация:** В данной статье описаны некоторые аспекты дидактического механизма развития компетентности учащихся, соответствующих требованиям общества и экономики, таких как снижение уровня бедности и увеличения доходов молодёжи в профессиональном образовании ориентированном на результат. В качестве основного компонента компетентности рассматриваются навыки получения доходов, а также освещены некоторые аспекты организации образовательного процесса, развития педагогических условий, имитационной и симуляционной среды, педагогико-дидактических взаимодействий педагогов, мастеров производственного обучения и обучающихся профессионально образовательных организаций направленных на формировании навыков получения дохода.

**Ключевые слова:** профессиональное образование, ориентированное на результат,экономическая и социальная компетентность, дидактический механизм, навыки получения дохода, имитационно симуляционная среда обучения.

**Annotation:** This article describes some aspects of the didactic mechanism for developing students’ competence that meet the requirements of society and the economy, such as reducing poverty and increasing youth income in result-oriented vocational education. Income-generating skills are considered as the main component of competence, and some aspects of the organization of the educational process, the development of pedagogical conditions, imitation and simulation environment, pedagogical and didactic interactions of teachers, masters of industrial training and students of professional organizations aimed at forming income-generating skills are also covered.

**Key words:** result-oriented vocational education, economic and social competence, didactic mechanism, income-generating skills, imitation and simulation learning environment.

Uzluksiz kasbiy ta’limga qo‘yilayotgan jamiyat va iqtisodiyotning kambag‘allikni qisqartirish va yoshlar daromadlarini oshirish kabi talablari uzluksiz kasbiy ta’limning boshlang‘ich kasbiy ta’lim dasturlari o‘quvchilarining kompetentligi ushbu talablarga mutanosibligini ta’minlashni taqozo qiladi. Natijaga yo‘naltirilgan kasbiy ta’lim paradigmasi hamda kompetentlikni turkum kompetensiyalarning shakl-

ПРОЧИТАТЬ СТАТЬЮ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ
TO READ THE ARTICLE IN ENGLISH


ISSN 2181-3841


lantirilishiga asosan belgilanishi boshlang‘ich kasbiy ta’lim dasturlari doirasida kasbiy ta’limning didaktik mexanizmini takomillashtirishi o‘qituvchi, ishlab chiqarish ta’limi ustalari va o‘quvchilarning pedagogik–didaktik munosabatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish “chaqiriq”lariga, mahalliy va xalqaro mehnat bozori uchun raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, tez o‘zgarayotgan zamonaviy dunyo talablariga muvofiq tarzda o‘quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi.

Ayni paytda tadqiqotchilar tomonidan kompetensiyalarni, umumta’lim fanlari, umumkasbiy va kasbiy fanlar integratsiyasida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik ta’minotini rivojlantirish bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotlar tahlillari kasbiy ta’lim tizimida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘quvchilarning daromad qilish ko‘nikmalariga alohida kategoriya sifatida qaralmagan, ayniqsa boshlang‘ich kasbiy ta’lim dasturlari yangi strukturasini ishlab chiqishda ta’lim natijalarida aniq belgilanmagan. Boshlang‘ich kasbiy ta’lim dasturlarining xususiyati uzluksiz kasbiy rivojlanishning ilk bosqichi ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan boshlang‘ich kasbiy ta’lim dasturlari doirasida o‘quvchilarga muayyan turdagi mahsulot yetishtirish yoki ishlab chiqarish yoxud ma’lum bir turdagi xizmatlar ko‘rsatish orqali moddiy qiymat yaratish asosida daromad qilish ko‘nikmalarini shakllantirishini asosiy ta’lim natijalari sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir.

Shu tartibda kasbiy ta’lim jarayonining didaktik bosqichlarini yaxlit pedagogik mexanizm sifatida shakllantirish bitiruvchining ichki va tashqi mehnat bozorida raqobat qila olishi, jamoada va jamiyatda munosib o‘rnini topishi hamda mehnat funksiyalariga tayyor bo‘lishi, moddiy qiymat yaratishi, jamiyatning uyushgan hamda uyushmagan bo‘g‘inlarida ijtimoiylasha olishi, daromad qilish ko‘nikmasini egallashi uchun poydevor bo‘ladigan ta’lim natijalariga ega bo‘lish ustuvorlik kasb etadi.

Natijaga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘quvchilarning moddiy qiymat yaratishi va daromad qilishga qaratilgan kasbiy ta’limda kompetensiyalarni ta’lim natijalari asosida shakllantirish mexanizmini quyidagi ko‘rinishda taklif etamiz (1-rasm).




**Kasbiy ta’limning didaktik mexanizmi ikki tomonning sinergik majmuasida ifodalanadi. Birinchi tomon bu o‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalari, ikkinchi tomon kasbiy ta’lim tashkiloti o‘quvchilari. O‘qituvchi va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining o‘quv-metodik ta’minotini tashkil qiluvchilarga ta’lim dasturi, o‘quv reja, modul va amaliyot dasturi kiradi.**

**Ta’lim dasturi** — professional ta’lim muassasasi bitiruvchisiga muayyan egallagan kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha kasbiy faoliyatni malakali bajarish imkonini berishga qaratilgan

professional ta'lim tayyorgarligining asosiy mazmunini aniqlovchi davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi, o'quv fanlari (modullar) dasturlari, malaka amaliyoti dasturlaridan iborat hujjatlar to'plamidir.

**O'quv reja** – professional ta'limning muayyan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari (modullari) va kurslari hamda malaka amaliyotlari tarkibi, ularni o'rganish izchilligi, soha va tarmoqlarda ish turlarining mavsumiyligini hamda soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjatdir.

**O'quv dasturi** — professional ta'lim o'quv rejasiga kiritilgan fanlar va amaliyotlarning mazmuni, o'qitishning maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat;

**Amaliyot dasturlari** – o'quvchilar tomonidan ta'lim jarayonida olingan nazariy bilimlarni mustahkamlashga va ushbu bilimlarni kasbiy faoliyatning ko'nikma va mahoratlariga aylantirishga, o'quvchilarni aniq ish joyidagi amaliy ishga tayyorlash hamda bitiruv ishining amaliy qismi materiallarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan o'quv-me'yoriy hujjatlardir.

Didaktik mexanizmning ikkinchi tomoni bo'lgan o'quvchilar va ularda ta'lim texnologik jarayonining hosilasi bo'lgan ta'lim natijalari va ularga erishishganligini ifodalovchi kompetentlik mexanizmning yaxlitligini ifodalaydi.

Didaktik mexanizmning ikki tomonini bog'lovchi pedagogik shart-sharoitlar, o'quvchilarning kognitiv rivojlanish didaktik bosqichlari, ta'limning mazmuni, shakli, vositalari, usul va imitatsion motivatsion muhitni ifodalagan motivatsiya, brifing, biznes jarayon, debrifing va baholashdan iborat o'quvchilarning funksionalligini rivojlantiruvchi texnologik jarayon didaktik mexanizmning sinergik effektligini ta'minlaydi.

Professional ta'lim tizimida ta'lim natijalari formatida rejalashtirilgan bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar, ya'ni ta'lim natijalari kasbiy hamda shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu esa, bitiruvchilarning ta'lim dasturi tugagandan so'ng qanaqa kompetentlikka ya'ni nimalarga qodir bo'lishlari kerakligini aniqlaydi.

Ta'lim natijalarini ifodalash ish beruvchi tomonidan kutiladigan natija sifatida har qanday ishlab chiqarish, biznes jarayon maqsadi bo'lgan muayyan turdagi mahsulotni yetishtirish yoki ishlab chiqarish yoxud ma'lum bir sohada xizmatlar ko'rsatishdan iborat. Bunda ishlab chiqarish yoki biznes subyektining bozorda raqobat qilishning asosiy sharti mahsulot yoki xizmat turining sifatini ta'minlashdan iboratdir.

Boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturi doirasida tahsil oluvchi o'quvchilarning kompetentligi "moddiy qiymat yaratish, daromad qilishga qodir" ko'rinishida ifodalanishi kambag'allik qopqoniga tushmasligiga kafolat belgisi sifatida qabul qilinishi, ta'lim natijalarining kasbiy ta'limning asosiy iste'molchisi bo'lgan jamiyat, iqtisodiyot hamda ish beruvchilarning kutilmalari va eng asosiysi iqtisodiy kompetentlikning "sifatli mahsulot yetishtirishga qodir", "sifatli mahsulot ishlab chiqarishga qodir", "sifatli xizmat ko'rsatishga qodir" formatida ifodalanishi, pirovard natijada ta'lim natijalarining yuqoridagi formatlarda ifodalanishi jamiyat va iqtisodiyot talablariga mutanosibligiga, professional ta'lim muassasasi o'quvchisining mehnat bozorida munosib raqobat qilishga tayyorligiga kafolat bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlarida belgilangan ta'lim natijalariga erishishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlashda imitatsion motivatsion muhitni yaratish muhimdir. Bunda tahsil oluvchi o'quvchi imitatsion muhitda simulyatsion texnologiyalar yordamida daromad qilish ko'nikmalarini moddiy qiymatga ega bo'lgan muayyan turdagi mahsulotlar yetishtirish yoki ishlab chiqarish yoxud ma'lum turdagi xizmatlar ko'rsatish orqali shakllantiradi.

Kasbiy ta'lim jarayonining didaktik bosqichlarini yaxlit pedagogik mexanizm sifatida shakllantirish bitiruvchining ichki va tashqi mehnat bozorida raqobat qila olishi, jamoada va jamiyatda munosib o'rnini topishi hamda mehnat funksiyalariga tayyor bo'lishi va moddiy qiymat yaratishi, jamiyatning uyushgan hamda uyushmagan


ISSN 2181-3841

bo'g'inlarida ijtimoiylasha olishi, daromad qilish ko'nikmasini egallashi uchun poydevor bo'ladigan ta'lim natijalariga ega bo'lishi ustuvor maqsad sifatida belgilandi.

Imitatsion motivatsion muhit o'quvchilar motivatsiyasi va hissiyligini oshirish, yechimlarni mustaqil ijodiy ishlab chiqish bo'lib, o'quvchilarni o'quv materialini mustaqil, tashabbuskor va ijodiy o'zlashtirishga undaydigan maxsus vositalar yordamida o'quv jarayonini tashkil etish hamda shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan pedagogik harakatlar usullari mujassamlashgan muhitdir.

Imitatsion motivatsion muhit – faol ta'limning vaziyatli modellashtirish turi bo'lib, jarayonlarni haqiqatda bo'lgani kabi tasvirlaydigan, tajribalar o'tkaziladigan obyektning ishlashini loyihalash, tahlil qilish va baholashda obyektning mantiqiy va matematik tavsifini yetarlicha aniqlikda ifodalaydi.

Kasbiy ta'lim dasturlari doirasida o'quvchilarning kompetentligini belgilashning ikkinchi muhim jihati shundan iboratki, ijtimoiy hayotda turli manfaatlar, maqsadlar va sohalar bilan uzviy aloqadorligini ta'minlash, murakkabliklarni bartaraf etish, uyushgan va uyushmagan jamoa birliklarida ijtimoiylashuvga qodir bo'lgan shaxsning ijtimoiy sifatlarini tarbiyalash o'quvchilarning jamiyat talablariga mutanosib kompetentlik darajasini bildiradi.

Uyushgan va uyushmagan jamoa birliklarida ijtimoiylashuv – o'zining ichki va tashqi tendensiyalarini ijtimoiy hayotda o'z ijtimoiy kompetentligini namoyon qila olishi quyidagilardan iborat bo'ladi:

• ijtimoiy munosabatlarda faoliyatining maqsadi, mazmuni va mohiyatini ongli ravishda ifodalay olishi hamda o'zining va o'zgalarning manfaatlari balansini saqlay olish;

• uyushgan va uyushmagan jamoa birliklarida ijtimoiylashuvga qodir – ijtimoiy sifatlar, ya'ni ijtimoiy fe'l-atvorini tartibga solish, dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyati, g'oyaviy va ma'naviy sifatlarni namoyon qilish orqali kasbiy lavozim mavqeyiga erishish – jamiyatning ijtimoiy talablariga mutanosib bo'lish;

• uyushgan va uyushmagan jamoa birliklarida ijtimoiylashuvga qodir bo'lish – shaxs faoliyati motivining oliy darajasi – manfaatlarining maqsadlar uyg'unligiga erisha olish.

Xulosa shundan iboratki, kambag'allikni qisqartirish hamda yoshlar daromadlarini oshirish ustuvorlik kasb etgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida o'quvchilarning moddiy qiymat yaratish, daromad qilish ko'nikmalarini rivojlantirish natijaga yo'naltirilgan kasbiy ta'lim didaktik mexanizmi ta'lim muassasalarida o'qituvchi, ishlab chiqarish ustalari va o'quvchilarning didaktik hamkorligining innovatsion yechimi sifatida boshlang'ich kasbiy ta'lim dasturlari maqsadlari va dasturlarida rejalashtirilgan iqtisodiy hamda ijtimoiy kompetentlikni ifodalovchi ta'lim natijalariga erishishga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Елина Е.Г., Ковтун Е.Н., Родионова С.Е. Компетенции и результаты обучения: логика представленияв образовательных программах. // Ж.: Высшее образование в России, 2015. № 1. С.10-20.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результатов образования. // Интернет-журнал "Эйдос", 2009. С. 56-61.
3. Кононова В.Н. Современные методы как инструмент управления качеством образования. – М., 2016. 387 с.
4. Xolmuxamedov M.M. Professional ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning dolzarb masalalari. // J.: Kasb-hunar ta'limi. – Toshkent, 2021. № 1. B.2-6.
5. Xolmuxamedov M.M. "Natijaga yo'naltirilgan professional ta'lim mazmuni" // Monografiya. – "Complex Print", 2023. – 176 b.

# KASBIY TA’LIM TIZIMIDA RAHBAR KADRLARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATI VA KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

**Qo‘chqorov Diyorbek Ulug‘bekovich,**
Professional ta’limni rivojlantirish instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**: Ushbu maqola kasbiy ta’lim tizimida rahbar kadrlarning intellektual salohiyati va kompetensiyalarini takomillashtirishning nazariy va metodologik asoslarini tahlil qiladi. Maqolada rahbar kadrlarning murakkab masalalarni hal qilish qobiliyatlari, innovatsion qarorlar qabul qilish, zamonaviy ta’lim metodlarini joriy etish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalari o‘rganiladi. Shunga ko‘ra, ularning kasbiy kompetensiyasi va intellektual salohiyatini rivojlantirish, ta’lim samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Har xil metodik yondashuvlar, jumladan, innovatsion ta’lim modellari, masofaviy ta’lim modellari va muammoli yondashuvlar orqali rahbar kadrlarning professional ko‘nikmalari yaxshilanadi. Tadqiqotda aytib o‘tilgan usul va tavsiyalar professional ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy ta’lim, intellektual salohiyat, kasbiy kompetensiya, raqamli texnologiyalar, innovatsion modellar, rahbar kadrlar, metodologik asoslar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются теоретико-методологические основы совершенствования интеллектуального потенциала и профессиональных компетенций руководящих кадров в системе профессионального образования. В статье исследуются навыки управленческого персонала по решению сложных вопросов, принятию инновационных решений, внедрению современных методов обучения, эффективному использованию цифровых технологий. Соответственно, развитие их профессиональной компетентности и интеллектуального потенциала имеет важное значение для повышения эффективности обучения. Профессиональные навыки руководящего персонала улучшаются с помощью различных методических подходов, включая инновационные модели обучения, модели дистанционного обучения и проблемные подходы. Методы и рекомендации, упомянутые в исследовании, служат важной основой для совершенствования системы профессионального образования.

**Ключевые слова:** профессиональное образование, интеллектуальный потенциал, профессиональная компетентность, цифровые технологии, инновационные модели, руководящий персонал, методологические основы.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and methodological foundations for enhancing the intellectual potential and professional competence of managerial staff in the vocational education system. It examines the abilities of leaders to solve complex problems, make innovative decisions, implement modern educational methods, and effectively use digital technologies. Enhancing the intellectual potential and professional competence of these leaders is identified as essential for improving the effectiveness of education. Various methodological approaches, including innovative educational models, distance learning models, and problem-based approaches, are discussed as key to developing professional skills in managerial staff. The methods and recommendations highlighted in this study serve as an essential foundation for the improvement of the vocational education system.

**Key words:** Vocational education, intellectual potential, professional competence, digital technologies, innovative models, managerial staff, methodological foundations.

Kasbiy ta’lim tizimida rahbar kadrlarining intellektual salohiyati va kompetensiyalari tizim samaradorligi va barqaror rivojlanishini ta’minlashda asosiy ahamiyat kasb etadi. Professional ta’lim muassasalari rahbarlari uzluksiz rivojlanib boruvchi zamonaviy jamiyat va iqtisodiy talablar bilan uyg‘unlashgan holda, pedagogik faoliyatning sifatini oshirish, o‘quv jarayonini optimallashtirish va kadrlarni samarali boshqarish vazifalarini bajarishga mas’uldirlar. Bunda rahbar kadrlarning intellektual salohiyati, ya’ni ularning murakkab masalalarni hal qilish, innovatsion qarorlar qabul qilish, ta’lim mazmunini yangilash va zamonaviy metodlarni joriy qilishdagi qobiliyatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, ularning kasbiy kompetensiyalari – nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning uyg‘unligi, kreativlik, tezkor qaror qabul qilish va tizimli fikrlay olish qobiliyatlari ham professional ta’lim tizimining muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishida muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda innovatsion jarayonlar va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, iqtisodiyotda yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojning o‘sishi natijasida, professional ta’limdagi rahbar kadrlar uchun yangi imkoniyatlar va bir vaqtning o‘zida yangi chaqiriqlar yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda murakkab va tez o‘zgaruvchi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarda ta’lim tizimi rahbarlaridan yangi ko‘nikmalar va bilimlarni talab qiluvchi vazifalar qo‘yilmoqda. Zamonaviy professional ta’lim tizimida rahbar kadrlar faqat nazariy bilimlargagina ega bo‘lishi kerak emas, balki amaliy tajribaga asoslangan, yangicha yondashuvlarni tatbiq eta oladigan yuqori darajadagi kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi zarur. Raqamli ta’lim texnologiyalarining joriy qilinishi va ma’lumotlar oqimiga moslashish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, shu bilan birga rahbar kadrlardan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi.

Rahbar kadrlarning intellektual salohiyati va kasbiy kompetensiyasini oshirish, birinchi navbatda, ta’lim jarayonining sifatini yaxshilash va kadrlarning professional o‘sishini ta’minlashga xizmat qiladi. Texnologiyalar rivojlanishi sababli professional ta’lim tizimidagi rahbarlardan ko‘plab yangi vazifalarni bajarish va strategik masalalarga yondashishda innovatsion va ijodiy yechimlarni joriy qilish talab etilmoqda.

Shuningdek, ta’lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta’minlashda rahbar kadrlar intellektual salohiyatlari va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirib borishi zarurati yanada kuchaymoqda. Masalan, axborotlarni tahlil qilish, tizimli yondashuvni qo‘llash, murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish va ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash rahbar kadrlar uchun dolzarb ko‘nikmalardan hisoblanadi. Intellektual salohiyat – bu rahbarning axborotni qayta ishlash, qarorlar qabul qilish va ijodiy fikrlash kabi kognitiv qobiliyatlarini o‘z ichiga olgan muhim xususiyatdir. Intellektual salohiyatning professional ta’limdagi ahamiyati uning tizim samaradorligiga ta’siri orqali namoyon bo‘ladi. Bu salohiyat rahbarning murakkab masalalarni hal qilish, xodimlarni rag‘batlantirish va innovatsiyalarni joriy qilish qobiliyatini oshiradi.

**Rahbar kadrlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagi nazariy va amaliy tamoyillarga asoslanadi:**

- **Tizimli yondashuv –** rahbar kadrlarning bilimi va salohiyatini kompleks ravishda rivojlantirishni nazarda tutadi, ya’ni har bir bilim va ko‘nikma boshqa elementlar bilan uzviy bog‘langan holda shakllantirilishi lozim.
- **Innovatsion yondashuv –** rahbar kadrlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar va axborotni boshqarish usullari bilan tanishtirishni qamrab oladi.
- **Qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv –** kadrlar ongida ta’limning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini shakllantirish va yangilikka yo‘naltirishga qaratilgan.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim yo‘nalish – bu raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali intellektual salohiyatni oshirishdir. Raqamli texnologiyalar ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etib, rahbar kadrlarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga, axborotni tezda qayta ishlash va zamonaviy bilimlarni yangilashga xizmat qiladi. Bunday texnologiyalar orqali ma’lumotlarning tezkor o‘zgarishiga moslashish imkoniyati paydo bo‘ladi, bu esa rahbar kadrlarga strategik qarorlarni tez va samarali qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, rahbar kadrlarning samarali faoliyat olib borishiga asos bo‘luvchi muhim omillardan biri ularning kasbiy kompetensiyasi hisoblanadi. Kasbiy kompetensiya – rahbarning ma’lum bir sohada samarali faoliyat olib borish qobiliyati sifatida izohlanadi va bu qobiliyat zamonaviy boshqaruvda muhim ahamiyatga egadir. Kasbiy kompetensiyalarning asosiy tarkibiy qismlari – kreativlik, ijodiy fikrlash, axborotni boshqarish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi muhim xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu ko‘nikmalar rahbar kadrlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qilib, ta’lim jarayonidagi rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagi metodik modellar muhim o‘rin tutadi va rahbar kadrlarning faoliyat samaradorligini yanada kuchaytirishga yordam beradi:**

- ***Innovatsion ta’lim modellari*** *– bu modellar raqamli ta‘lim texnologiyalarini joriy etish orqali kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bunda virtual simulyatsiya, sun‘iy intellekt va bulutli texnologiyalardan foydalanish, ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Innovatsion modellar kadrlarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotda samarali qo‘llash imkoniyatini ham yaratadi.*
- ***Masofaviy ta’lim modellari*** *– ushbu modellar kadrlarga joylashuvdan qat‘i nazar, bilim va malaka oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Masofaviy ta‘lim modellari zamonaviy texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi va bu kadrlarga vaqtni tejash, malaka oshirishni uzluksiz davom ettirish imkonini beradi. Masofaviy ta‘lim, shuningdek, resurslarni optimallashtirish va global ta‘lim imkoniyatlaridan foydalanishni ta‘minlaydi.*
- ***Ta’lim jarayonida muammoli yondashuv*** *– bunda muammolar asosida o‘qitish metodlari ishlatiladi. Muammoli yondashuv rahbar kadrlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshiradi, ularni murakkab masalalarni mustaqil ravishda yechishga yo‘naltiradi. Bu model rahbar kadrlarda mustaqil fikrlash va muammolarni tizimli tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi.*

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar va yangi metodik modellar yordamida intellektual salohiyat va kasbiy kompetensiyalarni oshirish imkoniyati rahbar kadrlar uchun yanada kengayib borayotganini ko‘rish mumkin. Bu modellar zamonaviy ta’limning sifatini yaxshilashga, rahbar kadrlarning o‘z ishiga bo‘lgan munosabatini kuchaytirishga va ularning samarali boshqaruv qobiliyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Z.A.Rafiqova o‘z tadqiqotida ta’kidlaydiki, “Davlat xizmatida rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari ularning professional faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.” Rafiqovaning fikriga ko‘ra, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatining yuksaltirilishi ularning kasbiy faoliyatini yanada samarali qilishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, bu metodologik yondashuv kadrlar tayyorgarligi sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. A.E.Kenjaboyev va D.A.Kenjaboyeva o‘z maqolalarida “Pedagog rahbarning kasbiy kompetentligi va


ISSN 2181-3841

pedagogik mahorati ta'lim-tarbiya jarayonini namunali tashkil etishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi", Degan fikrni ilgari surishgan. Ularning ta'kidlashicha, ta'lim muassasalarida rahbar kadrlarning pedagogik mahorati yuqori bo'lsa, bu ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadi. Ular rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligi orqali ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish imkoniyati yaratilishini urg'ulaydilar. N.Sh.Yunusova, N.J.Nazarova va N.S.Jumaniyazova o'z maqolalarida qayd etishlaricha, "Pedagoglarda kasbiy kompetensiyani takomillashtirish oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi." Bu fikrdan kelib chiqib, Yunusova, Nazarova va Jumaniyazova ta'kidlaganidek, kasbiy kompetensiyani oshirish ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi sababli, rahbar kadrlar ham doimiy ravishda o'zlarining salohiyatini oshirib borishlari zarur. Bu jarayon oliy ta'lim tizimida ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Intellektual salohiyat va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning samaradorligiga turli ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi. Tashkiliy-pedagogik asoslar o'qitish jarayonining sifatini yaxshilashga qaratilgan va o'quvchilarga ixtisoslashtirilgan yechimlarni yaratishga ko'maklashadi.

Tashqi omillar: makro va mikro muhitdagi o'zgarishlar, jamiyatdagi texnologiyalarning rivojlanishi, ta'lim jarayonida innovatsiyalarning joriy etilishi.

Ichki omillar: kadrlarning shaxsiy xususiyatlari, ularning bilimi, ko'nikmalari, shaxsiy va professional rivojlanishga bo'lgan qiziqishi va ularning hayot tarzi.

Akmeologik yondashuvga ko'ra, shaxsning intellektual salohiyatini oshirish jarayonida uning shaxsiy va ijtimoiy jihatlariga e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv rahbar kadrlarda o'z salohiyatini anglash va uni yanada rivojlantirish uchun turli usullarni joriy qilish imkoniyatini yaratadi. Boshqaruvdagi akmeologik yondashuv professional yetuklikka erishish va rahbarning ijodiy rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

**Intellektual salohiyat va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda qo'llaniladigan metodika quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:**

- ***Raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish*** *– axborotni qayta ishlash, undan samarali foydalanish va bilimlarni modernizatsiyalash uchun yangi imkoniyatlarni beradi.*
- ***O'quv faoliyati modeli*** *– rahbar kadrlarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Bu model rahbarlar malakasini oshirishda yangi uslublar va vositalardan foydalanish imkoniyatini yaratadi.*
- ***Refleksiv yondashuv*** *– rahbar kadrlar o'z bilim va malakasidagi kamchiliklarni aniqlab, ularni yaxshilashga qaratilgan o'zgarishlarni kiritish imkoniyatini beradi.*

Rahbar kadrlarning kasbiy rivojlanishidagi yutuqlar ularning innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ko'plab rahbar kadrlar zamonaviy raqamli vositalar orqali ta'lim jarayonini yuqori samaradorlik bilan tashkil etmoqda. Lekin shunga qaramay, bir qator muammolar mavjud:

- malaka oshirish imkoniyatlarining cheklanganligi – joylashuv va resurslar cheklanganligi sababli, ba'zi kadrlar malakalarini oshirishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.
- ta'lim texnologiyalari bilan tanishmaslik – ba'zi rahbar kadrlar raqamli texnologiyalardan foydalanish malaka va ko'nikmalarga yetarlicha ega emaslar.
- innovatsiyalarga bo'lgan motivatsiyaning pastligi – ayrim kadrlar o'zgarishlarga tayyor emas yoki yangiliklarni qo'llashda sustqadamlik qilishadi.

Ushbu tadqiqotdan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Professional ta'lim tizimida rahbar kadrlarning intellektual salohiyati va kasbiy kompetensiyasini oshirish tizimli yondashuv talab qiladi.



• Raqamli texnologiyalar va innovatsion ta’lim modellarini joriy etish rahbar kadrlarning rivojlanishiga turtki beradi.

• Rahbar kadrlarning malakasini oshirish jarayonida tashkil etilgan tashkiliy va pedagogik sharoitlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Tavsiyalar:

1. Rahbar kadrlar uchun raqamli texnologiyalar bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

2. Innovatsion yondashuvlarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish uchun pedagogik mutaxassislarni tayyorlash.

3. Rahbar kadrlarning motivatsiyasini oshirishga qaratilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish, ularni yangiliklarga tayyorlash.

Professional ta’lim tizimida rahbar kadrlarning intellektual salohiyati va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim tizimining uzviy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bunda raqamli texnologiyalar, akmeologik yondashuvlar va innovatsion metodik modellardan foydalanish rahbar kadrlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotdan kelib chiqadigan tavsiyalar va amaliyotlar ushbu sohada kelajakdagi rivojlanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, professional ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**


1. Z.A.Rafiqova, (2023). Davlat xizmatida rahbar kadrlarni boshqaruv salohiyatini yuksaltirishning nazariy-metodologik asoslari. Современное образование (Uzbekistan), 9-15. (cyberleninka.ru)
2. A.E.Kenjaboyev, D.A.Kenjaboyeva, (2021). Pedagog rahbarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati. Современное образование (Uzbekistan), 9-15. (cyberleninka.ru)
3. N.Sh.Yunusova, N.J.Nazarova, N.S.Jumaniyazova, (2020). Pedagoglarda kasbiy kompetensiyani takomillashtirish oliy ta’lim tizimi misolida. Современное образование (Uzbekistan), 9-15.
4. D.B.Axmadjonov, (2021). Bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish shakl va usullari. Academic Research in Educational Sciences, 2(4), 815-825. ares.uz
5. N.Sh.Yunusova, N.J.Nazarova, N.S.Jumaniyazova, (2022). Pedagoglarda kasbiy kompetensiyani takomillashtirish (oliy ta’lim tizimi misolida). Science and Education, 3(6), 815-825. cyberleninka.ru
6. I.A.Akbarova, (2021). Integrativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Экономика и социум, 2(81), 1-4. iupr.ru
7. A.A.Mirzayev, (2020). O‘qituvchilar kasbiy kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirishda pedagogik tashxislash xususiyatlari. Science and Education, 1(1), 1-4. cyberleninka.ru



ISSN 2181-3841

# BO‘LAJAK MUHANDISLARDA LOYIHA KONSTRUKTORLIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA “MEXANIKA” (MASHINA DETALLARI) FANINING AHAMIYATI

**Ruziyev Islambay Samandarovich,**
Urganch davlat universiteti “Transport tizimlari” kafedrasi professori

**Annotatsiya:** Maqolada “Mexanika (mashina qismlari)” fanining transport sohasida bo‘lajak muhandis kadrlarni tayyorlashda loyiha-konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati keltirilgan. Ushbu fanni to‘liq o‘zlashtirish talabalarga transport texnologiyalari va tizimlarini loyihalash, optimallashtirish va texnik takomillashtirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi. Ushbu fanni chuqurroq o‘qitish maqsadida o‘quv dasturiga kiritish uchun kichik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** loyiha-konstruktorlik kompetentliligi, mashina, detall, texnik loyiha, ko‘nikma, kadr, muhandis, loyihalash, konstruksiyalash.

**Аннотация:** В статье представлено значение дисциплины «механика (детали машин)» в формировании проектно-конструкторских компетенций при подготовке будущих инженерных кадров в области транспорта. Полное овладение данной дисциплиной позволяет студентам приобрести знания и навыки, необходимые для проектирования, оптимизации и технического совершенствования транспортных технологий и систем. Даны небольшие рекомендации по включению этого предмета в учебную программу для более глубокого обучения.

**Ключевые слова:** проектно-конструкторская компетентность, машина, деталь, технический проект, навыки, персонал, инженер, проектирование, конструирование.

**Annotation:** The article presents the importance of the discipline “mechanics (machine parts)” in the formation of design competencies in the training of future engineering personnel in the field of transport. The full mastery of this discipline allows students to acquire the necessary knowledge and skills for the design, optimization and technical improvement of transport technologies and systems. Small recommendations have been made to include this subject in the curriculum for the purpose of deeper teaching.

**Key words:** design-design competency, machine, detail, technical project, skill, frame, engineer, design, construction.

**Kirish**. XXI asr insoniyat oldiga mustahkam, yengil, arzon, ko‘p funksiyali, avtomatlashgan va raqobatbardosh zamonaviy texnikalarni yaratish vazifasini qo‘ymoqda. Buning uchun birinchi navbatda ilmiy asoslangan hamda puxta tekshirilgan texnik loyihalarni ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Albatta, bu yetuk kadrlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Zamonaviy va yuksak bilimlarga ega bo‘lgan, axborot texnologiyalarini mukammal tushungan, o‘z sohasini chuqur o‘rgangan, har tomonlama yetuk kadrlar tayyorlash zamon talabi bo‘lib qolmoqda[1].

Zamonaviy mehnat bozori bugungi kunda ta’lim sifatiga yuqori talablar qo‘ymoqda. Bo‘lajak mutaxassislarning ta’lim olishi, malakasi va kasbiy tayyorgarligi, o‘z navbatida, oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari o‘rtasida raqobatning kuchayishiga olib keladi. Agar mutaxassisning avvalgi malakasi faqat ish joyiga muvofiqligini va muayyan faoliyatda zarur bo‘lgan tor ma’lumotlarga ega bo‘lishini nazarda tutgan, talabalarni o‘qitish esa standart bilim va ko‘nikmalarga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, “kompetensiya”, avvalo, nafaqat umumiy turdagi, balki muayyan keng soha-

da, o‘z faoliyatining sifati va samaradorligini oshirib, o‘z ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishni nazarda tutadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi vaqtda transport sohasiga kasbiy faoliyat talablarini o‘zlashtirgan, avtomobil transportidan foydalanishni tashkil etish, ularga texnik servis ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha ratsional texnologiya va texnologik jihozlarni tanlash, ishlab chiqarishni tashkil etish, loyiha konstruktorlik ishlarining samarali usullarini tanlash va qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lgan mutaxassislarga talab kuchaymoqda[2].

Keng falsafiy ma’noda “loyihalash” atamasi mumkin bo‘lgan obyektlarning ideal ko‘rinishlarini yaratishga qaratilgan samarali loyihalash mazmunining har qanday intellektual faoliyatini anglatadi[3].

Nisbatan tor terminologik ma’noda loyihalash-bu ishlab chiqishning axborot shaklida berilgan obyektning istiqbolli-subyekt ko‘rinishi yaratish jarayonidir.

Shunday qilib, J.Ditrix “loyihalash” va “konstruksiyalash” tushunchalarini aniqlab, ularni dialektik darajada, ehtiyojga munosabat va ushbu faoliyat natijalariga munosabatdan kelib chiqqan holda ajratadi.[4].

Texnik ijodkorlik jarayoni tegishli tartib -qoidalar bilan quyidagi bosqichlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi:

a) g‘oyani ilgari surish va asoslash uchun manba bo‘lib xizmat qiladigan muammoni shakllantirish manbayi sifatida qarama-qarshilikni anglash;

b) vazifani texnik ishlab chiqish, uni amalga oshirish usullarini tanlash (loyihalash va konstruksiyalash);

d) ekspluatatsiyadagi obyektlarni sinovdan o‘tkazish, ijodiy yechim natijasining samaradorligini baholash.

Ko‘pchilik olimlarning fikriga ko‘ra, loyihalash jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) texnik muammoni hal qilishning potensial mumkin bo‘lgan variantlari idealini izlash;

b) texnik shartlarni asoslash;

d) texnik taklif;

e) dastlabki (eskiz) loyihalash;

f) texnik loyihalash;

j) batafsil loyihalash[5].

L.V.Moskvitina ta’kidlashicha, loyihalash nazariy (qog‘ozda yoki kompyuterda) bo‘lishi mumkin va konstruksiyalash loyihalash faoliyatining moddiy (haqiqiy) natijasini o‘z ichiga oladi. Konstruksiyalash bu rejalashtirilgan obyektni batafsil bajarish sxemasini va mashinaning barcha qismlari hamda alohida qismlarining ishchi chizmalarini ishlab chiqishdir [6].

Loyihalash bu “belgilangan funksional, texnik, iqtisodiy, ekologik va iste’molchi sifatlarga ega bo‘lgan real obyektlarni yaratishga qaratilgan intellektual va ijtimoiy-madaniy jihatdan universal va mustaqil faoliyat turi”.

Hozirgi vaqtda muhandislik loyihasi ilmiy asoslangan loyihalash va hisoblash asosida olingan, takroriy texnologik foydalanish uchun mo‘ljallangan tasvirni anglatadi.

Shunday qilib, muhandislik faoliyati ilmiy bilimlarni muntazam ravishda qo‘llashga asoslangan usullar majmuasi sifatida ta’riflanadi. Metodologiya asosida ixtiro, loyihalash, konstruksiyalash, muhandislik bilimlarini ishlab chiqarishga tatbiq etishni o‘z ichiga olgan konstruktiv-ijodiy sikldan iboratdir[7].

Muhandislar tayyorlashda har bir fanning o‘z ahamiyati bor. “Mexanika” (Mashina detallari) fani umumkasbiy fan bo‘lib, talabalarga zamonaviy mashina va mexanizmlar konstruksiyalarining umumiy vazifali ko‘p tarqalgan uzatmalari, birikmalari va boshqa detallarini hisoblash va loyihalashni o‘rgatishga mo‘ljallangan. Bo‘lajak muhandislarda dastlabki loyihalash amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda mexanika (mashina detalari) fanining ahamiyati juda kattadir.

“Mexanika” (Mashina detallari) fanida o‘rganiladigan detal va qismlar zamonaviy mexanizm va mashinalar asosini tashkil qiladi. Muhandislarning bu fandan olgan bilim, malaka va ko‘nikmalari turli tarmoqlar bo‘yicha ishlab chiqarishda foydalaniladigan mexanizm va mashinalarning konstruktiv, texnologik va ekspulatatsion hisoblarini bajarishda dastlabki fundamental ma’lumot sifatida ahamiyatlidir.

**“Mexanika” (Mashina detallari) o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida muhandislarga quyidagi talablar qo‘yiladi:**

- **Mexanika (Mashina detallari)da umumiy vazifali detal va uzellarning tuzilishi, ish tarzi, yemirilish turlari va asosiy mezonlarini bilish;**
- **Mexanika (Mashina detallari)ni asosiy ishchanlik qobiliyati mezonlari bo‘yicha (mustahkamlik, birlik, ishqalanishga chidamlilik, issiqbardoshlik va shu kabilar) hisoblash va loyihalashni o‘rganish va amalda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma hosil qilish;**
- **Mexanika (Mashina detallari)ning zamonaviy fan va texnika yutuqlari asosida qo‘llaniladigan materiallari, konstruktsiyalari va hisoblash usullari (zamonaviy axborot texnologiyalari asosida) bilan tanishish;**
- **uzatmalar, vallar, o‘qlar, podshipniklar, muftalar, birikmalar va prujinalarning materiallari, konstruktiv shakli va ularning mustahkamligiga ta’sir etuvchi omillar va ishchanlik qobiliyatining asosiy mezoni bo‘yicha hisoblash va loyihalashni hamda konstruksiyalarni takomillashtiruvchi yechimlarni bilish;**
- **yuritmalarni tuzish, uzatmalarni kinematik hisoblash, uzatma, val va o‘qlar, podshipniklar va birikmalarni ishchanlik qobiliyati bo‘yicha loyihalovchi va tekshiruvchi hisoblarni bajarish bo‘yicha zamonaviy usulda, shu jumladan, kompyuter texnologiyasini qo‘llab hisoblash va loyihalash ishlarini bajarish malakasiga ega bo‘lish[8].**

**NATIJALAR**

Kasbiy faoliyatning asosiy turi – muhandislik-konstruktorlik faoliyatini samarali amalga oshiradigan izlanuvchan va raqobatbardosh bo‘lajak muhandisni tayyorlash bo‘lajak muhandislarning loyihalash kompetentligini rivojlantirish jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq.

Bo‘lajak muhandislarda loyiha konstruktorlik kompetentligi shakllantirish “Transport vositalaring muhandisligi” ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligi faoliyat turlari tavsifining loyihalash funksiyasida ko‘rsatilgan (1.1-jadval).

| Kasbiy faoliyat | Loyihalash funksiyalari |
|---|---|
| ***Ishlab chiqarish*** | *Ishchi qismlari va detallarini loyihalashtirish va konstruksiyasini ishlash; ularni yig‘ish, sozlash, rostlash ishlarini rejalashtirish va bajarishni tashkillashtirishni hamda chet el dasturlari bilan foydalanib kompyuterda loyihalashni bilish;* |
| ***Tashkiliy boshqaruv*** | *Ishlab chiqarish hayot faoliyati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo‘lish;*<br>*Ishlab shiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish* |
| ***Loyiha konstruktorlik*** | *Avtomobil transporti sohasida tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, axborot va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq qila olish;* |
| ***Ilmiy tadqiqot*** | *Avtomobil transporti ekspulatatsiyasini tadqiq qilishda namunaviy metodikalar va texnik vositalarni qo‘llay olish;* |
| ***Ekspulatatsiya va servis xizmatini ko‘rsatish*** | *Avtotransport vositalari va ularning agregat, mexanizm, tizimlari hamda texnologik jihozlariga texnik servis ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha zamonaviy texnologik jarayonlarni ishlab shiqish va qo‘llash;* |

## MUHOKAMA

Talabalar Mexanika (Mashina detallari) fanini o'zlashtirishi uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va materiallaridan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan: aqliy hujum va boshqalar hamda o'qitishning texnik jihozlari-o'quv kinofilmlari, plakatlar, maketlar va shu kabilardan foydalaniladi.

Mexanika (Mashina detallari) fani matematika-tabiiy va umumkasbiy fanlarni ixtisoslik fanlari bilan bog'lovchi vazifasini ham o'tab beradi. Ixtisoslik fanlarini o'zlashtirish uchun talabalarda konstruksiyalarni hisoblash va loyihalashga oid dastlabki bilim va tushunchalar shakllanadi [9].

Bo'lajak muhandislar fanni yaxshi o'zlashtirish asosida o'z mutaxassisliklariga oid fanlardan bilim olish uchun nazariy va amaliy tayyor bo'ladilar, ya'ni ixtisoslik fanlarini o'zlashtirish uchun zamin yaratiladi. Chunki bu fanda barcha mexanizm va mashinalar uchun umumiy bo'lgan mashina detallarini hisoblash, tanlash va loyihalash ishlari bajariladi [10].

## XULOSA

Mexanika (Mashina detallari) fanidagi detal, uzel va mexanizmlarning tasvir va chizmalarini talabalarga yetkazishda kompyuter texnikalaridan foydalanish, darslarni taqdimotlar bilan olib borish juda muhim hisoblanadi. Bu vazifalarni hozirgi davrda to'liq amalga oshirish imkoniyatlari mavjud.

Laboratoriya mashg'ulotlari esa zamonaviy qurilma va jihozlarda olib borilishi nazarda tutilgan. Lekin laboratoriya mashg'ulotlariga birikmalar bo'limi asosida mashg'ulotlarni kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunda talabalar amaliy darslarda hisoblab o'rganilgan birikmalarining (parchin, payvand, rezbali) qo'yilgan kuch ta'siriga bardoshliligi hamda kuch oshirilganda birikmaning turg'unligini kuzatish va aniqlash tajriba ishlarini bajarib ko'rishlari nazarda tutilsa yanada samarali bo'ladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, bo'lajak muhandislarda loyiha-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish uchun fanning dasturini yaratish va o'qitishni tashkil qilishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi: fan dasturining laboratoriya qismida birikmalar uchun ko'proq mavzular ajratish; fanga ajratilgan o'quv soatlari hajmini sezilarli oshirish; ma'ruzalarni olib borishda va kurs loyihasini bajarishda axborot-texnik vositalarni qo'llash samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Вызулина А.Е., Михайлова Т.Л. Педагогика проектирования – основа подготовки инженера -конструктора. Международный студенческий научный вестник № 3, 2018. с.952-956
2. Чучалин А. Качества инженерного образования: мировые тенденции в терминах компетенции / А. Чучалин, О. Боев, А. Криушова /У Высшее образование в России 2006.- №8.-С . 13-16.;
3. В.М.Приходько, В.М. Жуковский Дидактические аспекты преподавания инженерных дисциплин; науч. –М.: МАДИ (ГТУ); Харьков: УИПА, 2006. – 150 с.
4. Дитрих Я. Проектирование и конструирование: Системный подход; пер. с польск. Л.В. Левицкий, Ю.А. Чванова. – М.: Мир, 1981. – 456 с.
5. Митчем К. Что такое философия техники? / пер.с англ. под ред. В.Г. Горохова. – М.: Аспект Пресс, 1995. –149 с.
6. Mexanika (Mashina detallari) fanining o'quv dasturi. -Urganch, UrDU 2024 yil, 16 b.
7. Mamasov Sh.A. Mexanika (Mashina detallari) fanidan ta'lim texnologiyasi. – Samarqand, SamQXI, 2010-yil, 147 b.
8. Shoobidov Sh.A. Mexanika" (Mashina detallari). Texnika oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent, "O'zbekiston ensiklopediyasi", 2014-yil, 444 b.



ISSN 2181-3841

# INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MA’NAVIY-MA’RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA ILMIY-METODOLOGIK MUAMMOLAR TAHLILLARI

**Ergashev Bobirjon Bahodirovich,**
Professional ta’limni rivojlantirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, dotsent
**Xolikov Eldor Muxamadaliyevich,**
Professional ta’limni rivojlantirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti bosh mutaxassisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlashda ilmiy-metodologik muammolar tahlili haqida so‘z yuritilgan.
**Kalit so‘zlar:** integrativ yondashuv, bo‘lajak o‘qituvchilar, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat, ta’lim jarayoni, pedagogik faoliyat, integratsiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается анализ научно-методических проблем подготовки будущих педагогов к духовно-просветительской деятельности на основе интегративного подхода.
**Ключевые слова:** интегративный подход, будущие педагоги, духовно-просветительская деятельность, образовательный процесс, педагогическая деятельность, интеграция.

**Annotation:** This article talks about the analysis of scientific methodological problems in the preparation of future teachers for spiritual educational activities on the basis of an integrative approach.
**Key words:** integrative approach, future teachers, spiritual educational activity, educational process, pedagogical activity, integration.

Dunyo miqyosida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablardan biri XXI asr pedagogikasini innovatsion texnologiyalar hamda raqamli ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Chuqur kasbiy bilim, undan unumli foydalanish ko‘nikmalari, shaxsiy tashabbuskorlik, ijodkorlik mustaqillik har doim pedagogik faoliyatda alohida ahamiyat kasb etsa-da, zamonaviy pedagog uzluksiz ta’lim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo‘lishi shart.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Bugungi kunda ilm-fan sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida innovatsion, ijodiy, akmeologik, andragogik va tizimli yondashuvlar bilan bir qatorda integrativ yondashuvlardan ko‘proq foydalanilmoqda [3,4].

Bu yo‘nalishning ijobiy tomonlari shundan iboratki, muayyan bir tizimni tadqiqot

g‘oyalari bilan integratsiyalashtiriladi. Aslida integratsiyali ta’limni ichki mantiqiy bog‘liqlik va chuqurroq metodologik aloqalarga asoslanib, amalga oshirish zarur. Chunki ta’limga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarda, ta’lim tizimida chegaradosh fanlarning tabiiy moslashuvigina emas, balki kichik kontinental (bir guruhga kiruvchi fanlarning boshqa guruh fanlari bilan) moslashuvi ham o‘zlashtirilishiga zaruriyat tug‘ilmoqda [2].

Ta’lim samaradorligiga erishishda ta’lim tizimida integrativ yondashuvlar masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Integrativ yondashuvlar pedagogik jarayonga integratsiyalashgan holda tadqiqotchilar rivojlanish jarayonining ilgari bir-biridan farq qiladigan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq jihatlaridan birini tushunadilar. Jumlaga yanada aniqlik kiritadigan bo‘lsak, ta’limda integratsiya deganda biz yangi faol pedagogik jamoada ijodiy o‘sishni, ta’lim oluvchilarga foydali hamda ularning ongiga singdirishning qulay usullarini qo‘llash mahoratini tushunamiz [2-4]. Ta’lim tizimiga integratsiyani kiritish ta’lim muassasasi va jamoatchilik o‘rtasida turgan ta’lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo‘lishi mumkin.

O‘qitish jarayonida integratsiyani qo‘llash nazariyasi ta’lim muassasalarida sifatga erishish uchun alohida ahamiyat kasb etadi [1].

Integrativ yondashuvlar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi tamoyillarga e’tibor qaratiladi ya’ni ta’lim jarayonini yanada insonparvarlashtirish; ta’lim, ma’naviy va ma’rifiy jarayonlarga doir ilmlarni tizimli integratsiyalash; bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsi shakllanishini fanga oid bilimlarni anglash vositasida amalga oshirish; bo‘lajak o‘qituvchilarda fikrlash doirasida fanga oid bilimlar ta’sirining ustuvorligi kabilarni keltirishimiz mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilarni zamon talablariga javob beradigan, mehnat bozorida raqobatlasha oladigan, o‘z sohasi bo‘yicha yetuk kadr bo‘lib, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatlarga tayyor bo‘lishida integrativ yondashuvlar asosi fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog‘liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog‘lash bosqichi bo‘lib, o‘zini yuqori ko‘rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, integratsiya jarayoni asoslari uzoq o‘tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan.

Genetik jihatdan integratsiya - uzviylik, fanlararo aloqadorlik, o‘zaro aloqadorlik va




*1-rasm. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlash tamoyillari.*


ISSN 2181-3841



nihoyat, o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o‘quv fanlari mazmunini eng kamida ta’lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir.

Chunki o‘qituvchilarni ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga tayyorlashda fanlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o‘rganilayotgan o‘quv fanlari doirasida ma’lum didaktik birliklar orasida o‘rnatilib, ularni o‘rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko‘zda tutadi, bundan farqli o‘laroq, integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o‘quv fani yoki integratsiyalab o‘rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi.

Integratsion yondashuv asosida kadrlar tayyorlash o‘rganilayotgan obyektning barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib tabaqalashtirib, mohiyati va mazmunini anglab yetish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo‘lgan tabaqalashtirish differensiyaga tayangan holda rivojlanib boradi. Integratsiyalash yo‘li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo‘ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo‘lgan elementlardan sintezlash yo‘li bilan hosil qilinadi. Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy bir-birini taqozo etuvchi va bir-biriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o‘quv fanlarini integratsiyalash uchun qo‘llanilib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishni ko‘zda tutadi [2, 3, 4].

Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash lozimki, mamlakat ravnaqi, uning ertangi porloq kelajagini yaratadigan yoshlar qalbiga milliy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixi va ma’naviy merosi an’analarini chiqur singdirib ularni vatanparvarlik, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash har bir o‘qituvchi, har bir ota-ona qolaversa, har bir fuqaroning burchidir. Buning uchun imkoniyatlar yetarli, faqat har birimiz bu mas’uliyatni chuqur his etib, kuch – g‘ayratimizni safarbar etishimiz lozim. Bunday e’tibor, bo‘lajak o‘qituvchilar qalbida insoniylik urug‘larining unishiga, katta hayot yo‘lida barkamol inson bo‘lib yetishishlariga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Sh.To‘rayev, Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va uni tashkil qilish metodikasi (Oliy ta’lim muassasalari bakalavrlari uchun o‘quv qo‘llanma) –T.: Paradigma-2017. 158 b.
2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. –T.: Voris-nashriyot, –2013. –B. 10-35. 21.
3. X.A.Yo‘lbarsova, Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi: ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. –Arzamas, 2020.
4. M.M.Mirqosimova., Masofaviy ta’lim sharoitida o‘quv fanlarini integratsiyalash tamoyillari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2020-yil №1). 69-80-b.

# O‘QUVCHILARNING MUTAXASSISLIGI BO‘YICHA KO‘NIKMA VA MALAKALARINI MUSTAHKAMLASHDA DUAL TA’LIMNING AHAMIYATI

**Ibodov Zafar Muhiddinovich,**
Navoiy pedagogika texnikumi bo‘lim boshlig‘i

**Annotatsiya:** Dual ta’lim jarayonida o‘quvchi olgan nazariy bilimlarini bir vaqtning o‘zida korxona yoki tashkilotda amalda qo‘llab, mutaxassislik bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini mustahkamlaydi. Bunda o‘quvchilarda haqiqiy, ma’lum bir ishlab chiqarish jarayonini tushunishga qaratilgan nazariy bilim va tushunchalarning tarqalish qobiliyatini rivojlantiradi. Maqolada muallif tomonidan o‘quvchilarning mutaxassisligi bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashda dual ta’limning ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so‘zlar:** dual ta’lim, malaka va ko‘nikmalar, kasb-hunar ta’limi, duallik, pedagogika, dual o‘qitish tizimi.

**Аннотация:** В процессе двойного обучения учащийся одновременно закрепляет полученные теоретические знания на практике на предприятии или в организации, закрепляет навыки и умения по специальности. При этом он развивает у учащихся способность распространять теоретические знания и концепции, направленные на понимание реального, конкретного производственного процесса. В статье представлена информация автора о важности двойного образования в закреплении навыков и умений учащихся по специальности.

**Ключевые слова:** двойное образование, навыки и умения, профессиональное образование, двойственность, педагогика, двойная система обучения.

**Abstract:** The process of dual training, the student simultaneously consolidates the theoretical knowledge gained in practice at the enterprise or in the organization, strengthens skills and abilities in the specialty. At the same time, it develops students’ ability to disseminate theoretical knowledge and concepts aimed at understanding the real, specific production process. The article presents the author’s information on the importance of dual education in consolidating the skills and abilities of students in their specialty.

**Key words:** dual education, skills and abilities, vocational education, duality, pedagogy, dual learning system.

**Kirish.** “Dual ta’lim ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Dual ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” deb ta‘kidlangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 163-son Qarorining qabul qilinishi Respublikamizda dual ta’limni tashkil qilish bo‘yicha amaliy ishlar boshlanganligidan dalolat beradi.

Dual ta’lim – bu mutaxassislarni o‘quvchilarning ta’lim infratuzilmasini va o‘quv jarayonida ish beruvchiga jalb qilgan holda, o‘zaro ta’lim doirasidagi mutaxassislar tayyorlash uchun asosdir. Kasbiy munosabatlar tajribasi sifatida ikki tomonlama ta’limni tushunish, ishlash bo‘yicha ishlab chiqarish ko‘nikmalarini o‘tkazish, mavzu bo‘yicha o‘zaro munosabatlarning umumiy tamoyillari bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Dual ta’lim jarayonida o‘quvchi olgan nazariy bilimlarini bir vaqtning o‘zida korxona yoki tashkilotda amalda qo‘llab, mutaxassislik bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini mustahkamlaydi. Bunda talabalarda haqiqiy, ma’lum bir ishlab chiqarish jarayonini


ISSN 2181-3841

tushunishga qaratilgan nazariy bilim va tushunchalarni tarqalish qobiliyatini rivojlantiradi. Ilm jarayonida amaliy faoliyatni aniqlashning prinsipi bilimlarning asosiy maqsadiga asoslanadi.

**Muhokama va natijalar.** Bir davrlar sovet sanoat maktabi dunyodagi eng yaxshi maktablardan biri hisoblangan. Ya'ni o'sha davrlarda o'rta kasb-hunar maktablari bo'lib, birinchi marta 1954-yilda ochilgan. Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash maxsus rejalar asosida amalga oshirilgan.

Yevropa ta'lim tizimi amaliyotida esa, dual ta'limni bo'lg'usi mutaxassisning muvaffaqiyatli kasbiy va ijtimoiy moslashuvi uchun ta'lim tashkiloti va ish beruvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning samarasi bo'lib hisoblangan.

**Adam Smit** o'zining mashhur asarida ta'kidlaganidek: **"Dual ta'lim – ish joyida ustoz shogirdga kasb-hunarning an'anaviy usullarini o'rgatish deb hisoblash kerak, chunki usta bilan birga ish olib borish, yosh ishchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini orttirib boradi"**.

Dual o'qitish tizimi – bu kasbiy ta'limning tarixan yig'ilib kelingan shakli bo'lib, Yevropaning siyosiy, iqtisodiy, diniy va texnologik tarixiga kirib kelgan.

Bugungi kunda ushbu o'quv tizimi Germaniya, Avstriya, Daniya, Gollandiya, Shveytsariyada muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. "dual", "duallik" atamasi (lot. "dualis" so'zidan olingan) "ikkilangan, ikkilangan birlik" degan ma'noni anglatadi.

Dual o'qitish ta'limning turli sohalarida keng qo'llanilish imkoniyati mavjud.

Pedagogikada "dual", "dual tizim" tushunchalari birinchi marta Germaniyada 1960-yillarning o'rtalarida ta'limning yangi shakli sifatida qo'llanila boshlangan. Keyinchalik ta'limning ushbu turi dunyo bo'yicha tan olindi va dunyo miqyosida shuhrat qozondi. Bugungi kunda Germaniyada dual o'qitish tizimi ta'limda o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda.

Ushbu turdagi kasb-hunar ta'limi bir necha asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan. Uzoq vaqt davomida nafaqat Germaniyada, balki butun Yevropada, shuningdek, Osiyoda faqat yigitlar turli xil hunarmandchilikka o'rgatib kelingan.

Usta shogirdga ma'lum bir kasbning kerakli bilim va ko'nikmalarni singdirib, texnikasini namoyish etadi, shu bilan birga talabalar ustozining bilim va ko'nikmalariga erishishga intildilar.

Nemis olimi **J.Myunx** bunday o'qitish tizimini ikki xil o'quv va ishlab chiqarish muhitiga ajratadi, umumiy maqsad – tinglovchilarning kasbiy tayyorgarligi yo'lida bir-birini to'ldirib ishlaydi. Korxonaning o'quv va ishlab chiqarish muhitiga quyidagilar kiradi:

1) qisman ish haqi to'lanadigan talaba uchun ish joyi;

2) o'quv ustaxonasi yoki laboratoriya;

3) ichki mashg'ulotlar.

Dual ta'lim konsepsiyasini taqdim etish uchun quyidagi maqsad va vazifalarni belgilab oldik.

**Maqsad:**

- mutaxassislarni tayyorlash orqali kasb-hunar ta'limi tizimini takomillashtirish;

- kasb-hunar maktablarining o'quv rejalariga zamonaviy o'qitish usullari va vositalarini joriy etish;

- uzluksiz kasb-hunar ta'limi maktablari tizimini modernizatsiya qilish;

- mutaxassislarning kasbiy standartlarini takomillashtirish.

**Vazifalar:**

- mutaxassis tayyorlash tizimi va xalqaro mehnat bozori talabi o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish;

- jamiyatimizning barcha sohalari va mehnat bozori talabiga javob beradigan bir qator kasb-hunar ta'limi muassasalarini tashkil etish;

- bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi, yetuk kadr, shuningdek, ularni professional bo'lib yetishishini ta'minlaydigan o'quv dasturlarining mazmuni va tuzilishini o'zgartirish, sifat jihatidan takomillashtirish;

- bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etishda, tegishli darajada ishlab chiqilgan, ilmiy, uslubiy va moddiy-texnik ta'minotni joriy etish.

Talabalar uchun dual ta'lim barqarorlik va kelajakda ishonchni qozonish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ushbu tizim keraksiz qiyinchi-

liklarsiz, kasbiy va mehnat faoliyatiga muammosiz va teng ravishda qo‘shilishga imkon beradi.

Dual ta’lim tizimi ko‘p narsalarga imkon beradi.

Masalan, korxonalar bilan birgalikda ta’lim olishni tashkil etish kelajakda korxonani malakali kadrlar bilan ta’minlash, o‘z iqtisodini rivojlantirish uchun vaqt va xarajatlarni tejaydigan, ishlab chiqarish muhitiga moslashib olgan xodimlarni tanlab oladi.

Dual ta’lim nafaqat ma’lum bir professional vazifalarni bajarishga o‘rgatadi, balki mehnat jamoasida muvaffaqiyatli moslashishga imkon beradi, kerakli vakolat va mas’uliyatni shakllantiradi.

**Dual ta’lim tizimining afzalliklarini ta’kidlab o‘tsak:**

***1. Mutaxassislarni amaliy tayyorlash nafaqat korxonalarda, balki ta’lim tashkilotlarining ustaxonalari, laboratoriyalari va o‘quv maydonchalarida ham amalga oshiriladi.***

***2. Ta’lim dasturlarining mazmuni va tarkibi ta’lim muassasasi va korxona o‘rtasida kelishilgan bo‘lib, barcha tomonlarning talablarini qondirishga imkon beradi.***

***3. Ta’lim muassasasi va korxona o‘rtasida yaqin munosabatlar, o‘zaro hamkorlik rivojlanishi mumkin.***

***4. Ishga joylashganda, mehnat jarayoniga tez moslashish ehtimoli katta.***

***5. Korxonada amaliy ishlarni bajarish uchun o‘quv muassasasidagi nazariy faoliyatning doimiy o‘zgarishini o‘rganish uchun eng yaxshi turtki bo‘lib xizmat qiladi.***

***6. Kasbni aniqroq tushunishni ta’minlaydi.***

**Dual ta’lim tizimining ijobiy tomonlari bilan birga, uning kamchiliklarini ham ko‘rib chiqamiz:**

***1. Ta’lim tashkilotlarining o‘quv dasturlari har doim ham korxonada bajariladigan ishlarning mavsumiy ketma-ketligini qo‘llab-quvvatlamaydi.***

***2. Ta’lim tashkiloti ba’zan korxona tomonidan talab qilinadigan o‘quv materialini taqdim etishga ulgurmasligi mumkin.***

***3. Korxonalarning yangi (yosh) mutaxassislarni qabul qilishni istamasligi.***

***4. Moliyaviy imkoniyatlarning yetishmasligi sababli korxonalar o‘z mahsulotlarining narxini oshirish orqali ta’lim olish uchun pul ishlashga majbur bo‘lmoqdalar.***

**Xulosa**. Shunday qilib, dual ta’lim-korxona (muassasa), talaba hamda davlatning manfaatlari va talablariga javob berishi muhim. Albatta, bo‘lajak bitiruvchilarni o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha muvaffaqiyatli ish bilan ta’minlash masalasi qiziqtiradi. Shuning uchun davlat butun iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasini samarali hal qilib kelmoqda. Yuqori va zamonaviy darajaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashda dual ta’lim tizimining elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki aynan mana shunday mashg‘ulotlar talabaga motivatsiya beradi, o‘z bilimlarini ko‘rsatish, ijodiy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi, shu bilan birga fikrlash, o‘z faoliyatini rejalashtirish va kutilgan natijalarga erishishni o‘rgatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Виборнов В.Ю. Yaroslav viloyatida dual ta’lim: Tashkiliy bosqich: Uslubiy qo‘llanma, 2014. 135 b.
2. A.Imomov, M.Y.Eshnazarova, S.MToshboyev. (2020). “Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi” mavzusini “Muammoli texnologiya” asosida o‘qitish. Modern informatics and its teaching methods, 1(1), 197-202.
3. A.A.Frolova, “Dual ta’limda innovatsion yondashuvlar: korxonalarning roli”, “Ta’limdagi innovatsiyalar” jurnali, 2018[1,50-b.];
4. Muslimov N.A. va bosh. Innovatsion ta’lim texnologiyalari– T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015[2,76];
5. S.B.Qorayev (2018). Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etishning dolzarbligi. Ta’lim, fan va innovatsiya 4, 28-31.



ISSN 2181-3841

# KASB TA'LIMI "DIZAYN" YO'NALISHI TALABALARIGA 3D MAX TEXNOLOGIYASINING MAXSUS DASTURLARIDA ISHLASH BOSQICHLARINI O'RGATISH METODI

**G'ofurova Aziza Xidirnazar qizi,**
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** **Ushbu maqolada 3D max texnologiyasining libos dizayni uchun mo'ljallangan maxsus dastur turlari, ularda ishlash bosqichlari va bu jarayonni talabalarga tushuntirish, talabalarda bu dasturlarda ishlash bo'yicha amaliy ko'nikma hosil qilish metodlari keltirilgan. Shuningdek maqolada o'qitish metodini tanlashda dars turi va mazmunidan kelib chiqib qo'yiladigan umumiy didaktik talablar keltirilgan.**

**Kalit so'zlar:** **dars, bosqich, ta'lim, 3D max, dastur, texnologiya, dizayn, libos, metod, ixtisoslik fanlari, didaktik ta'minot, CLO 3D, Style3D.**

**Аннотация:** **В данной статье представлены типы специальных программ технологии 3D max, предназначенных для конструирования одежды, этапы работы в них и объяснение этого процесса студентам, методы приобретения практических навыков работы в этих программах. Также в статье представлены общие дидактические требования к выбору метода обучения исходя из типа и содержания урока.**

**Ключевые слова:** **урок, сцена, Образование, 3D max, программа, технологии, дизайн, наряд, метод, предметы по специальности, дидактическое обеспечение, CLO 3D, Style3D**

**Abstract:** **his article presents the types of special programs of 3D max technology intended for clothing design, the stages of work in them and the methods of explaining this process to students, and how to acquire practical skills for working in these programs. The article also presents the general didactic requirements for choosing a teaching method based on the type and content of the lesson.**

**Keywords:** **lesson, stage, education, 3D max, program, technology, design, dress, method, special subjects, didactic support, CLO 3D, Style3D**

Ta'limda 3D max texnologiyasining maxsus dasturlaridan foydalanish, liboslarni dizayn loyihalashni o'rgatish metodlarini takomillashtirish, o'quv jarayonining sifatini oshirishga, zamonaviy sharoitlarda ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Shuningdek dizaynerlarning ijodiy - kasbiy faoliyati uchun maxsus vositalar va grafik bilan ishlashning axborot muhitini yaratishga imkon beradi. Shu bilan birga dizayn loyihalash hissiy va amaliy tajribani boyitishga yordam beradi, kasbiy ko'nikma va qobiliyatlar rivojlanishiga olib keladi, psixikani rivojlantiradi, intellektni shakllantiradi, estetik ehtiyojlarni tarbiyalashga, tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli, 3D max texnologiyasida grafik loyihalarni amalga oshirish professional yondashuvni ta'minlaydi va turli ijodiy muammolarni hal qiladi.

O'quv-tarbiya jarayonida talabalar dizaynerlik faoliyatining rivojlanishiga hissa qo'shadigan, shunga mos ravishda ularning kasbiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradigan ko'nikma va malakalarni egallaydi. Bundan tashqari, kompyuter bilan ishlash qobiliyati, shubhasiz, har qanday mutaxassisning umumiy madaniy tayyorgarligi bilan bog'liq bo'lishi kerak [1].

Bugungi kunda kompyuter dasturlarining juda katta bloklari mavjud bo'lib, ulardan o'quv jarayonida ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish fanlarni o'rganish samaradorligini oshirishi mumkin. Kompyuter dasturlarining imkoniyatlari va texnik xususiyatlarini tahlil qilib libos dizayni yo'nalishining ixtisoslik fanlari o'quv jarayonida qo'llaniladigan dasturlarni aniqladik. Ular 1-rasmda keltirilgan.

**Qo'llaniladigan 3D max texnologiyasining turlari**

**Style3D Marvelous Designer CLO 3D**

*1-rasm. Libos dizayni uchun 3D max dasturlari.*

Tadqiqotimizda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun kasb ta'limi "Dizayn" mutaxassisligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan OTMlarning o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish xususiyatlarini o'rganish muammosiga batafsil to'xtalib o'tish kerak. Ta'lim muassasalarida maxsus fanlarni o'qitishning zamonaviy o'quv-didaktik materiallari, multimedia va media vositalar hamda elektron resurslardan samarali foydalanish orqali ta'lim jarayonini takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. 3D texnologiyasining axborot-didaktik ta'minotining o'quv jarayonida qo'llanilishi natijasida elektron qo'llanmalar, virtual stendlar, animatsiya va simulyatsiyalar orqali murakkab texnologiyalarni qisqa vaqtda mukammal o'zlashtirib, o'qitishga imkoniyat yaratiladi.

Texnologik jarayonlarning rivojlanishi va o'quv jarayonida qo'llanilishi nafaqat ta'lim mazmuniga o'zgarishlar olib keladi, balki ta'lim usullariga ham ta'sir qilib dars jarayonini takomillashtiradi. Shuningdek, talabalarning fikrlashi, psixologik jarayonlari va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa ta'lim sifati oshishiga olib keladi. 3D max texnologiyasining axborot-didaktik ta'minotining didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va ularni mashg'ulotlarga joriy etishni o'rganish bo'lajak o'qituvchilarning kelajak faoliyatida katta yordam beradi.

3D max texnologiyasida yaratilgan obyekt oddiy qog'oz (akvarium)dan ko'ra "birmuncha yuqori intellekt"ga ega bo'lishi zarur, chunki kompyuter o'qituvchi faoliyatining bir necha qirrasi (zarur holda va kerakli joyda maslahat berish, egallangan bilimlarni mustahkamlash, yangi bilimlarni topishga yordam berish va h.k.)ni imitatsiya qilish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga o'rganilayotgan fan bo'yicha zarur (qo'shimcha ma'lumotlar) o'quv materiallarini to'laligicha qamrab olgan bo'lishi kerak. Biz tomondan o'tkazilayotgan tadqiqotlar natijasida ixtisoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy elektron ta'lim resurslari va vositalaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlari o'rganilib, ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda ixtisoslik fanlarini o'qitishda 3D max texnologiyasidan foydalanish metodikalari ishlab chiqilib, amalda joriy etiladi.

Ta'lim sohasida 3D max texnologiyalari bo'lajak dizaynerlarning bilim va ko'nikmalari sifatini oshiradi, bo'lajak mutaxassislarning haqiqiy kasbiy yo'nalishi va kompetensiyasini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, dizaynerlik qobiliyatini rivojlantiradi va kasbiy talablarga javob beradigan mutaxassislarni tarbiyalaydi. Shuning uchun bo'lajak mutaxassis o'z mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun kompyuter texnologiyasini yaxshi bilishi kerak. Agar dizaynerning kasbiy faoliyat sohasini ko'rib chiqsak, u holda 3D max texnologiyalari nafaqat g'oyani bevosita amalga oshirish uchun, balki individual shaxsiy xususiyatlarni rivojlantirish uchun ham kerak.

Dizayn yo'nalishi talabalarining kasbiy fazilatlarini rivojlantirish faqat ixtisoslik fanlarini o'qitishni takomillashtirishga qaratilgan fanlar majmuasidan foydalanganda amalga oshirilishi mumkin, chunki dizaynda badiiy va ijodiy faolliksiz ijodiy loyihani amalga oshirishni mantiqiy yakuniga yetkazishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Va bu jarayonda o'zining funksionalligi bilan kompyuter texnologiyalari muhim rol o'ynaydi.


Dars jarayonida 3D max texnologiyasining modellashtiruvchi dasturlaridan unumli foydalanish dizayn yo'nalishi talabalarining bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish, o'qish vaqtini tejash, o'quv materiallarini yanada sifatliroq taqdim etish, axborotlarni amaliy o'zlashtirish,


ISSN 2181-3841

shuningdek, har qanday jarayon va hodisalarni modellashtirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish imkonini beradi.

Biz tomondan kasb ta'limi "Dizayn" yo'nalishida o'qitiladigan "Liboslarni dizayn loyihalash", dizayn obyektini kompyuterda modellashtirish kabi ixtisoslik fanlaridan bir qator 3D max texnologiyalaridan foydalanib kiyimni loyihalash dasturlari ishlab chiqildi [2].

Tadqiqot ishining vazifalaridan biri hisoblangan 3D max texnologiyalaridan foydalanib ixtisoslik fanini o'qitishda talabalarga kiyimlarni dizayn loyihalashni o'rgatish jarayoni axborot-didaktik ta'minotini ishlab chiqishni amalga oshirish uchun 3D texnologiyasining bir-biriga yaqin bo'lgan CLO3D, Style3D dasturlarida liboslarni dizayn loyihalashning 6 bosqichi bo'yicha o'rganishning metodik ta'minotini ishlab chiqamiz. Birinchi bosqichi Marvelous Designer, CLO3D yoki Style3D yordamida 3D texnologiyasining asoslarini tushunishdan iborat. 3D texnologiyalari dizaynerlarga virtual, haqiqiy hayotiy kiyim vizualizatsiyasini yaratishga imkon beruvchi 3D moda dizayni dasturi ekanligini nazarda tutgan holda unga kirishdan oldin uning interfeysi asosiy funksiyalarini tushunish muhimdir. Ushbu vazifani Marvelous Designer, CLO 3D yoki Style3D kabi raqamli moda dasturi asosida keyingi 5 ta asosiy o'rganish bosqichlarida ularni 2-rasm bo'yicha ko'rib chiqamiz.




*2-rasm. Raqamli moda dasturlarida ishlash bosqichlari.*

Keyingi barcha bosqichlarni talabalarga Blended learning metodidan foydalanib olib boriladi. Blended learning – o'qitishning aralash shakli bo'lib, 3D texnologiyasidan foydalanib o'qitishda yaxshi samara beradi. Bunda dars turi va mazmunidan kelib chiqib quyidagi umumiy didaktik talablarga javob berishi lozim:

- har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirish uchun puxta rejalashtirilishi;
- darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid dastur turlaridan foydalanish imkoniyati yaratilishi;
- har bir dars mustahkam dizaynerlik g'oyasi asosida olib borilishi;
- har bir dars amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i;
- har bir bosqich belgilangan panellardan unumli foydalangan holda olib borilishi;
- darsga ajratilgan har bir soat va daqiqalarni tejab undan unumli foydalanish;
- har bir bosqich talaba va o'qituvchilarning faolligi birligini ta'minlamog'i lozim.

O'qitishning **birinchi bosqich**larida ma'ruza tushuntirish orqali yangi bilimlar shakllantirilib, ma'lum tayyorgarlik olganlaridan so'ng yakka-yakka yoki kichik guruhlarida o'qitish shakllaridan foydalanib, 3D texnologiyasining vositalarida ishlashning 6 ta asosiy tushunchalari amalda o'qituvchining boshqaruvida amalga oshiriladi. Individual ishlash uchun kichik guruhlar shakllantirilganda guruhda kuchsiz ta'lim oluvchi talabalar bo'lganligi sababli ularni boshqa talabalarga yetkazib olish uchun individual ishlash nazarda tutiladi[2].

**2. Modiling**. Modellashtirish asosiy shaklni olish va uni kerakli boshqa shaklga aylantirishning oddiy jarayonidir. Biz asosiy (torso) tekislik olishimiz va uni libosga aylantirishimiz mumkin. Bu jarayon libos ko'rinishini yaratishni, tushunishni o'z ichiga oladi va CLO 3D yoki Style3D yordamida raqamli uslubda modellashtirishning muhim qismiga aylanadi.

**3. Finishing**–3D-dizayndagi kiyimning pardozlash jarayonining asosiy bosqichi hisoblanadi. Bu yerda tikuvlar, turli murakkab detallar birlashtiriladi, natijada kiyimning har tomonlama mukammal konstruksiyasi amalga oshiriladi. Ushbu bosqich juda muhim, chunki u nafaqat ijodiy ishimizning haqiqiyligini, balki yakuniy ko'rinishni umumiy realizmini oshiradigan joydir. Shu nuqtayi nazardan, tugatish jarayoni uchun ikkita muhim mavzuni ko'rib chiqish kerak.

**4. Teksturing**–bu panelda ishlashda 3D kiyimni loyihalashdan so'ng, to'quv va trikotaj kabi turli xil matolarning uyg'unligini, shuningdek, ularning tuzilishi, yorqinligi, qalinligi, o'lchami (kvadrat metr uchun gramm) bosma va faktura kabi sirt atributlarini tushunish juda muhimdir. Ushbu tushuncha yaratgan libosimizning o'ziga xos xususiyatlarini samarali tarzda namoyon etish uchun muhim ahamiyatga ega. Kiyimga mato xususiyatlarini uzatishning ushbu tartibi Tekstura jarayoni deb ataladi. U Fabric and material papkasi hamda ranglar paneli yordamida amalga oshiriladi.

**5. Rendering**–Virtual yaratgan libosimizni, haqiqiy hayotiy kiyim vizualizatsiyasini yaratish imkonini beradi. Libos tayyorlangandan keyingi bosqich tasvirlarni olish, ko'rsatish uchun yorug'lik, kamera, atrof-muhit va rekvizitlar konfiguratsiyasini yaratishdan iborat. 3D da ko'rsatish jarayoni uch o'lchovli (3D) sahna yoki modelni ikki o'lchovli (2D) tasvir yoki animatsiyaga aylantirishni ifodalaydi. Ushbu murakkab simulyatsiya yorug'likning 3D makonidagi obyekti bilan o'zaro ta'sirini takrorlash, yorug'lik, materiallar, teksturalar va tanlangan kamera istiqboli kabi elementlarga jiddiy e'tibor berish bilan tavsiflanadi. Natijada kiyimingiz va uning atrofini jonli, real hayotga singdiruvchi jonli tasvirlar yaratiladi.

**6. Animation**. Oxirgi bosqichda animatsiyani o'z ichiga olgan holda avatar va libosga jon berishimiz mumkin. Bu ikki bosqichli jarayonni o'z ichiga oladi: birinchidan, harakatni ta'minlash uchun avatarni "soxtalash" va ikkinchidan, kiyimni "simulyatsiya" qilish. Shuni ta'kidlash kerakki, animatsiya ko'p vaqt talab qiladigan ish bo'lishi mumkin va ko'rsatish tezligiga shaxsiy kompyuteringizning grafik kartasi bog'liq bo'ladi. Shunga qaramay, bu juda yoqimli jarayon, chunki u yaratgan libosimizni jonlantiradi, bu bizga virtual real hayot sharoitida tasavvur qilish va ko'rish imkonini beradi. Bu jarayon Scene-papkasidagi mavjud sahnalar orqali yoki internetdan eksport qilish orqali amalga oshiriladi.

Dars jarayonida 3D max texnologiyasining modellashtiruvchi dasturlaridan unumli foydalanish dizayn yo'nalishi talabalarining bilim olishga bo'lgan motivatsiyani oshirish, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish, o'qish vaqtini tejash, o'quv materiallarini yanada sifatliroq taqdim etish, axborotlarni amaliy o'zlashtirish, shuningdek, har qanday jarayon va hodisalarni modellashtirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish imkonini beradi [3].

Biz tomondan kasb ta'limi "Dizayn" yo'nalishida o'qitiladigan "Liboslarni dizayn loyihalash", Dizayn obyektini kompyuterda modellashtirish kabi ixtisoslik fanlarida 3D max dasturining bosqichlarida ishlab yaratilgan sanoat namunasi uchun intellektual mulk agentligi tomonidan patentlandi.

Shunday qilib, professor-o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasida yuqori hamkorlikka erishildi, talabalarda oddiy bo'lmagan materiallarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ortdi. Zerikkan va hamma narsadan shikoyat qiladigan talabalar dars tugaganidan keyin ham auditoriyadan chiqmaydigan talabalarga aylandi. Ular yangi ko'nikma va bilimlarni olishdan zavqlana boshladilar.

Yuqorida aytib o'tilganidek, 3D max kompyuterda modellashtirishning asosiy funksiyalaridan biri monitor tekisligida 3D max tasvirning illyuziyasini yaratish qobiliyatidir. Bu imkoniyat ta'limda kompyuter texnologiyalarini qo'llash sohasida alohida o'rin tutadi va ko'rgazmali tamoyil–pedagogikaning asosiy tamoyiliga asoslanadi.

Kelajak dizaynerlarini ushbu 3D max texnologiyasidan foydalanib o'qitish ko'rgazmalilik darajasini oshirish bilan bir qatorda dizayn yo'nalishi talabalari o'quv materialini o'zlashtirishining individual ishlash sur'atlarini aniqlashga imkon beradi [4].

O'tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar


ISSN 2181-3841

natijasi quyidagi xulosalar qilish imkonini berdi:

1. Amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida 3D max dasturlaridan foydalanib kiyimlarni loyihalash va modellashtirish jarayonlarini tashkillashtirish oliy ta’limda dizaynerlarning ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilib tahlil qilish, muloqot va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

2. Aynan shu dasturda ishlashni kiyimni modellashtirish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqdik va kiyim dizayni uchun Marvelous Designer va CLO3D, Style3D tizimlarining tanlovi oqilona to‘g‘ri tanlov degan xulosaga keldik. Bunday usullar talabalarni muammoni qidirib topishga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishga va hatto xulosalarni ham o‘zlari qabul qilishga o‘rgatadi, shuningdek, dizayn yo‘nalishi talabalarining badiiy va ijodiy faolligi darajasini oshirish va kasbiy kompetensiya rivojlanishiga olib keladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. A.G‘ofurova Kasb ta’lim dizayn yo‘nalishida ixtisoslik fanlarini 3D texnologiyalaridan foydalanib o‘qitishning axborot didaktik ta’minoti //Новый Узбекистан: наука, образование и инновации. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 559-562.
2. Q.T.Olimov, D.F.Jalolova, B.B.Toirov “Ta’lim metodlari” metodik qo‘llanma. Buxoro 2012-y.
3. Н.А.Саблина. Автореферат “Развитие художественно-творческой активности студентов-дизайнеров средствами компьютерного 3D моделирования” Москва, 2015 г.
4. А.Х.Гофурова, С.С.Гофурова Методика преподавания профильных предметов в области профессионального дизайна с использованием 3D-технологий //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 1367-1373.

# KASBIY TA'LIMDA BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARINING INNOVATSION FAOLIYATIDA KOMPETENSIYALARNI SAFARBAR ETISHNING AHAMIYATI

**Jamolov Anvar Kuchkarovich,**
Professional ta'limni rivojlantirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim sohasidagi kompetensiyalarni safarbar etish va uning mohiyati ilmiy dalillar orqali ochib berilgan. Bundan tashqari, bo'lajak tibbiyot mutaxassislarini o'z bilim va ko'nikmalarini dinamik va rivojlanayotgan sog'liqni saqlash muhitida qo'llashga tayyorlashning usullari va tadqiqotchilar o'rtasida bilimlarni yaratish, tarqatish va tarjima qilishni o'z ichiga olgan bilimlarni safarbar qilish strategiyalarining integratsiyasi haqida ham ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tibbiyot ta'limi, innovatsion faoliyat, kompetensiyalarni safarbar etish, kompetensiya, professional kompetensiyalar, yumshoq qobiliyatlar, fanlararo hamkorlik, ilg'or texnologiyalar integratsiyasi, kompetensiyaga asoslangan yondashuv.

**Аннотация:** В данной статье раскрывается мобилизация компетенций в сфере образования и ее сущность с помощью научных данных. Кроме того, предоставляется информация о методах подготовки будущих медицинских работников к применению своих знаний и навыков в динамичной и развивающейся среде здравоохранения, а также об интеграции стратегий мобилизации знаний, которые включают создание, распространение и передачу знаний между исследователями.

**Ключевые слова:** медицинское образование, инновационная деятельность, мобилизация компетенций, компетентность, профессиональные компетенции, мягкие навыки, междисциплинарное сотрудничество, интеграция передовых технологий, компетентностный подход.

**Annotation:** This article reveals the mobilization of competencies in education and its essence through scientific evidence. In addition, there are also data on ways to prepare prospective medical professionals to apply their knowledge and skills in a dynamic and evolving health environment, and the integration of knowledge mobilization strategies that involve the creation, dissemination and translation of knowledge among researchers.

**Key words:** medical education, innovative activities, competency mobilization, competency, professional competencies, soft skills, interdisciplinary collaboration, advanced technology integration, competency-based approach.

Hozirgi globallashuv davrida innovatsiyalarni tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish bemorlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, tibbiyot fani va amaliyotini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari ta'lim tizimiga yangi g'oyalar, texnologiyalar va ta'lim strategiyalarini joriy etish o'quv natijalarini yaxshilash va sog'liqni saqlashning yuqori darajasini ta'minlash uchun asosiy qadamdir. Eng avvalo, kompetensiyani safarbar etishning ahamiyati haqida ma'lumot bersak, kompetensiyani safarbar qilishning mohiyati ilmiy dalillar va klinik amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun tadqiqotchilar va amaliyotchilar o'rtasida bilimlarni yaratish, tarqatish va tarjima qilishni o'z ichiga olgan bilimlarni safarbar qilish strategiyalarining integratsiyasi orqali namoyon bo'ladi[1]. Ushbu interaktiv va ikki yo'nalishli jarayon yangi ilmiy bilimlarni klinik

qarorlar qabul qilishda qo‘llash uchun juda muhim va shu bilan birga optimal sog‘liqni saqlashni ta’minlashga hissa qo‘shadi. Tibbiy ta’lim sharoitida kompetensiyaga asoslangan yondashuv integral, umumiy va maxsus kompetensiyalarni, jumladan, kasbiy sog‘liqni saqlash faoliyatidagi vazifalar va muammolarni hal qilish, amaliy vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash va tibbiy muolajalarni bajarish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan[2]. Ushbu yondashuv tibbiyot yo‘nalishi talabalari o‘rtasida talabaga yo‘naltirilgan ta’lim, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini tarbiyalashga yordam beradigan innovatsion o‘qitish usullari va zamonaviy uslubiy yondashuvlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi [3].

Bundan tashqari, kompetensiyalarni safarbar qilish individual qobiliyatlar bilan chegaralanib qolmaydi, balki bir tashkilot ichidagi boshqalarning vakolatlarini oshirish va ta’sir qilish qobiliyatiga ham taalluqlidir[4]. Bundan tashqari, tibbiy ta’limda kompetensiyalarni safarbar etish sog‘liqni saqlash sharoitida matematik kompetensiya kabi aniq kompetensiyalarni safarbar etishga ko‘maklashishga qaratilgan didaktik strategiyalarni ishlab chiqish [5] va ta’lim jarayonida duch keladigan muammo va to‘siqlarni hal qilish orqali qo‘llab-quvvatlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tibbiy ta’limda kompetensiyalarni safarbar etish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u bilimlarni safarbar qilish strategiyalari, innovatsion o‘qitish usullari va boshqalarning kompetensiyalariga ta’sir o‘tkazish qobiliyati bilan qo‘llab-quvvatlanadigan yangi va o’zgaruvchan muhitda kompetensiyalarni ishlab chiqish va qo‘llashni o‘z ichiga oladi [6,7,8,9,10].

Ushbu yondashuv bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarini sog‘liqni saqlash amaliyotiga innovatsiyalarni samarali tatbiq etish va joriy etishga tayyorlash uchun zarurdir.



Tibbiyot ta’limida kompetensiyalarni safarbar etish, bo‘lajak tibbiyot mutaxassislarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu nafaqat yangi va o‘zgaruvchan muhitda bilim va ko‘nikmalarni egallash va qo‘llashni, balki sog‘liqni saqlash sohasidagi innovatsiyalar jarayonida faol ishtirok etishni ham o‘z ichiga oladi.

Shu nuqtayi nazardan, kompetensiyani safarbar qilish nazariya va amaliyot o‘rtasidagi o‘zaro dinamik ta’sirni ta’minlaydi, tibbiyot xodimlarining doimiy o’zgaruvchan tibbiy landshaftga moslashish qobiliyatini kuchaytiradi va sog‘liqni saqlashni yaxshilashga faol hissa qo‘shadi. Bo‘lajak tibbiyot xodimlarining kompetensiyalarini aniqroq tasniflash uchun ularni ikki toifaga bo‘lish mumkin: professional kompetensiyalar va yumshoq ko‘nikmalar. Ularni qanday tashkil qilish mumkin:

**Professional kompetensiyalar** aniq tibbiy vazifalar va protseduralarni bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus bilim va ko‘nikmalarni anglatadi.

| Kompetensiya | Ta’rif |
|---|---|
| **Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish** | Dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun klinik ma’lumotlarni tahlil qilish. |
| **Tadqiqot qobiliyatlari** | Klinik usullar va yondashuvlarni sinab ko‘rish uchun tadqiqot ishlarini loyihalash va o‘tkazish. |
| **Texnologik savodxonlik** | Tibbiy ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va sharhlash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. |
| **Boshqaruv qobiliyatlari** | Resurslarni boshqarish va tibbiy loyihalarni muvofiqlashtirish, shu jumladan yangi usul va yondashuvlarni joriy etish. |

**Yumshoq qobiliyatlar**

**Ushbu ko‘nikmalar samarali muloqot va jamoaviy ishlarni osonlashtiradigan shaxsiy fazilatlar va shaxslararo ko‘nikmalarni anglatadi.**

| Qobiliyat | Ta’rif |
|---|---|
| **Fanlararo hamkorlik** | Bilim va ko‘nikmalarni birlashtirish uchun turli mutaxassisliklar vakillari bilan jamoalarda ishlash. |
| **Doimiy o‘rganish va moslashish** | Tibbiy texnologiyalar va amaliyotdagi o‘zgarishlarga javoban bilim va ko‘nikmalarni doimiy ravishda yangilashga tayyorlash. |
| **Innovatsion fikrlash** | Tibbiy amaliyotni yaxshilash uchun yangi g‘oyalar va yondashuvlarni yaratish. |
| **Kommunikativ mahorat** | Bemorlar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish, jumladan tinglash, tushuntirish va hamkorlik qilish. |
| **Axloqiy xabardorlik** | Klinik amaliyotda, ayniqsa, yangi texnologiyalar va usullardan foydalanganda axloqiy me’yorlarga rioya qilish. |
| **Madaniy kompetensiya** | Madaniy jihatdan mos keladigan yordam ko‘rsatish uchun qaror qabul qilishda bemorning madaniy va individual xususiyatlarini qo‘shish. |

Ushbu bo‘lim qaysi vakolatlar texnik yoki ixtisoslashganligini va tez o‘zgaruvchan tibbiy dunyoda samarali muloqot va moslashishga hissa qo‘shayotganini tushunishga yordam beradi.

Bo‘lg‘usi tibbiyot xodimlarining asosiy kompetensiyalarining yaxlit tasavvurini yaratish uchun biz professional kompetensiyalar va yumshoq ko‘nikmalarni bir jadvalga birlashtirib, ularning munosabatlari va bir-birini to‘ldiruvchiligini ta’kidlaymiz. Bu tibbiy amaliyot va bemorlarni parvarish qilishda mukammallikni ta’minlash uchun vakolatlarning turli jihatlari qanday o‘zaro bog‘liqligini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Soft ko‘nikmalar, jumladan, fanlararo hamkorlik, umrbod ta’lim, innovatsion fikrlash, muloqot va axloqiy ko‘nikmalar sog‘liqni saqlashning moslashuvchan ishchi kuchini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu ko‘nikmalar tajriba va bilim almashish klinik amaliyot va bemorlarni parvarish qilishni yaxshilashga olib keladigan professional hamjamiyatni shakllantirishga yordam beradi. Madaniy kompetensiya, ayniqsa, globallashuv va ko‘p madaniyatli jamiyatlarda zarur bo‘lib, farqlarni hurmat qilish va tushunishni ta’minlaydi, bu esa bemorga yo‘naltirilgan yordamni yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu kompetensiyalarni kasbiy ta’lim orqali safarbar etish texnik tayyorgarlikni


ISSN 2181-3841

shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirgan kompleks yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv nafaqat sog‘liqni saqlashning bevosita natijalarini yaxshilaydi, balki barqaror, innovatsion va bog‘langan sog‘liqni saqlash muhitini rivojlantirishga ham hissa qo‘shadi. Natijada tibbiyot mutaxassislari nafaqat tibbiy muolajalarni bajaruvchilar, balki professional hamjamiyatning to‘la huquqli ishtirokchilariga aylanadilar, ular rahbarlik qilish, uzluksiz ta’lim olish va dalillarga asoslangan klinik qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, kasb-hunar ta’limida kompetensiyalarni safarbar etishning o‘rni shubhasizdir. Bu nafaqat hozirgi, balki sog‘liqni saqlash sohasidagi kelajakdagi muammolarga ham tayyor bo‘ladigan tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashning kalitidir.

Endilikda qanday usullar tibbiyot xodimlarining kompetensiyalarini rivojlantirishi mumkinligi haqida fikr yuritsak, tibbiyot ta’limida ham innovatsiyalardan foydalanish tibbiyot xodimlarining kompetensiyalarini yanada rivojlantirishga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ya’ni tibbiyot xodimlarini ilg‘or texnologiyalar va klinik amaliyotda tadqiqotlardan foydalanishga tayyorlash bemorlarga xizmat ko‘rsatish sifatini doimiy ravishda yaxshilashni qo‘llab-quvvatlaydi.

Klinik amaliyotda ilg‘or texnologiyalar va tadqiqotlarni qo‘llash orqali bemorlarga yordam ko‘rsatishni yaxshilash uchun tibbiyot xodimlarini o‘qitishning innovatsiyalari juda muhimdir. Ta’lim amaliyotiga yangi g‘oyalar, vositalar va pedagogik texnologiyalarni joriy etish jarayoni ta’lim tizimini ta’limning tarkibiy qismlarini o‘rganish natijalarini sezilarli darajada yaxshilay oladigan holatga o‘tkazish uchun zarurdir, bu kelajakdagi tibbiyot xodimlariga patomorfologiyani o‘qitish tajribasidan dalolat beradi. Ushbu yondashuv tibbiy yordam sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion ta’lim strategiyalarini aniqlash bilan qo‘llab-quvvatlanadi, bu esa sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislarining bemorlarning xavfsizligi va salomatligini ta’minlashda asosiy vakolatlarini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Sog‘liqni saqlash sifati bo‘yicha innovatsiyalar instituti (HI-IQ) tomonidan tadqiqotchilar va tibbiyot xodimlarini ilm-fanni tatbiq etish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega etib tayyorlash uchun o‘quv rejasi va sertifikatlash dasturining yaratilishi sog‘liqni saqlash qiymatini oshirish uchun innovatsion treningning muhimligini yanada ta’kidlaydi. Xuddi shunday, tibbiy ta’limdagi turli innovatsion strategiyalarni, jumladan, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni va yangi o‘qitish texnologiyalarini baholash ta’lim yutuqlarini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Tibbiy ta’limga “Mind Mapping” va “Google Presentations” kabi innovatsion o‘qitish usullarining joriy etilishi bo‘lajak shifokorlarda kasbiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirishi mumkinligi amalda ham isbotlandi.

Bundan tashqari, malaka oshirishning innovatsion shakllari tibbiyot xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda yangilash va joriy etish sifatli tibbiy xizmatga erishish uchun muhim ahamiyatga ega.

Laboratoriya tahlilida innovatsion texnologiyalarni o‘rganish ham bunday innovatsiyalar sog‘liqni saqlash sifatini sezilarli darajada yaxshilashiga misoldir. O‘rta bo‘g‘in tibbiyot xodimlarini innovatsion texnologiyalarga o‘rgatish ularning bemorlarga g‘amxo‘rlik qilish uchun zarur bo‘lgan murakkab bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlash uchun zarurdir.

Tibbiyot stajyorlari, ayniqsa psixiatriya sohasida ijodkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantirish kelajakdagi sog‘liqni saqlash muammolarini hal qilish uchun juda muhimdir. Sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislari uchun intellektual o‘quv muhitlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish axborot resurslarini samarali boshqarish va bemorlarga yordam ko‘rsatishni yaxshilash uchun ilg‘or texnologiyalar va tadqiqotlarni klinik amaliyotga integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Rivojlanayotgan texnologiyalarni o‘rgatishning ahamiyati shundaki, tibbiyot yo‘nalishi talabalari va mutaxassislari telemeditsina, tibbiy robototexnika va virtual haqiqat

kabi ilg‘or tibbiy texnologiyalarda malakali bo‘lishlari uchun imkoniyatlar taqdim etiladi. Bu ularga yangi texnologiyalarni amaliyotda muvaffaqiyatli qo‘llash uchun zarur ko‘nikmalarni beradi.

Tadqiqotda ishtirok etish talabalar va tibbiyot xodimlariga innovatsion davolash va diagnostika usullarini ishlab chiqish va joriy etishda ishtirok etish imkonini beradi. Bu tibbiy amaliyot sifatini oshirish va tibbiyot sohasidagi ilmiy bilimlarni kengaytirishga yordamlashadi.

Bundan tashqari, ta’lim dasturlarini yangilash ham eng samarali usul hisoblanadi. Tibbiyot fani va texnologiyasining eng so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim dasturlarini muntazam yangilab borish tibbiyot mutaxassislariga zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi. Bu bugungi klinik sharoitda samarali ishlash uchun muhimdir.

**Qobiliyatni safarbar qilishning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:**

**1. Bilim va amaliyot integratsiyasi:** nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish tibbiyot mutaxassislariga innovatsion usullar va yondashuvlardan foydalangan holda klinik muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi.

Tibbiy ta’limda bilim va amaliyot integratsiyasi ko‘p qirrali yondashuv bo‘lib, u nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirib, tibbiyot xodimlariga klinik muammolarni innovatsion usullar va yondashuvlardan foydalangan holda hal qilish imkonini beradi. Bunday integratsiya tibbiyot yo‘nalishi talabalarini murakkab sog‘liqni saqlash muammolarini hal qila oladigan malakali mutaxassislarga aylantirish uchun juda muhimdir. Yuqorida keltirilgan fikrlarimizning asosli dalili sifatida quyida ko‘pgina olimlarning fikrlarini keltirib o‘tamiz.

Mamirbayeva o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘qitish, o‘qitish usullari, baholash va professor-o‘qituvchilar tarkibini rivojlantirishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv orqali tibbiyot yo‘nalishi talabalarining kasbiy malakasini oshirishning nazariy ahamiyatini ta’kidlaydi [11].

Xuddi shunday, Shepitko va boshqalar tibbiyot yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligining asosiy omili sifatida fundamental fanlarni o‘qitishga kompleks yondashuvning mohiyatini ta’kidlab, fanlararo integratsiya kasbiy motivatsiyani oshirishga yordam beradi, bilim, ko‘nikma va malakalarning sifatini oshiradi deydi [12].

Kasarla va boshqalar yakka holda olingan bilimlar tezda unutiladi, deb ta’kidlaydilar, bu bilim va ko‘nikmalarni egallash, saqlash va bosqichma-bosqich rivojlantirishga yordam beradigan integratsiyalashgan o‘quv dasturini yoqlaydi.

Liao va boshqalar amaliyotda talabalarning muammolarni topish va hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan sanoat va ta’lim, fan va ta’lim, nazariya va amaliyotning integratsiyasini ta’kidlaydigan tibbiy iste’dodlarni o‘qitish metodologiyasini taklif qiladilar.

Song va boshqalar talabalarning innovatsiyalari va umumiy ilmiy xabardorligini oshirish uchun bir nechta fanlar bo‘yicha bilimlarni integratsiya qilish muhimligini muhokama qiladilar.

Matinho va boshqalar sog‘liqni saqlash kasblari ta’limida integratsiyaning turli xil ta’riflari va qo‘llanilishini ko‘rib chiqadilar, ta’lim amaliyotini yaxshilash uchun hamkorlikda kasblararo bilim almashish zarurligini ta’kidlaydilar.

Xian va boshqalar tibbiy ta’limda talabalar motivatsiyasi va kognitiv qobiliyatlarini oshiradigan fanlararo seminarlarni amalga oshirishni ta’kidlaydi.

Laustsen va boshqalar ilmiy tadqiqotlarda mutaxassislarning ishtirokini o‘rganib chiqdilar, bunday ishtirok etish keksa yoshdagilar uchun foydali bo‘lgan murakkab bilimlarni rivojlantirishga olib kelishi mumkin.

Simeonov va boshqalar dalillar va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish uchun har tomonlama bilimlarni safarbar qilishni yoqlaydi. Husain va boshqalar asosiy va klinik fanlar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun Hindistonda tibbiy ta’limni integratsiyalash yo‘lidagi harakatni muhokama qiladi.

Bu omillar jamlanganda, tibbiyot ta’limi-

da nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish muhimligini ta’kidlab, uning muammolarni hal qilishning innovatsion ko‘nikmalarini shakllantirish va tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishdagi rolini ta’kidlaydi.

Tibbiy ta’limda bilim va amaliyotning integratsiyasi klinik muammolarni samarali hal qilishga qodir mutaxassislarni tayyorlashni ta’minlaydigan asosiy jihatdir. Ushbu jarayon quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

• Nazariy ta’lim: Tibbiyot tamoyillarini to‘liq tushunish imkonini beruvchi anatomiya, fiziologiya, biokimyo va klinik fanlar kabi asosiy fanlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

• Amaliy o‘rganish: nazariy bilimlarni amaliyot va simulyatsiya mashg‘ulotlari orqali real klinik vaziyatlarda qo‘llash, talabalarga zarur ko‘nikma va tajriba orttirish imkonini beradi.

Tibbiy ta’limda bilim va amaliyotning integratsiyasi sog‘liqni saqlash sohasida samarali klinik amaliyot va innovatsion ishlarga tayyor bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy tarkibiy qismidir. Ma’lumotni idrok etish va tahlil qilish qulayligi uchun biz uni jadval shaklida taqdim etamiz:

| Asosiy elementlar | Ta’rif |
|---|---|
| ***Nazariy tayyorgarlik*** | ***Tibbiyot tamoyillarini chuqur tushunish uchun asosiy fanlarni (anatomiya, fiziologiya, biokimyo) va klinik fanlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.*** |
| ***Amaliy mashg‘ulot*** | ***Nazariy bilimlarni, amaliyot va simulyatsiya mashg‘ulotlari orqali real klinik vaziyatlarga tatbiq etish, talabalarga zarur ko‘nikma va tajribalarni egallash imkonini beradi.*** |
| ***Bilim va amaliyotning integratsiyasi*** | ***Nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish, bu tibbiyot mutaxassislariga innovatsion usullar va yondashuvlardan foydalangan holda klinik muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi.*** |

Ushbu jadval tibbiy ta’limning asosiy jihatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tashkil qilish va tartibga solishga yordam beradi, klinik muammolarni samarali hal qilish va sog‘liqni saqlash sohasida innovatsion ishlarga tayyor mutaxassislarni tayyorlash uchun ularning integratsiyasi muhimligini ta’kidlaydi.

**2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:** tibbiyot fakulteti talabalarida axborotni tanqidiy baholash va tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish klinik jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish va tibbiyot amaliyotiga innovatsiyalarni joriy etishga yordam beradi.

Tibbiyot yo‘nalishi talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularning bilimli klinik qarorlar qabul qilish va tibbiy amaliyotda innovatsiyalarni rag‘batlantirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tanqidiy baholash va tahlil qilish qobiliyatini oshirish uchun juda muhimdir.

Pavlov va boshqalar ta’kidlaganidek, tibbiy ta’limga dalillarga asoslangan klinik amaliyotni integratsiyalash, bemorlarni parvarish qilish va sog‘liqni saqlash samaradorligini oshirish uchun yuqori sifatli dalillardan foydalanish muhimligini ta’kidlaydi, bu esa tibbiyot yo‘nalishi talabalarida tanqidiy fikrlash va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu yondashuv muammoli ta’limdan (PBL) foydalanish bilan qo‘llab-quvvatlanadi, bu Chjou va Sang tibbiyot yo‘nalishi talabalarini tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan haqiqiy o‘quv vaziyatlariga jalb qilish orqali klinik fikrlash qobiliyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi [13].

Bundan tashqari, Xo, Chen va Li tomonidan muhokama qilingan Sokratik usulni qo‘llash, ayniqsa, biokimyo laboratoriya mashg‘ulotlarida savol-javob va mulohaza yuritish orqali tibbiyot yo‘nalishi talabalarida

tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Bu usul maktab o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda kimyo eksperimentining rolini ta'kidlagan Mamirbekovaning xulosalarini to'ldiradi va shunga o'xshash amaliy, so'rovga asoslangan yondashuvlar tibbiy ta'limda foydali bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, innovatsion faoliyatda kompetensiyalarni safarbar etish sog'liqni saqlash sohasidagi tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy ta'lim olishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tanqidiy fikrlash, tadqiqot qobiliyatlari, texnologik savodxonlik va boshqaruv qobiliyatlari kabi professional vakolatlar samarali klinik amaliyot va innovatsiyalar uchun zarur bo'lgan texnik asosni ta'minlaydi. Bu kompetensiyalar tibbiyot xodimlariga nafaqat mavjud bilimlarni qo'llash, balki tibbiyot fanini rivojlantirishning kaliti bo'lgan yangi diagnostika va davolash usullarini yaratishda faol ishtirok etish imkonini beradi.

Shunday qilib, dalillarga asoslangan amaliyotlar, muammoli o'qitish va interaktiv o'qitish usullari orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari ongli klinik qarorlar qabul qilishga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi va tibbiyot amaliyotini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan innovatsion fikrlashni rag'batlantiradi. Bu nafaqat hozirgi, balki sog'liqni saqlash dunyosidagi kelajakdagi muammolarga ham tayyor bo'ladigan tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashning kalitidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Innovation in education for quality of care: a scoping review. DOI: 10.21203/rs.3.rs-2985309/v1.
2. 2022). Interprofessional education for safe patient handling during mobilization. doi: 10.5339/jemtac.2022.qhc.6.
3. Linda, Lai. (2011). Employees' perceptions of the opportunities to utilize their competences: exploring the role of perceived competence mobilization. International Journal of Training and Development, doi: 10.1111/J.1468-2419.2011.00376.X.
4. Juan, Carlos, Olaya., Luis, Fernando., Cortés, Cardoso., Dawson, Didier., Cortés, Joven. (2013). Movilizacion de la competencia matemática representar a partir de una propuesta didáctica mediante el estudio de la función lineal 1 Mobilization represent mathematical competence from a didactic proposal by studying the linear function Mobilização representar competência matemática a partir de uma proposta didática, estudando a função linear.
5. O.D.Lysachenko, V.I.Shepitko, N.Boruta., Y.V.Stetsuk, L.B.Pelypenko, V.Vilkhova, Olga Voloshina. (2023). Competence Approach to the Study of Histology, Cytology and Embryology. Ukraïns'kij žurnal medicini, bìologìï ta sportu, doi: 10.26693/jmbs08.01.253.
6. Monique, Aucoin., Genevieve, Newton., Kieran, Cooley. (2022). Knowledge Mobilization in the Canadian Naturopathic Community. Vital link newsletter, doi: 10.54434/candj.103.
7. James, Allen. (2011). Mobilization of Human Resources. doi: 10.1007/978-94-007-1353-6_6.
8. Leslie, Rourke., James, O, Rourke., Denis, Leduc., Patricia, Li., Anne, Rowan-Legg., Imaan, Bayoumi., Bruce, Chia-Wah, Kwok. (2022). Knowledge mobilization for primary care. Canadian Family Physician, doi: 10.46747/cfp.6810721.
9. Juan, Manuel, Muñoz-Cano., Teresita, Maldonado-Salazar., Juan, Antonio, Córdova-Hernández. (2017). Barriers to knowledge mobilization in learning to take evidenced- based clinical decisions: a descriptive longitudinal research. doi: 10.19136/PD.A0N61.1857.
10. Tatyana, Vladimirovna, Bessonova., L.A., Karaseva. (2022). Innovative educational technologies for specialists of practical health care. Medsestra, doi: 10.33920/med-05-2207-03.
11. Mamirbaeva. (2023). Integrated approach to developing professional competence of medical students. Society and innovations, doi: 10.47689/2181-1415-vol4-iss3-pp63-67.
12. V., I., Shepitko., Oleg, O, Sherstyuk., N., Boruta., Oksana, Tykhonova., Yana, A., Tarasenko., T., A., Skotarenko., O., A., Levchenko. (2023). Interdisciplinary Integration as a Main Factor in the Development of Clinical and Professional Thinking of Students of Medical Higher Education.
13. А.В., Выдрицкий., В.Н., Бородовская., А.А., Таврель., Г.В., Белоусова., В.Н., Пархамович., Я.П., Муравская., А.Г., Гулякевич. (2022). Innovative Technologies as a Factor in Improving the Quality of Laboratory Research. Laboratornaâ diagnostika. Vostočnaâ Evropa, doi: 10.34883/pi.2022.11.3.00.
14. Zafar, Rakhmonov. (2022). Improving the quality of nurse training through the introduction of modern nursing care technologies. The American journal of medical sciences and pharmaceutical research, doi: 10.37547/tajmspr/volume04issue03-04.
15. Lopez, Okhiai., Jiann, Lin, Loo. (2022). Enhancing Innovation and Creativity Amongst Trainees in Psychiatry: Linking the Clinical Practice, Academic, and Social Experiences. British Journal of Psychiatry Open, doi: 10.1192/bjo.2022.144.
16. V.V., Goryunova., T.I., Goryunova., I.I., Kukhtevich. (2021). Innovative Intelligent Technologies and Information Security in the Training of Doctors. doi: 10.1109/TELE52840.2021.9482481.

# KASBIY TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARIDA XORIJIY TILLARNI O'RGANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

**Jalilova Hulkar To'rayevna,**
Professional ta'limni rivojlantirish instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola kasbiy ta'lim muassasalarida xorijiy tilni o'qitishning interaktiv usullarini o'rganish va joriy etish masalasiga bag'ishlangan. Maqolada ingliz tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida interaktiv o'qitish usullaridan samarali foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan, shuningdek, kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilariga ingliz tilida muloqot ko'nikmalarini interaktiv tarzda o'qitishni tashkil etishning zamonaviy shakllari, tamoyillari va usullari keltirib o'tilgan. Shuningdek maqolada nutq ko'nikmalarini interaktiv o'rgatishning asosiy usullari ham keng yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** chet tilini o'rgatish, o'rganishga qiziqishni shakllantirish, joriy etish, muhokama shakllari, faollikni oshirish, interaktiv trening; monolog va dialogik nutq, interaktiv texnologiya, modellashtirish, professional ta'lim.

**Аннотация:** Данная статья посвящена вопросу изучения и внедрения интерактивных методов преподавания иностранного языка в профессиональных образовательных организациях. В статье исследуются возможности эффективного использования интерактивных методов обучения в процессе развития коммуникативной компетентности учащихся на уроках английского языка, а также приводятся современные формы, принципы и методы организации интерактивного обучения навыкам общения на английском языке учащихся профессиональных образовательных учреждений. В статье также подробно освещены основные методы интерактивного обучения речевым навыкам.

**Ключевые слова:** обучение иностранному языку, формирование интереса к обучению, введение, формы дискуссии, повышение активности, интерактивное обучение; монологическая и диалогическая речь, интерактивные технологии, моделирование, профессиональное образование.

**Annotation:** This article is devoted to the study and introduction of interactive methods of foreign language teaching in professional educational institutions. The article explores the possibilities of effective use of interactive teaching methods in the process of developing students' communicative competence in English classes, as well as modern forms, principles and methods of organizing interactive teaching of communication skills in English to students of professional educational institutions. methods are mentioned. Also, the main methods of interactive teaching of speech skills are widely covered in the article. Keywords: vocational schools, vocational training, strategy, design, modern education, digital knowledge, labor market, quality of education, educational process.

**Key words:** teaching a foreign language, formation of interest in learning, introduction, forms of discussion, increasing activity, interactive training; monologue and dialogic speech, interactive technology, modeling, professional education.

Ta'lim inson faoliyatining eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi va u insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi omilidir. Dunyoning ko'plab mamlakatlari kelajak avlodlarining intellektual va ijodiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qilishi kerakligini azaldan anglab yetgan. Fan, ijtimoiy-siyosiy institutlar, ommaviy axborot vositalari va madaniyat bilan birgalikda ta'lim yuqori samarali iqtisodiyotni yaratishning muhim omili va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy vositasidir.

**XX asrning oxirida interaktiv texnologiyalar Amerika maktablari nazariyasi va amaliyotida keng tarqala boshlandi va ularda turli fanlarni o'qitishda foydalaniladi. Interaktiv texnologiyaning uslubiy jihatlari bo'yicha V. Vorontsov, I. Kazantsev, S. Melnikova, A. Pometun, G. Selevko, L. Pirojenko, D. Jonsonlar ish olib bordilar.**

Interaktiv ta'limning turli shakl va uslublari mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish samaradorligini oshirishda keng ahamiyatga ega. Interaktiv (inglizcha "interaction") – o'zaro ta'sirga asoslangan; o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida fikr-mulohaza mavjudligini bildiradi. Interaktiv ta'lim – o'quvchining o'quv muhiti bilan o'zaro ta'sirini o'z ichiga olgan faoliyat turi bo'lib, u o'zlashtirgan tajriba manbai bo'lib xizmat qiladi.[1]

Kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun interaktiv trening texnologiyasi samarali hisoblanadi, uning maqsadi ingliz tiliga motivatsion qiziqishni shakllantirishdir. Interaktiv ta'lim o'quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi, o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida hissiy aloqalarni o'rnatishga va ta'lim maqsadlariga erishishga yordam beradi, chunki u o'quvchilarni jamoada ishlashga va boshqalarning fikrini tinglashga o'rgatadi. Interaktiv ta'lim:

- fan va ta'lim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga;
- hayotiy qadriyatlarni rivojlantirishga;
- hamkorlik va o'zaro hamkorlik muhitini yaratishga;
- kommunikativ fazilatlarni rivojlantirishga hissa qo'shadi. [2]

Interaktiv usullar "o'qituvchi-shogird" va "talaba-talaba" o'zaro munosabatlari modellariga asoslanadi. Bu sxemada nafaqat o'qituvchi o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qiladi, balki o'quvchilarning o'zlari ham bir-biri bilan muloqotda bo'lib, bu muloqot jarayoni har bir o'quvchining motivatsiyasiga ta'sir qiladi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning faol bo'lishlari uchun sharoit yaratish, ularni mustaqil izlashga, axborotlarni tahlil qilish va vaziyatni to'g'ri hal qilishga; jamoaviy ishlashga, boshqalarning fikrlarini hurmat qilishga, boshqa nuqtayi nazarga bag'rikenglik ko'rsatishga; muayyan faktlar asosida o'z fikrlarini shakllantirishga o'rgatishdan iborat bo'ladi [3].

O'qituvchi bu borada dialogik ta'limni ta'minlaydi. Faqat hamkorlik tashkilotchisi va guruh rahbari sifatida ishlaydi. O'quvchilarga mavzuni faqat o'qituvchi tushuntirib berishi jarayonida agar o'quvchilar faqat tinglovchi bo'lib qolsa, kerakli natijani bermaydi. Shu munosabat bilan Jon Xolt shunday degan edi: "O'qitishning eng katta dushmani — gapiradigan o'qituvchidir" [4].

**Kasbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda quyidagi interaktiv o'qitish texnologiyalari samarali bo'ladi:**

***1) hamkorlikda o'qitishning interaktiv texnologiyalari:***

- ***"Karusel";***
- ***"G'oyalar doirasi"; "Umumiy loyiha";***
- ***"Akvarium" va boshqalar;***

***2) jamoaviy va guruhli o'qitishning interaktiv texnologiyalari:***

- ***"Mikrofon";***
- ***"Aqliy hujum";***
- ***"Mozaika" va boshqalar;***

***3) vaziyatni modellashtirishning interaktiv texnologiyalari:***

- ***"Taqlid o'yinlari";***
- ***"Rolli o'yinlar" va boshqalar;***

***4) interaktiv munozara texnologiyalar***

**"Chain story"** — bu mantiqiy o'yin, tasavvur va individuallikning namoyon bo'lishida qo'llaniladigan o'yinli metod. Bu o'yinning mohiyati avvalgi ishtirokchining hikoyasini davom ettirishdir.

**"An item description"** — bu interaktiv kartalarda ko'rsatilgan so'z yoki iboralar bo'lib, ularni imo-ishoralardan foydalan-


ISSN 2181-3841

masdan tasvirlash kerak bo‘lgan o‘yin. Bunday holda, qolgan guruh faol rol o‘ynaydi va so‘zni taxmin qilishlari kerak bo‘ladi. [5]

**Interaktiv ta’lim usullariga quyidagilar kiradi:**

*• aqliy hujum – berilgan mavzu bo‘yicha savol-javoblar yoki taklif va g‘oyalar oqimi bo‘lib, unda to‘g‘rilik/noto‘g‘rilik tahlili hujumdan so‘ng amalga oshiriladi;*

*• klasterlar, qiyosiy diagrammalar, boshqotirmalar — ma’lum bir mini-mavzu bo‘yicha kalit so‘zlar va muammolarni qidirish;*

*• audio va video materiallar, AKTdan foydalangan holda interaktiv dars, masalan, onlayn test, elektron darsliklar, o‘quv dasturlari, o‘quv saytlari bilan ishlash;*

*• davra suhbati (bahs, munozara) – o‘quvchilarning muammoni, takliflarni, g‘oyalarni, fikr-mulohazalarni jamoaviy muhokamasi va yechimini birgalikda izlashni o‘z ichiga oluvchi guruh usuli;*

*• ishbilarmonlik o‘yinlari (shu jumladan rolli o‘yinlar, simulyatsiya) – bu juda mashhur usullardan biri bo‘lib, o‘yin davomida o‘quvchilar muayyan vaziyatda ishtirokchilar rolini o‘ynaydi, o‘zlarida turli kasblarni sinab ko‘radi. Ishbilarmonlik o‘yini taqlid qilish va o‘rganish maqsadini ko‘zlaydi, ular bilan bog‘liq rollar (quruvchi, arxitektor, dizayner, bino va inshoot qurilishi xodimlari, xaridorlar va mijoz)ni sinab ko‘riladi. Ishbilarmonlik o‘yinida har qanday darajadagi rollar, rollarning guruh ijrosi, o‘yin jarayonini tashkil etish va uni tekshirishga ayrim o‘yin ishtirokchilarini jalb qilish kerak bo‘ladi.*

**O‘yinchilarga qoidalarni tushuntirish quyidagicha bo‘lishi mumkin:**

- mumkin bo‘lgan harakatlar, huquqlari va erkin shaklda og‘zaki tavsif;
- o‘yinchilarning mas’uliyati;
- harakatlar ro‘yxati va ularning natijalari jadval ko‘rinishida;
- texnologiyaga mos keladigan o‘yinda ishtirok etuvchining xatti-harakatlarining algoritmik tasviri;
- kasbiy faoliyat va natijalari grafik shakli.

Professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarini monolog va dialogik nutqda interfaol o‘rgatishda ingliz tilini o‘rganish bevosita va bilvosita o‘qitish strategiyalari yordamida amalga oshiriladi. Interaktiv ta‘lim strategiyalari yodlash, bilish va kompensatsion strategiyalarni (qiyinchiliklarni yengish, muammolarni hal qilish) o‘z ichiga oladi. Bilvosita strategiyalar kognitiv maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Hissiy strategiyalar (o‘z-o‘zini boshqara olish): kommunikativ-ijtimoiy (kommunikativ munosabat qoidalariga rioya qilish) va kasbiy xulq-atvor (odob-axloq qoidalariga rioya qilish) strategiyalaridir. Ya‘ni, interaktiv ta‘lim nafaqat rivojlanishga hissa qo‘shadi, balki ingliz tilini ma’lum darajada bilish, shuningdek, ko‘nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Professional ta‘limi muassasasi o‘quvchilari uchun ingliz tilida og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini interaktiv o‘qitishning maqsadi o‘quvchini rag‘batlantiradigan qulay o‘quv sharoitlarini yaratish, shuning bilan birga interaktiv mukammallik: ingliz tilida muloqot ko‘nikmalarini yaxshilash, professional mavzularda ko‘proq ishlashdan iborat.

Jamoaviy guruhda ishlash uchun ushbu texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bu texnologiyalar quyidagilardan iborat: “Mikrofon”, “Ochiq arra”, “Qor ko‘chkisi”.

Ushbu texnologiyalarni nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida ishlatish mumkin. Shuning bilan birga dars berishda interaktiv texnik usullardan foydalanish o‘quvchilarga yanada qiziqish uyg‘otadi:

videoproyektor, videokliplar, elektron uy vazifasini bajarish, Skype orqali bajarish va boshqalar. Facebook yoki Twitter o‘quvchi o‘z guruhini yaratishni faollashtirishga yordam beradi, o‘quvchilarning kognitiv faolligi va ta’lim natijalarini yaxshilashiga imkon beradi.

**Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari ingliz tili darsida quyidagi ish turlaridan, ya’ni faoliyatlardan foydalanish mumkin:**

- rasm orqali tasvirlash (dizayn yoki qurilish binolarini tavsiflash va muhokama qilish kerak);
- o‘quvchilarning kognitiv faolligi va ta’lim natijalarini yaxshilashga doir mashq-

lar; ( o‘quvchilar ushbu mashqlarni kichik guruhlarda ishlaydilar)

- fikrlash qobiliyatini rivojlantirish vazifasi (o‘qituvchi o‘quvchilarga qurilish muammolari haqida savollar beradi va kichik guruhda muhokama qilish uchun vaqt beradi, o‘quvchilar o‘z fikrlarini ifodalaydilar);

- guruh ishi (o‘qituvchi savol beradi va javob berishda guruhning ishtiroki darajasi e’tiborga olinadi (guruhning tayyorgarlik darajasi baholanadi);

- “erkin chiziqlar” — mavzuni o‘rganishdan oldin o‘quvchilarga bino va inshootlarga doir matn taklif etiladi, ular ushbu matnni o‘rganib chiqqandan keyin guruh bo‘lib to‘ldirishlari kerak, jumlalar uchun yetishmayotgan joylar to‘ldiriladi;

- jismoniy javob — o‘qituvchi bergan taklifga o‘quvchilardan imo-ishoralar bilan roziligi yoki rozi emasliklarini bildirishlari so‘raladi, shundan so‘ng ular o‘z fikrlarini og‘zaki tasdiqlashlari kerak;

- o‘quvchilarning o‘z bilimlarini mavzuni o‘rganish oxirida o‘z-o‘zini baholashi, o‘qituvchi muammoni tuzadi, har bir “topishmoqlar va taxminlar”ning yechimi muhokama qilinadi.[6]

**Kichik guruhlarda ishlash** — faol va interaktiv ta’limning eng mashhur strategiyalaridan biri bo‘lib, u barcha o‘quvchilarga ishda ishtirok etish, hamkorlik va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini (xususan, faol tinglash, umumiy fikrni ishlab chiqish va kelishmovchiliklarni hal qilish qobiliyati) mashq qilish imkonini beradi. “Kichik guruhlarda ishlash” usuli qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interaktiv metodlarga qaraganda vaqtni yetarlicha tejaydi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha o‘quvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Bulardan tashqari guruhlarga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, topshiriqlarni bajarish uchun yetarli vaqt ajratish, kuchli guruhlarni rag‘batlantirib borish ishning natijasini baholash va shu jihatlarga ahamiyat berish mumkin bo‘ladi. Dars jarayonida guruh a’zolarini almashtirib borish ham mumkin bo‘ladi.

**“Davra suhbati” usuli** – bu aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan o‘quvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. “Davra suhbati” usuli qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak bo‘ladi. Bu har bir o‘quvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjud. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va o‘quvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir o‘quvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadi. So‘zlayotgan o‘quvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir o‘quvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir o‘quvchi konvert ustiga ma’lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi sherigiga uzatadi. Konvertni olgan ta’lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi o‘quvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

**“Bahs-munozara” usuli** – biror mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu usul qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini o‘quvchilarning biriga topshirish yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir o‘quvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim [7].

Interaktiv usullarda ishlash va o‘sha sharoitlarda ishlash malakalarini hosil qilish uchun treninglar tashkil etiladi. Treningda ishtirok etuvchilar ma’lum bo‘lgan usullardan o‘z o‘quv faoliyatlarida foydalanish uchun malaka va ko‘nikmalarni hosil qiladilar. Treninglar davomida mavjud bo‘lgan yangi usul-

lar muhokama qilinadi, o‘rganiladi, ko‘nikmalar hosil qilinadi. O‘zlari shu asosida yangicha ishlash faoliyatini o‘rganadilar. Umuman treninglar qo‘shimcha ta’lim olishning asosiy formalaridandir. Treningning o‘ziga xosligi shundaki, mutaxassisni o‘z faoliyatini, qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Treningni tashkil etish va o‘tkazishda shunday metodlar mavjudki ular universal xarakterga ega. Masalan, guruhli munozaralar, o‘yin asosidagi usullar, vaziyatlarni modullashtirish, inson sezgilarini rivojlantirish texnikalari, mediativ texnikalar va boshqalar. Binobarin, interaktiv usullar o‘quv jarayonini faollashtirish va optimallashtirishga yordam beradi. Interaktiv darslar davomida o‘quvchilar:

**- o‘quv ma’lumotlarini tahlil qilish va o‘quv materialini o‘rganishga ijodiy yondashish;**

**-o‘z fikrini shakllantirish, uni to‘g‘ri ifodalash, o‘z nuqtayi nazarini isbotlash, munozara va bahslashish;**

**- turli hayotiy vaziyatlarga qo‘shilish orqali o‘z ijtimoiy tajribasini modellashtirish;**

**- ijodiy va loyihalash faoliyati, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga muvaffaq bo‘ladilar.**

Xulosa o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, usullarni tanlash bir qator shartlarga bog‘liq: o‘rganilayotgan material mazmuniningo‘ziga xos xususiyatlariga, mutaxassislarni tayyorlashning umumiy vazifalariga, o‘qituvchi uchun mavjud bo‘lgan dars vaqtiga, o‘quvchilar jamoasining xususiyatlariga, o‘quv qurollari mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilarning tahliliy ko‘nikmalarini shakllantirishning ijobiy natijasi bevosita ushbu sifatni shakllantirish vositalari va sharoitlariga bog‘liq. Quyidagi shartlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) o‘quvchiga individual yondashish;

2) o‘quvchilarning ijodiy salohiyati yuzaga keladigan qulay (psixologik) sharoitlar yaratish;

3) o‘quvchilar uchun mazmunli va qiziqarli bo‘lgan o‘quv materialini diqqat bilan tanlash;

4) chet tillarini o‘qitishda yangi texnologiyalardan foydalanish (guruh, juftlik, individual). Binobarin, interaktiv usullar o‘quv jarayonini faollashtirish va optimallashtirishga yordam beradi. Interaktiv darslar davomida o‘quvchilar:

- o‘quv ma’lumotlarini tahlil qilish va o‘quv materialini o‘rganishga ijodiy yondashish;

-o‘z fikrini shakllantirish, uni to‘g‘ri ifodalash, o‘z nuqtayi nazarini isbotlash, bahslashish;

- turli hayotiy vaziyatlarga qo‘shilish orqali o‘z ijtimoiy tajribasini modellashtirish;

- ijodiy va loyihalash faoliyati, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Андреева В.М. Инновации на уроках. \\ журнал «Английский язык и литература». – 2004 — № 29.
2. Дичковская И.М. Инновационные педагогические технологии: Учеб. пособие. -К.: Академиздатель, 2004. -352с.
3. “Потенциал технологий активного и интерактивного обучения в процессе обучения в колледже”. Григорьева Наталия Сергеевна, преподаватель Волжский филиал ГАПОУ «Волгоградский медицинский колледж» г.Волжский, Волгоградская область.
4. Holt John Learning All the Time. Addison-Wesley, 1989 – 169 с. //Электронный ресурс.
5. Деловая игра как метод активного обучения студентов при освоении пм Выполнение работ по профессии “младшая медицинская сестра по уходу за болными.” Стрельникова А.И. – преподаватель ОГБПОУ «Смоленский базовый медицинский колледж имени К.С. Константиновой.
6. “Интерактивные методы как инновационные подходы в обучении” Горлова Яна Викторовна старший преподаватель кафедры «Иностранных языков», Севастопольский государственный университет, РФ, г. Севастополь.
7. “Professional ta’limda interaktiv usullardan foydalanish” Odinaxon Raxmanovna Parpiyeva, Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti assistenti.

# TA’LIM INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Mamataliyeva Mohinur Ilxom qizi,**
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Bugungi kunda pedagogika fani taraqqiyotining zamonaviy yo‘nalishlari mavjud an’anaviy ta’lim paradigmasining obyektiv asoslari va ularning rivojini ta’minlovchi qonuniyatlarini modernizatsiyalashdan iborat etib belgilandi. Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta’lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta’minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, oliy ta’limning ta’lim sifatini oshirish jarayonidagi ijtimoiy rolini ta’minlash masalalari muhim o‘rin tutadi.

**Kalit so‘zlar:** kreativ kompetentlik, ta’lim paradigmasi, interaktiv metodlar, interaktiv usullar, raqobatbardosh kadrlar, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari.

**Аннотация:** Сегодня современные направления развития педагогической науки определяются как модернизация объективных основ существующей традиционной образовательной парадигмы и законов, обеспечивающих их развитие. Важное значение имеет создание современного методического обеспечения проектирования креативного образовательного процесса через развитие креативной компетентности студентов, развитие креативных способностей студентов, направленных в профессиональные сферы, обеспечение социальной роли высшего образования в процессе повышения качества образования.

**Ключевые слова:** креативная компетентность, образовательная парадигма, интерактивные методы, конкурентоспособные кадры, методы обучения, средства обучения.

**Annotation:** Today, modern directions of the development of pedagogic science have been defined as modernization of the objective foundations of the existing traditional educational paradigm and the laws that ensure their development. Creating modern methodological support for designing the creative education process through the development of students’ creative competence, developing students’ creative abilities directed to professional areas, and ensuring the social role of higher education in the process of improving the quality of education are important.

**Key words:** creative competence, educational paradigm, interactive methods, interactive methods, competitive personnel, educational methods, educational tools.

**Kirish.** Hozirgi kunda ta’lim muhiti innovatsion xarakter kasb etmoqda va o‘z navbatida ta’lim muhitining innovatsion xarakterga ega bo‘lishi tabiiy ravishda uning mazmunan yangilanishiga olib keldi. Shu sababli zamonaviy sharoitda axborot-kommunikatsion va raqamli texnologiyalarga asoslanishi ta’lim muhitining mazmunan yangilanishini ta’minladi hamda zamonaviy pedagogik ta’limda integratsiyaning ahamiyati va o‘rni oshib bormoqda. Integratsiyalashgan ta’lim muammosiga e’tibor kuchaymoqda. Integratsiya jarayonining o‘zi yangi tushuncha emas, lekin bu sohada juda kam tadqiqotlar yo‘lga qo‘yilgan. U pedagogik adabiyotlarda bir necha bor ko‘tarilgan, ammo nazariy jihatdan kam muhokama qilingan, buning sabablari integratsiya muammosining dolzarbligi va uni amalga oshirish yo‘lidagi qiyinchiliklarning yetarli darajada ekan-

ligi hisoblanadi. Integratsiya–o‘zaro bog‘langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq deganidir. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonidir. Integratsiya jarayonlari tashkillashtirilgan sistemalarda bo‘lishi mumkin, bu holda ular sistema butunlik darajasini va tashkillashtirilgan darajasini ko‘taradi. Integratsiya jarayonlari oldin bog‘lanmagan elementlarni biriktirish asosi hamda shakllangan sistemalarda ham yuz berib, natijada sistemaning bir butunligi va tashkillanish darajasi oshishiga, element va tarkibiy qismlar o‘rtasida aloqadorlikka murakkablashuviga olib keladi. Bir butunlikka birikkan tarkibiy qismlar turli xil darajada avtonomlikka ega bo‘ladi. Ta’limni birlashtirish muammosi tobora ko‘proq o‘zini namoyon qilmoqda hamda olimlar, metodistlar va o‘qituvchilarni uni amalga oshirishning samarali usullarini izlashga majbur qilmoqda. Shuning uchun ta’limda integratsiya muammosi nazariya va amaliyot uchun juda muhim. Uning dolzarbligi o‘quv muassasalariga qo‘yilgan yangi ijtimoiy talablar bilan belgilanadi. Bu fan va ishlab chiqarish sohasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq.

Talabalarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan vazifalar (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish) o‘rganilgan bilimlarni faol qayta ishlash uchun muhim jihatdir. Ular maxsus bilimlarni egallashning nisbiy bosqichidan keyin faol bosqichga o‘tish hamda amaliy vazifalarni bajarish yoki mustaqil ish orqali kreativ qobiliyatlarini samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Talaba shaxsining muayyan zaxiralariga asoslanib, mashg‘ulotlarni tashkil etish uning rivojlanish darajalari, g‘oyaviy tayyorgarligi, ijodkorligi, talabalarning shaxsi va kasbiy xususiyatlarini hisobga oladi. Oliy ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitish jarayonida ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi (1-rasmga qarang):

**Metodlar**. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonida kreativ qobiliyatlarining rivojlanishi o‘rganishimiz mavzusiga muvofiq tadqiq etildi. Shu bois kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining modelini tuzishda interaktiv metodlar, ijodiy topshiriqlar hamda ta’limga faoliyatli yondashuv kabi pedagogik jarayonning tarkibiy qismlari to‘g‘risida quyidagi murakkab g‘oyalardan foydalandik: maqsadli, tashkiliy, mazmunli va yakuniy baholash.

O‘quv jarayonida talabalar kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy interaktiv usullardan foydalangan holda faoliyatli yondashuv bilan birlashtirilishi lozim.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarga malaka talablari asosida, pedagogik fanda yondashuv va tamoyillarning xilma-xilligiga asoslanib, tadqiqot davomida olib borilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar maxsus fanlarni o‘qitishda kreativ qobiliyatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish jarayonining 1-rasmda ko‘rsatilgan modelini ishlab chiqishga imkon berdi.




*1-rasm. Talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi usullar.*

Mazkur tadqiqotlar doirasida ko‘rib chiqilayotgan model faoliyatli yondashuv nuqtayi nazaridan: maqsadlar majmuasidan kelib chiqib yaratilgan tuzilmalarning ichki birligi va shaxsning ijtimoiylashuviga yo‘naltirilganlik; integratsiyalashgan mazmuni, ta’limning shakllari, usullari va vositalari bilan tavsif etiladigan yaxlit shaklga egaligi; maxsus fanlarni o‘qitish orqali OTM talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilganlik kabi muhim xususiyatlarga ega.

Olim **A.B.Fedorov fikriga binoan** zamonaviy muhitdagi mediata’limni ommaviy axborot bilan muloqot madaniyatini shakllantirish maqsadida ijodiy, kommunikativ salohiyatlar, tanqidiy tafakkur, media matnlarni to‘laqonli idrok etish, talqin va tahlil qilish, baholash media texnika yordamida o‘z-o‘zini ifodalashning turli shakllariga o‘qitish maqsadida ommaviy kommunikatsiya (media) vositalari va materiallari yordamida shaxsni rivojlantirish jarayoni sifatida ifodalaydi.

Elektron darsliklar yarata olish va ular bilan erkin faoliyat olib borish ko‘nikmasiga ega bo‘lish; Zoom, Googlemeet, Google Disk, Camtasia studio kabi dasturlarda erkin ishlay olish; masofaviy ta’lim platformasini kreativ yangiliklar bilan boyitib borish va boshqalar.

Oliy ta’lim muassasasida raqamli ta’lim muhitini hosil qilish uchun, eng avvalo, o‘quv muassasasining ichki jarayonlarini isloh qilish talab etiladi. Uning “raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun o‘quv jarayoniga o‘z vaqtida yangi texnologiyalarni joriy qilish yangi avlodning kasbiy tayyorgarligini ta’minlash”da yuqori samaradorlikka erishishni kafolatlaydi.

Talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari quyidagilardan iborat: motivatsiyali (talabalarning kasbiy muammolarga kirishi); faoliyatli (maxsus bilimlarni mustahkamlash, ko‘nikmalarni shakllantirish); refleksiv (fundamental bilimlarga qadriyatli munosabat va baholash bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish) (1-jadvalga qarang).

Ta’lim shakllari: auditoriyada (ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminarlar va hokazo) va auditoriyadan tashqari (ekskursiyalar, talabalarning mustaqil ishi), guruhli, individual, jamoaviy.

**Ta’lim metodlari:** shaxsiy sifatlarni rivojlantirish metodlari (ma’ruza, seminar mashg‘ulot, mustaqil ish), muammoli-rivojlantiruvchi metodlar (bahs-munozara ma’ruzalar, muammoli vaziyat), amaliy faoliyatni tashkil qilish metodlari (amaliy topshiriqlar, olimlar bilan uchrashuv, olimpiadalar va konferensiyalarda ishtirok etish).

**Ta’lim vositalari:** axborot (videofilmlar, elektron tashuvchilar, onlayn tartibda ma’ruzalar), ta’lim beruvchi (elektron o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy majmua, maxsus kurs dasturi, ta’lim saytlari), diagnostik (testlar, topshiriq kartochkalar, mustaqil ish uchun ishchi daftarlar).

**Natijalar**. Jamiyat va fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta’lim-tarbiya jarayoni, uning mazmuni, shakl, metod va vositalari, mutaxassislar tayyorlash jarayoniga ta’sirini tahlil etganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj quyidagilar bilan belgilanishini aniqladik:

***Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ta’lim tizimi, metodologiyasi va o‘quv jarayoni texnologiyasini tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o‘qituvchining faoliyati pedagogik yangiliklar yaratish, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini egallashdan iborat. Bu esa, o‘z-o‘zidan bo‘lajak pedagoglarda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.***

***Ikkinchidan, ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish o‘qitishning yangi tashkiliy shakllari, texnologiyalarini izlash, ya’ni ta’limga innovatsiyalar kiritishni taqozo qiladi. Ta’lim jarayoniga innovatsiyalar kiritishning muhim shartlaridan biri esa, o‘qituvchining innovatsion tayyorgarligi, ijodkorligi va kreativ faolligi bilan tavsiflanadi.***

***Uchinchidan, pedagogik yangilikni o‘zlashtirish va uni amaliyotga tatbiq etishga nisbatan bo‘lajak o‘qituvchilarda faol mayllarni rivojlantirish kabilar tadqiqot muammosining ijtimoiy, pedagogik-psixologik jihatdan dolzarbligini ifodalaydi.***


ISSN 2181-3841

Talabalarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning zarurligi o‘zaro faol munosabatlar ta’sirida rivojlanadigan ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim muhiti, o‘qitish shart-sharoitlari va metodlarining interaktiv xarakter kasb etishini ta’minlashni talab qiladi.

Bugungi kunda o‘qituvchining shaxsiyati va faoliyatiga bo‘lgan talablar bilan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajalari orasida sezilarli ziddiyatlar kuzatilmoqda. Shu bilan bir qatorda o‘qituvchilar tayyorlashning mavjud tizimi bilan bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatining kasbiy-ijodiy tavsifi orasida ham nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Buning natijasida o‘qituvchilar bilan ta’lim oluvchilar orasida to‘siqlar va bo‘shliq vujudga keldi, o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi yakka hukmronligi qaror topdi. Shu bilan bir qatorda, ular aksariyat asosan o‘quv dasturlari va darsliklarga bog‘lanib qoldilar, ularning kreativ faoliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘qituvchilik kasbining ijtimoiy mavqeyi va obro‘siga putur yetkazdi. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimi jamiyat ehtiyojlari va uning o‘tkir muammolaridan uzoqlashgan edi. Shu nuqtayi nazardan, erkin va shaxsga yo‘naltirilgan interaktiv ta’lim muhitini shakllantirish, bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanmoqda.

So‘ngi yillarda pedagogik-psixologik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi sifatida ta’limni insonparvarlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘qishni individuallashtirish, ta’lim shakllarini optimallashtirish, ta’lim oluvchilarning bilish faolligini oshirish, bu jarayondagi o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasiga alohida urg‘u berilmoqda.

**Xulosa va tavsiyalar.** Oliy ta’lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko‘nikma va malakalarini rivojlanishining o‘zgarishini baholash – Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish hisoblanadi. Talabalarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishning zarurligi o‘zaro faol munosabatlar ta’sirida rivojlanadigan ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim muhiti, o‘qitish shart-sharoitlari va metodlarining interaktiv xarakter kasb etishini ta’minlashni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi PQ-51-son qarori
2. С.В.Тарасов Образовательная среда: понятие, структура, типология // Ж.Вестник Санкт-Петербургского ГУ. – СПб.: 2011. № 11.–С. 133-138.
3. Е.В.Устюжанина, С.Г.Евсюков Цифровизация образовательной среды:возможности и угрозы // Ж. Вестник РЭУ им. Г.В.Плеханова. – М.: 2018. — № 1(97). – С. 3-12].
4. Долгоруков А. Метод кейс-стади как современная технология профессионально-ориентированного обучения:
5. Z.K.Ismailova O‘qitishning zamonaviy texnologiyalari.T: Moliya. -2020

# KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI O‘QUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA META TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAYYORLASH YO‘NALISHLARI

**Soliyev Elyor Ravshanbek o‘g‘li,**
Professional ta’limni rivojlantirish instituti mustaqil izlanuvchisi.

**Annotatsiya:** **Ushbu maqolada kasbiy faoliyatda meta-texnologiyalarni o‘zlashtirib, ta’lim muassasalari joriy sanoat amaliyotlari va rivojlanayotgan tendensiyalarni aks ettirish uchun o‘z o‘quv dasturlarini yangilashlari yo‘lida bir qator ma’lumotlar yoritiladi. Bu talabalarning mehnat bozori talablariga javob beradigan zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlanishini ta’minlaydi.**
**Kalit so‘zlar:** **meta-texnologiyalar, ta’lim, sanoat, kasbiy faoliyat, texnologiyalar, ta’rifi va qamrovi, tarbiyaviy ta’sirlar, kasbiy ta’limda meta-texnologiyalarning o‘rni.**

**Аннотация:** **В этой статье будет освещен ряд фактов о том, как, внедряя метатехнологии в профессиональную деятельность, образовательные учреждения обновляют свои учебные программы, чтобы отразить текущую отраслевую практику и развивающиеся тенденции. Это обеспечит предоставление студентам современных знаний и навыков, отвечающих требованиям рынка труда.**
**Ключевые слова:** **мета-технологии, образование, промышленность, профессиональная деятельность, технологии, определение и охват, образовательные эффекты, роль мета-технологий в профессиональном образовании.**

**Annotation:** **This article provides insights into the ways in which Meta-Technologies in Professional Activities can be adopted and educational institutions can update their curricula to reflect current industry practices and emerging trends. This ensures that students are provided with modern knowledge and skills that meet the requirements of the labor market.**
**Keywords:** **Meta- technologies, education, industry, professional activity, technologies, Definition and scope, Educational implications, Role of meta-technologies in vocational education.**

**Kirish.** Har doim rivojlanib borayotgan texnologiya an’anaviy texnologik chegaralarni kesib o‘tuvchi ilg‘or ramkalar va tizimlarni tavsiflash uchun «meta-texnologiyalar» atamasi paydo bo‘ldi. Meta-texnologiyalar mustaqil innovatsiyalar emas, balki turli texnologik vositalar va metodologiyalarni birlashtirgan va takomillashtiradigan integral yechimlardir. Ular zamonaviy sanoat va professional amaliyotlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydigan yanada murakkab, o‘zaro bog‘langan va moslashuvchan tizimlar tomon paradigma o‘zgarishini ifodalaydi.

Meta-texnologiyalar bir nechta domenlar va texnologiyalar bo‘ylab ishlash qobiliyati bilan ajralib turadi, bu ularning ta’sirini kuchaytiradigan sinergik effektlarni yaratadi. Bir maqsadli texnologiyalardan farqli o‘laroq, meta-texnologiyalar turli texnologik komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirdan foydalangan holda yaxlit yondashuvni ta’minlaydi. Bu sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, bulutli hisoblash va boshqa ilg‘or vositalarni kengaytirilgan funksionallik va moslashuvchanlikni ta’minlaydigan yaxlit tizimga birlashtirishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Hozirgi tez rivojlanayotgan texnologik muhitda meta-texnologiyalar tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ular tashkilotlarga operatsiyalarni soddalashtirish, ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va doimiy ravishda innovatsiyalar qilish imkonini beradi. Misol uchun, AI va katta ma’lumotlar tahlilining konvergensiyasi korxonalarga nafaqat katta hajmdagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, balki strategik qarorlarni qabul qilishga yordam beradigan


ISSN 2181-3841

amaliy tushunchalarni olish imkonini beradi. Xuddi shunday, VR va AR texnologiyalarining integratsiyasi ta'limdan tortib sog'liqni saqlashgacha bo'lgan sohalarda inqilob qilishi mumkin bo'lgan ajoyib tajribalarni yaratadi.

**Kasbiy faoliyatga ta'siri.** Meta-texnologiyalarning ta'siri kasbiy faoliyatga taalluqli bo'lib, ular samaradorlikni, ijodkorlikni va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi. Murakkab tahlilni osonlashtiradigan, odatiy vazifalarni avtomatlashtiradigan va real senariylarni simulyatsiya qiladigan vositalarni taqdim etish orqali meta-texnologiyalar mutaxassislarni zamonaviy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan resurslar bilan ta'minlaydi. Masalan, muhandislik sohasida meta-texnologiyalar murakkab tizimlar va jarayonlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi, bu esa aniqroq dizayn va muammolarni samarali hal qilishga olib keladi.

**Tarbiyaviy ta'sirlar.** Ta'lim muassasalari uchun meta-texnologiyalarni qabul qilish o'quvchilarni texnologik kelajakka tayyorlashni anglatadi. Ushbu ilg'or tizimlarni o'quv dasturiga integratsiyalash talabalarning nafaqat joriy texnologiyalar bilan tanishishini, balki yangi paydo bo'lgan vositalarni boshqarish va ulardan foydalanishini ham ta'minlaydi. Ushbu tayyorgarlik juda muhim, chunki u ta'lim natijalarini zamonaviy ishchi kuchi ehtiyojlariga moslashtiradi, murakkab texnologik muhitlardan foydalanish va moslasha oladigan mutaxassislar avlodini tarbiyalaydi.

Meta-texnologiyalar texnologik rivojlanish sohasida sezilarli sakrashni anglatadi. Ular turli xil texnologiyalarni integratsiyalash va takomillashtirish uchun asos taklif qiladi, bu esa bir nechta sohalarda yanada samarali va innovatsion yechimlarga olib keladi.

**Kasbiy ta'limda meta-texnologiyalarning o'rni.** Meta-texnologiyalar nazariy bilimlar va amaliy qo'llash o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish orqali kasbiy ta'limda o'zgartiruvchi rol o'ynaydi va shu bilan talabalarni zamonaviy professional muhitning murakkabligiga tayyorlaydi. Ularning ta'lim muassasalariga integratsiyalashuvi o'quv dasturlarini qayta shakllantiradi, o'rganish tajribasini oshiradi va talabalarni texnologiyaga asoslangan dunyoda rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan qurollantiradi.

**O'quv dasturlariga integratsiya.** Meta-texnologiyalar texnologiyani sohaga oid bilimlar bilan uyg'unlashtirgan fanlararo o'quv dasturlarini yaratishga yordam beradi. Masalan, sun'iy intellekt (SI) va katta ma'lumotlar tahlilini biznes dasturlariga kiritish talabalarga ushbu vositalarni bozor tahlili va qaror qabul qilish kabi real senariylarda tushunish va qo'llash imkonini beradi. Xuddi shunday, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR)ni tibbiy mashg'ulotlarga integratsiyalash jarrohlik muolajalarining immersiv simulyatsiyasini ta'minlaydi, amaliy o'rganish va malaka oshirishni ta'minlaydi.

Meta-texnologiyalarni turli fanlarga kiritish orqali ta'lim muassasalari yanada yaxlit va tegishli ta'lim tajribasini taklif qilishlari mumkin. Ushbu integratsiya talabalarning nafaqat ilg'or texnologiyalar bilan tanishishlarini, balki ularni tanlagan sohalarida qanday qilib samarali qo'llashni ham tushunishlarini ta'minlaydi.

**O'quv tajribalarini oshirish.** Meta-texnologiyalar ta'limni yanada interaktiv, shaxsiylashtirilgan va qiziqarli qilish orqali o'rganish tajribasini oshiradi. Masalan:

***Sun'iy intellekt:*** sun'iy intellektga asoslangan platformalar o'quvchilarning individual ehtiyojlari, kuchli va zaif tomonlariga moslashgan holda shaxsiylashtirilgan ta'lim tajribasini taqdim etishi mumkin. AI vositalari moslashtirilgan fikr-mulohazalarni taklif qilishi, resurslarni tavsiya qilishi va taraqqiyotni kuzatishi mumkin, bu esa talabalar o'z tezligida o'rganish va yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarga e'tibor berishiga yordam beradi.

***Virtual va kengaytirilgan haqiqat:*** VR va AR texnologiyalari o'quvchilar virtual makonda murakkab tushunchalar va senariylarni o'rganishi mumkin bo'lgan immersiv o'quv muhitini yaratadi. Masalan, VR haqiqiy muhandislik muammolarini taqlid qilishi mumkin, AR esa raqamli ma'lumotlarni

jismoniy obyektlarga qo‘shib, tushunish va vizualizatsiya qilishga yordam beradi.

***Katta ma’lumotlar tahlili:*** Ta’lim muassasalari talabalar faoliyatini tahlil qilish, tendensiyalarni aniqlash va o‘qitish usullari va o‘quv dasturlari dizaynini yaxshilash maqsadida ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun katta ma’lumotlardan foydalanishi mumkin. Ushbu yondashuv yanada sezgir va samarali ta’lim muhitini yaratishga yordam beradi.

**Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.** Meta-texnologiyalar talabalarga haqiqiy muammolarni aks ettiruvchi amaliy tajribalarni taqdim etish orqali muhim kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

***Muammolarni hal qilish:*** Ilg‘or texnologiyalar bilan shug‘ullanish orqali talabalar murakkab muammolarni hal qilishni va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni o‘rganadilar. Masalan, ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish uchun AI algoritmlaridan foydalanish yoki biznes senariylarini simulyatsiya qilish uchun VRdan foydalanish tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

***Texnik malaka:*** meta-texnologiyalar bilan tanishish talabalarni turli sohalarda talab ortib borayotgan texnik ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. AI vositalari, ma’lumotlarni tahlil qilish platformalari yoki VR/AR tizimlaridan foydalanish malakasi talabalarga mehnat bozorida raqobatdosh ustunlikni berishi mumkin.

**Xulosa.** Bir so‘z bilan aytganda, meta-texnologiyalarning integratsiyasi ko‘plab afzalliklarni taqdim etsa-da, u hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolarni ham keltirib chiqaradi:

***Kirish va tenglik:*** barcha talabalarga zarur texnologiya va resurslardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash juda muhimdir. Institutlar teng ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash uchun nomutanosibliklarni bartaraf etishlari kerak.

***Axloqiy va maxfiylik:*** ilg‘or texnologiyalardan foydalanish ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi bilan bog‘liq axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Institutlar talabalar ma’lumotlarini himoya qilish va axloqiy masalalarni hal qilish uchun qat‘iy choralarni ko‘rishlari kerak.

***Moslashuvchanlik va uzluksiz o‘rganish:*** Meta-texnologiyalarning jadal evolyutsiyasi moslashuvchanlik va umrbod ta’limning muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu texnologiyalar bilan shug‘ullanadigan talabalar texnologik yutuqlardan xabardor bo‘lishni o‘rganadilar va doimiy ravishda o‘z malakalarini yangilaydilar.

***Sanoat ehtiyojlariga moslashish:*** Ta’lim muassasalari bitiruvchilarni ish kuchiga tayyorlashni ta’minlash uchun o‘z dasturlarini sanoat ehtiyojlariga moslashtirishlari kerak. Meta-texnologiyalar ushbu moslashuvni quyidagilar orqali amalga oshiradi:

***Sanoat sohasidagi hamkorlik:*** texnologiya kompaniyalari va sanoat yetakchilari bilan hamkorlik institutlarga o‘z dasturlariga real ilovalar va amaliy tadqiqotlarni kiritish imkonini beradi. Ushbu hamkorlik talabalar tegishli tajriba va tushunchalarni olishiga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 6-sentabrdagi Farmoni.
2. N.M.Egamberdiyeva, A.U.Axmadaliyev, A.B.To‘rayev . Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari moduli T.: Iste’dod, 2016. – 260 b.
3. 2. G.I.Xasanova “Ta’lim jarayonida dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari” Jizzax: 2020. 415 bet.
4. R.Ishmuxamedov, A.Abdukodirov, A.Pardayev Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari tarbiyachi-o‘qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) — T.: Iste’dod, 2010. – 120 b.

# RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO‘LAJAK IQTISODIYOT MUTAXASSISLARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING ALGORITMIK BOSQICHLARI

**Tagayev Odil Nurmuminovich,**
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali “Amaliy matematika” kafedrasi o‘qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli texnologiyalardan foydalanib bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning algoritmik bosqichlari va har bir bosqichga alohida tegishli ijodiy yondashilganligi to‘g‘risida so‘z boradi.
**Kalit so‘zlar:** kasbiy ta’lim, raqamli iqtisodiyot, iqtisodchi mutaxassislar, bosqich, mutaxassis, tayyorgarlik, rivojlantirish, asoslovchi, ijodiy yondashuv.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются алгоритмические этапы подготовки будущих специалистов-экономистов к профессиональной деятельности с использованием цифровых технологий и творческий подход к каждому этапу в отдельности.
**Ключевые слова:** профессиональное образование, цифровая экономика, специалисты-экономисты, этап, специалист, подготовка, развитие, основополагающий, творческий подход.

**Abstract:** This article discusses the algorithmic stages of preparing future economists for professional activity using digital technologies and a creative approach to each stage individually.
**Key words:** professional, digital, economist, stage, specialist, preparatory, developing, innovative, creative.

Ma’lumki, iqtisodiyot sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislardan intellektual salohiyatli va o‘z sohasining innovatsion rivojlangan kadr bo‘lishni zamon talab etmoqda.

Bu esa ta’lim-tarbiya va bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash jarayoni har qanday jamiyatda ham o‘ziga xos davr talablari asosida faoliyat ko‘rsatib, o‘sha jamiyatdagi mutaxassis-olimlar tomonidan amalga oshirilishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu boradagi iqtisodchilarni tayyorlashning o‘zi ham alohida muammo bo‘lib, uni optimal boshqarish jamiyat taraqqiyotini belgilashdagi muhim asoslardan biridir.

Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalari ta’lim jarayoni muntazam ravishda harakatlanib turuvchi dinamik tizimdan iborat ekanligi haqidagi fikrga kelishimizga fundamental asos bo‘ldi. Bunday muammoni hal qilishning algoritmik bosqichlarini quyidagi ketma-ketlikda ishlab chiqdik:

**Bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning algoritmik bosqichlari.**

Bu algoritmik bosqichlar bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning barcha bosqichlarini qamrab oladi. Quyida har bir bosqichga tegishli ijodiy faoliyat to‘g‘risida to‘xtalamiz.

**1. Tayyorgarlik bosqichi.** Bu bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning birinchi bosqich ta’limiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda quyidagi ijodiy ishlar amalga oshiriladi: bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga tegishli ma’lumotlar va ularning turlari, tuzilishi hamda yozma adabiyotlardan olingan ma’lumotlar aniqlanadi; aniqlangan ma’lumotlar o‘rganiladigan fan (mavzu)ga mos turlarga ajratiladi; turlarga ajratilgan ma’lumotlardan an’anaviy ta’lim jarayonida foydalanish loyihalashtiriladi;

tayyorgarlik bosqichiga tegishli tadqiqot manbayini belgilab olinadi; rejalashtirilayotgan obyektga tegishli o‘rganilganlik darajasini baholanadi; tadqiqot manbayidan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va ularni sinflarga ajratish amalga oshiriladi; tadqiqot manbayidan olingan ma’lumotlar axborotga aylantiriladi; manba bo‘yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishiga tegishli ma’lumotlar bazasi yaratiladi; bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ma’lumotlar bazasidan foydalanishga kirishiladi va shu kabilar.

**2. Rivojlantirish bosqichi.** Bu bosqichda tegishli amallar asosan bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ikkinchi bosqichiga to‘g‘ri keladi va unda quyidagi amallar (operatsiyalar) amalga oshiriladi: shakllantirilgan ma’lumotlar bazasidagi ma’lumotlar o‘rganilayotgan fan (mavzu) maqsad-vazifasini e’tiborga olib, ulardan foydalanish mexanizmini ishlab chiqish; an’anaviy ta’lim mazmuniga ma’lumotlar bazasi integratsiyalanadigan ma’lumotlarni hisobga olgan holdagi innovatsion-integrativ ta’limni loyihalashtirish; innovatsion-integrativ ta’lim uchun foydalaniladigan ma’lumotlar va didaktik materiallar hamda kreativ axborot muhitlaridan olinadigan ma’lumotlarni rejalashtirish va ularni axborot ko‘rinishiga keltirib qo‘yish; yuqoridagi bosqichlar asosida tuzilgan rejaga mos bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid nazariy ishlanmalarning metodologik asoslarini ishlab chiqish; bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodologik asoslaridan umumkasbiy fanlarni o‘qitishda foydalanib ko‘rish va shu kabilar.

**3. Asoslovchi bosqich.** Bu bosqich asosan bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minotini tayyorlashga mo‘ljallangan va bunda quyidagi yo‘nalishdagi ijodiy faoliyatlar ketma-ketligi amalga oshiriladi: nazariy metodologik asoslarni ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish va ulardan ta’lim jarayonini takomillashtirish hamda rivojlantirish manbalarini (fan, mavzu, tushuncha, qonun, qoida va h.k.) belgilab olish; raqamli texnologiyalardan foydalanib bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid elektron platformani ishlab chiqish; elektron platformani ishlab chiqishda ta’lim beruvchi dasturlar, axborot-qidiruv dasturlari va manbani o‘rganishda ulardan integrativ ravishda foydalanishni rejalashtirish; raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda asosiy e’tibor intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlariga qaratiladi va ular asosida bo‘lajak iqtisodchilarni intellektuallashtirilgan kasbiy faoliyatga tayyorlash asosiy e’tiborda bo‘ladi.

**4. Ijodiy bosqich.** Bu bosqich bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning so‘nggi to‘rtinchi bosqichiga mo‘ljallangan bo‘lib, unda bo‘lajak iqti odchi mutaxassislar deyarli kasbiy faoliyatga tayyorlangan bo‘ladi. Bu bosqichda asosan ilmiy-metodik faoliyatda ijod etishga bag‘ishlangan quyidagi ishlar amalga oshiriladi: pedagogik samara beradigan ilmiy-metodik ta’minotni saralash; saralangan ilmiy-metodik ta’minotga tegishli innovatsion metod va texnologiyalarni tanlash, yig‘ish hamda ulardan ommaviy ravishda foydalanishga oid ko‘rsatmalar tayyorlash; bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid innovatsion metod yoki texnologiya mavjud bo‘lmasa, muammoning qo‘yilishi va maqsad-vazifalarini e’tiborga olgan holda yangi innovatsion metod yoki texnologiya ishlab chiqish; ishlab chiqilgan innovatsion metod va texnologiyalardan amaliy faoliyatda keng foydalanishni e’tiborga olib intelektuallashtirilgan o‘qitish tizimlarini ishlab chiqish; ishlab chiqilgan ilmiy-metodik ta’minot va unga mos elektron platforma bo‘yicha olib boriladigan tajriba-sinov ishlarini davom ettirish va ular natijalarini tadqiqot maqsadi nuqtayi nazaridan tahlil qilib chiqish; olingan natijalar bo‘yicha pedagogik samaralarni aniqlash mezonlarini ishlab chiqish; raqamli texnologiyalardan foydalanib bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyat-


ISSN 2181-3841

ga tayyorlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining pedagogik samaralarini aniqlash va baholash hamda ularning joriy qilinishiga yo‘riqnomalar tayyorlash; pedagogik samarali ishlanmalarni amaliyotga joriy etish uchun uslubiy tavsiyalar va ko‘rsatmalar tayyorlash.

Bu qayd etilgan bosqichlar shartli ravishda olingan bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘ladi, ya’ni ularning har biri ikkinchisi uchun propedevtik asos (bosqich) bo‘ladi va ularning mazmuni ham mantiqiy izchillikda olib boriladi. Bu algoritmik ketma-ketlikning ahamiyati shundaki, bunda bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni dinamik tizim negizida olib boriladi.

Demak, biz tomonimizdan olib borilayotgan tadqiqot ishlarimizning algoritmik bosqichlarini bemalol hayotiy va istiqbolli deb aytishimiz mumkin.

Yuqorida qayd etilgan bosqichlar dinamik tarzda mazmun jihatdan ham, murakkablik darajasi bo‘yicha ham, ilmiy-metodik jihatdan ham va dasturiy-metodik jihatlardan ham bir-birini qo‘llab-quvvatlab (to‘ldirib, boyitib va mukammallashtirib) boradi. Shuning uchun ham mazkur tadqiqot ishida tadqiqot obyekti va muammoning qo‘yilishini (tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda ishchi farazini) e’tiborga olgan holda unga oid vazifalarni belgilab olishga to‘g‘ri keladi. Bunda asosan bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarning 4 yil davomida tahsil olishidagi strategiya e’tiborga olinadi. Bu yerda strategiya deganda raqamli texnologiyalardan foydalanib bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning elektron platformasini yaratish, 4 yilga mo‘ljallangan ijodiy ishlarni amalga oshirish jarayonining qat’iy qoidasi (ketma-ketligi) tushuniladi. Bunday deyishimizga sabab strategiyalar tadqiqotchilardagi izlanish olib borish uchun qonun-qoidalar mavjudligi va ulardan foydalanish xohishini ro‘yobga chiqaradigan jarayonni ifodalaydi.

Demak, bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi strategiya deb, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan asosiy harakatlarning uzoq muddatli (rejalashtirilgan) dasturga aytiladi.

Shuning bilan birga belgilab (asoslanib) olingan strategiyaning har bir qadamida (bosqichida) faoliyatga oid taktikalar ham e’tiborga olinadi.

***Demak, bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning elektron platformasini yaratishning strategiyasini quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin:***

- ***bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tayyorgarlik bosqichi maqsad vazifasi va mazmun-mohiyati aniqlab olinadi va unga mos bajariladigan sa’y-harakatlar rejalashtiriladi;***
- ***bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislar ongiga iqtisodiyotning jamiyat va davlat taraqqiyotidagi hamda oila farovonligidagi ahamiyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni singdirishga oid ma’lumotlar to‘planadi;***
- ***iqtisodiyotning amaliy faoliyatidagi o‘rni va rolini tavsiflab beruvchi maxsus shakl ishlab chiqiladi va ulardan bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning elektron platformasidan foydalanishning mexanizmi ishlab chiqiladi;***
- ***bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi har bir bosqichning biridan ikkinchisiga o‘tishni aniqlash mezoni ishlab chiqiladi va ular asosida xulosalar hamda keyingi bosqichga tavsiyalar shakllantiriladi;***
- ***to‘rtinchi bosqich yakunida bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishga oid ishlab chiqilgan elektron platformaning amaliy ahamiyati baholanadi;***

***• tadqiqot yakunida elektron platformani takomillashtirish bo'yicha olingan natijalarning tadqiqot maqsadi va ishchi farazni adekvat ravishda tasdiqlashi ekspertiza qilinadi;***

***• tadqiqot davomida olingan natijalar ilmiy-amaliy jihatdan xulosalanadi, ya'ni pedagogik samaradorlik aniqlanadi va baholanadi;***

***• shakllantirilgan xulosalar va erishilgan natijalarga asoslangan holda bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni yanada takomillashtirishga oid tavsiya va takliflar ishlab chiqiladi.***

Bu belgilab olingan strategiya bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning elektron platformasini yaratish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning optimal variantlaridan birini qo'lga kiritishda muhim ko'rsatmaviy-didaktik asos bo'la oladi. Endi bularni e'tiborga olgan holda yuqorida qayd etilgan to'rtala bosqich bo'yicha ham maqsad-vazifalar va mazmun-mohiyatni aniqlash mumkin bo'ladi.




**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. С.Ю.Ашурова Профессионалная компетентност как обект осенки // Молодой ученый. – 2012. — № 4. – С. 414-417.
2. O.N.Tagayev, Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning algoritmik tahlili.// Urganch davlat universiteti. "Ilm sarchashmalari" ilmiy-nazariy, metodik jurnal 10/2023.
3. O.N.Tagayev, Iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish.//Jizzax davlat pedagogika universiteti. "Tafakkur ziyosi" 4/2023 ilmiy uslubiy jurnal.
4. O.N.Tagayev, O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish.//Monografiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali 2021-yil 26-noyabrdagi № 4-sonli Kengash qarori bilan nashrga tavsiya etilgan."Navro'z" nashriyoti 2022.
5. C.Ю.Tagayev, Oliy ta'lim tizimida bo'lajak iqtisodchilarga raqamli texnologiyalar sohasini o'qitishning o'ziga xosligi.//"Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari" Xalqaro ilmiy-texnik konferensiya O'zMU JF, 2023-yil 13-oktabr; E-mail: uzmujf_konf@inbox.ru.

# UZLUKSIZ TA’LIM VA KASBIY RIVOJLANISHNI TA’MINLASH MAQSADIDA PEDAGOG KASBIY MAHORATINI BAHOLASHNI RIVOJLANTIRISH

**Xalimov Zafar Xatamovich,**
Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o‘quv amaliy markazi bosh mutaxassisi, “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagog kadrlarni uzluksiz malakasini oshirish, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilingan. Mazkur sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar ko‘rib chiqilib, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari, shuningdek, sohadagi mavjud muammolar keltirib o‘tilgan.
**Kalit so‘zlar:** pedagog, kasbiy rivojlanish, malaka oshirish, pedagogik va kasbiy kompetensiya, bilim, ko‘nikma va malaka.

**Аннотация:** В данной статье проанализировано непрерывное повышение квалификации педагогических кадров, приоритеты проводимой в этом направлении государственной политики. Были рассмотрены нормативно-правовые основы, регулирующие данную сферу, обозначены приоритетные направления повышения профессионального мастерства педагогов, а также существующие проблемы в этой сфере.
**Ключевые слова:** педагог, профессиональное развитие, повышение квалификации, педагогическая и профессиональная компетентность, знания, умения и навыки.

**Annotation:** This article analyzes the continuous training of pedagogical personnel, the priorities of the state policy carried out in this direction. The regulatory framework governing this area has been considered, priority areas for improving the professional skills of educators, as well as existing problems in the area.
**Key words:** pedagogical, professional development, professional development, pedagogical and professional competence, knowledge, skills and competence.

**Kirish.** Bugungi kunda “O‘zbekistonda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori asosida pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish maqsadida imtihonlar tashkil etib kelinmoqda[9]. Pedagogik kompetensiyani baholash ta’lim tizimida baholash(assessment)ning asl mohiyati tushunilmagani uchun muhim jarayon deb hisoblanmaydi. So‘nggi paytlarda ta’limda o‘quvchilarning yutuqlarini baholash ta’lim berishdan ham muhim vazifa etib belgilangan. Aslida, o‘qituvchilarning malakasi va faoliyatini baholash ta’lim berish vazifasining o‘zi kabi muhimdir [4]. Pedagoglar talabalarning muvaffaqiyatga erishishlarida ta’sir qiluvchi hisoblanadi. Bundan tashqari, ta’lim berishda muhim vazifa bajaruvchi o‘qituvchilarning jamiyatning ijtimoiy o‘zgarishlarida hissasi nihoyatda katta hisoblanadi [12].

**Muhokama va tahlil**

“Pedagoglar kasbiy mahoratini baholash nafaqat ularning o‘qitiladigan materialni qay darajada o‘zlashtirganini bilish, balki o‘qituvchining mustaqil rivojlanishini rag‘batlantirish hamdir [17]. Qolaversa, baholash natijalari o‘qituvchilarning malakasini oshirish yoki oshirmaslikka qaror qabul qilishga ham asos bo‘ladi”. Ayni paytda amaldagi attes-

tatsiyadan o‘tkazish imtihonida pedagogning mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida 40 ta test topshirig‘i va pedagogik mahoratni aniqlash maqsadida ilg‘or pedagogik uslub va texnologiyalarni (“case study” uslubi, loyihalar uslubi, hamkorlikda o‘qitish [18], “amaliy o‘yin”, interaktiv ta’lim uslubi va boshqalar) qo‘llash bo‘yicha 10 ta topshiriq [10] pedagogning kasbiy mahoratini baholashni butunlay qamrab olmaydi. Aslida pedagogik kompetensiyalarni baholashda tatbiq qilinishi mumkin bo‘lgan yangicha tizimlar ta’lim sifatini oshirishga salmoqli hissa qo‘shadi.

Xalqaro miqyosda o‘qituvchining malakasini baholashga qiziqish ta’limda sifatga erishish talabining ortganligi va o‘qituvchilik kasbining sharafli kasb sifatida tan olinishi hisobiga ortib bormoqda [14]. O‘qituvchilik kasbi inson hayotini rivojlantirishda muhim o‘rin va rolga ega bo‘lgan kasb sifatida qabul qilinmoqda. Jamiyatda o‘qituvchi rolining muhimligi o‘qituvchi kasbiy mahoratiga yuqori talablarni keltirib chiqarmoqda. O‘qituvchilarning malakasini baholash ularning kasbiy mahorati sifatini bilishning bir usuli hisoblanadi. Turli mamlakatlar, jumladan, O‘zbekistonda o‘qituvchilar malakasini baholash sifatida pedagog kadrlar attestatsiyadan o‘tkaziladi. Besh yuz mingdan ko‘p o‘qituvchisi bo‘lgan O‘zbekistonda ham kompetensiyani baholashga qaratilgan imtihonlar tashkil etish oson ish emas. Yana bir muammo nafaqat oson bo‘lmagan baholashni amalga oshirish, balki attestatsiya natijalarini tahlil qilish hamdir. Ommaviy attestatsiyada ko‘p sonli o‘qituvchilar uchun imtihonlar tashkil etish, test natijalarini tahlil qilish murakkab vazifalardir.

**O‘zbekistonda kompetensiyaga asoslangan malaka imtihonlari tashkil etilganda qanday talablarga javob berishi muhimligi quyidagi savollarga javob izlash orqali tadqiq etiladi:**

**1) Pedagoglarning malaka imtihonining maqsadlari nimadan iborat?**

**2) Pedagoglarning malaka imtihonida qanday kompetensiyalar o‘lchanadi?**

**3) Pedagoglarning malaka imtihonida qanday savollar qo‘llaniladi?**

**4) Pedagoglarning malaka testi qanday tuzilishi kerak?**

**5) Pedagoglarning malaka imtihonlari natijasi kelgusida qanday harakatlarni keltirib chiqaradi?**

**6) Pedagoglarning malaka imtihoni kasbiy rivojlanishda qanday vazifa bajaradi?**

**7) O‘qituvchilarning malaka sinovlarini o‘tkazish uchun qanday dasturlar ishlab chiqilgan?**

**8) O‘qituvchining malakasini oshirishda yangi dasturdan qanday natijalar kutiladi?**

Uzluksiz ta’lim tanlov yoki imkoniyat emas, balki o‘sib borayotgan inson ehtiyojlarining muammolarini hal qilish zarurati [5]. O‘qituvchilar ta’limning asosiy tarkibiy qismi sifatida o‘zlarini yangi bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirishni talab qiladigan yangi muammolar va o‘zgarishlarga duch kelishadi [8]. O‘qituvchilarning kasbiy mahorati texnika, fan, san’at taraqqiyoti, jamiyat va davr taraqqiyotiga mutanosib bo‘lishi kerak. O‘z ustida ishlayotgan o‘qituvchilar uzluksiz ta’limni amalga oshirish hisobiga insoniyat sivilizatsiyasini yaxshiroq yo‘nalishda qurish katalizatori sifatida qatnashishi mumkin.

“O‘qituvchining ish qobiliyati va kasbiy mahoratini baholash o‘qituvchi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan harakatlar va faoliyat tarzida amalga oshirilishi kerak. O‘qituvchining malakasini baholash nafaqat o‘qituvchilarning o‘qitiladigan materialni qay darajada o‘zlashtirganini aniqlash, balki o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishini rag‘batlantirishdir” [17].

**Pedagoglarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash quyidagilarga imkon beradi:**

- **Pedagoglarning kasbiy vazifalarini bajarishda faoliyat samaradorligini oshirish (takomillashtirish vazifasida);**
- **Pedagoglarning ta’lim berishda o‘quvchilarning bilim olishlarini**


ISSN 2181-3841

**rivojlantirish (hisobdorlik vazifasida).**

Pedagog o‘qituvchiga vazifa sifatida qo‘yilgan talablarga qanchalik javob berish bermasligini tekshirmaslik, ya’ni baholamaslik o‘qituvchining o‘z ustida ishlamasligiga va rivojlanishga harakat qilmasligiga olib keladi. Faqatgina o‘z ustida ishlashni davom ettirayotgan o‘qituvchilardangina butun umri davomida jamiyat va atrof-muhitga foydasi tegishi mumkin bo‘lgan avlod yetishib chiqishi mumkin.

“O‘qituvchining malaka samaradorligini aniqlash va statistikasini hisoblash va xaritalash turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin, jumladan: imtihon qilish, malaka oshirish kursini o‘zlashtirish, faoliyatini kuzatish, portfolio va natijadorligi misolida” [17] va hokazo. Respublika miqyosida o‘qituvchilarning kompetensiyalarini baholash uchun testlar o‘tkazish yaxshi yechimdir. O‘qituvchining malakasi haqida aniq tasavvurlarga testlar o‘tkazish orqali ega bo‘lish mumkin. Bu borada standartlashtirilgan testlar aniq va hisobdor natijalarini beradi. O‘qituvchining malakasini baholash uning qanday kompetensiyalarini baholash aniq ko‘zda tutilganini talab qiladi [14]. Umuman olganda, odamlar kompetensiyaning ma’nosi haqida allaqachon tasavvurga ega bo‘lsalar ham, lekin aslida kompetensiya keng va xilma-xil ma’noli termindir [16].

Mutaxassislar pedagoglarning malakasini turlicha izohlaydilar. O‘qituvchining malakasi – bu ta’lim olishni osonlashtiradigan qobiliyatlar yig‘indisidir [3]. O‘qituvchi kompetensiyasi nafaqat pedagogik kompetensiyaning, balki kasbiy kompetensiyaning ham ko‘p qirrali tuzilishidir [2]. O‘qituvchi kompetensiyasiga quyidagilar kiradi: pedagogik kompetensiya, fan-didaktik kompetensiya, pedagogik-tashkiliy kompetensiya va o‘z-o‘zini aks ettirish kompetensiyasi [13] deb hisoblaganda va Carreker & Boulware “O‘qituvchilarning to‘rtta shaxsiy kompetensiyasi bor, ya’ni: kognitiv kompetensiya, metakognitiv kompetensiya, motivatsion kompetensiya va hissiy / ijtimoiy

| Aspekt | O‘qituvchidan talab qilinadigan bilim, malaka va ko‘nikmalar |
|---|---|
| **Pedagogik kompetensiya** | *• O‘quvchilarning jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ijtimoiy, madaniy, hissiy va intellektual xususiyatlarini o‘zlashtirgan bo‘lishi.*<br>*• Ta’lim nazariyalari va ta’lim tamoyillarini o‘zlashtirgan bo‘lishi.*<br>*• O‘qitadigan fani bo‘yicha tuzilgan o‘quv dasturini o‘z faoliyati uchun rivojlantira olishi.*<br>*• Ta’lim va tarbiya muhitini tashkil etishi.*<br>*• Ta’lim berish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalana olishi.*<br>*• Turli potensiallarni ro‘yobga chiqarish uchun potensial salohiyatli o‘quvchilarning rivojlanishiga yordam berish.*<br>*• O‘quvchilar bilan ularning nimani his qilishlarini hisobga olgan holda, samarali va yaxshi xulq egasi sifatida muloqot qila olish.*<br>*• O‘quv jarayonlari va natijalarini to‘g‘ri tahlil qila olish va baholashni to‘g‘ri tashkil eta olish.*<br>*• Kasbiy faoliyatida baholash natijalaridan foydalanishi.*<br>*• Ta’lim sifatini yaxshilashda aks etuvchi mulohazalar yuritish.* |
| **Kasbiy kompetensiya** | *• O‘qitadigan fani va faoliyati bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi.*<br>*• O‘qitiladigan fanlar-malakalar to‘plamining kompetensiya standartini o‘zlashtirgan bo‘lishi.*<br>*• O‘qitiladigan o‘quv materiallarini ishlab chiqishda ijodiy yondashishi.*<br>*• Kasbiy faoliyatida barqaror rivojlanishni aks ettiruvchi harakatlarni amalga oshirishi.*<br>*• Muloqot qilish va o‘zini rivojlantirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanishi.* |

kompetensiya" deydi [3]. Ushbu kompetensiyalar o'qituvchining malakasini baholashda baholashning yo'nalishini aniqlik bilan tanlashni talab qiladi.

Kompetensiyaga asoslangan baholash natijalarining hisobi (xaritasi) o'qituvchilarning sifatli malaka oshirish dasturi dasturini tayyorlash uchun asos sifatida zarur. Aniq hisob-kitob va tahlillarsiz ishlab chiqilgan treninglar va malaka oshirish kurslari ko'p hollarda o'zini oqlamaydi [15]. Ko'pgina dasturlar aniq ehtiyojlar va tahlilisiz amalga oshiriladi [6]. Bu keyinchalik malaka oshirish kursining samarasiz bo'lishiga olib keladi.

Bilim, malaka va ko'nikmani rivojlantirishga asoslangan malaka oshirish kurslari hozir ta'lim qatnashchilari o'rtasida ommalashib bormoqda [1]. O'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kompetensiyaga asoslangan treninglar juda zarur. O'qituvchilarning o'quv faoliyatida yetarlicha imkoniyatlar bilan ishtirok etishi kasbiy rivojlanish uchun juda muhimdir [7]. Malaka oshirish mashg'ulotlari orqali o'qituvchilarning kasbiy kompetensiya standartlariga javob bermagan ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Pedagoglarning attestatsiya imtihoni ularning kasbiy rivojlanish ehtiyojlariga muvofiq o'quv dasturlarini tayyorlash va amalga oshirish uchun zarur ma'lumotlarni bera olishi kerak [18].

Sinovdan o'tgan pedagogik kompetensiya – bu pedagogik konsepsiyani o'quv jarayoniga kiritishda ta'lim sohasida integratsiyalashuvdir.

Quyidagi kompetensiyalarga bugungi kun pedagogining kasbiy mahoratini tekshirishda alohida e'tibor qaratilishi zarur deb hisoblanadi:

**Xulosa**. Ta'limda baholash bo'yicha izlanishlar, o'rganishlar va muhokamalar asosan ta'lim natijalarini baholashda olib boriladi, o'qituvchilarning malakasini baholash va tahlil qilish esa kamdan-kam hollarda muhokama qilinadi. Bu e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan zarur sohadir, chunki o'qituvchilar malaka attestatsiyasidan o'tkazilishi ularning faoliyatini baholashning muhim qismi hisoblanadi.

Kompetensiyaga asoslangan sifatli malaka oshirish kurslari va treninglar o'qituvchining malakasini to'g'ri baholashga bo'lgan ehtiyojni ham oshiradi. Ushbu baholash natijalari o'qituvchining kasbiy faoliyatida maqsadli qarorlar chiqazish uchun foydalidir. Pedagogning faoliyatiga to'g'ri baho berish baholash orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, o'qituvchi faoliyatining samaradorligini o'lchash o'qituvchining o'zini rivojlantirish kabi muhimdir [4]. Shuning uchun pedagogning e'tibori nafaqat o'quvchilarning bilim o'zlashtirishlari va yutuqlarga erishishlariga emas, balki kasbiy pedagogik kompetensiyalarni o'zlashtirishga ham qaratilgan bo'lishi kerak.

Test natijalari milliy, viloyatlar kesimida va individual o'qituvchining malakasi profilini taqdim etadi va o'qituvchilar malakasini oshirish dasturini tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Aniq tahlillar asosida o'tkazilgan o'qituvchilarning malakasini oshirish dasturlari barqaror kasbiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun ham muhimdir [18].

O'qituvchilar malakasini oshirishning sifatli dasturi, o'tkazilgan kompetensiyaga asoslangan attestatsiya imtihonlari natijalari bo'yicha va past kompetensiyaga asoslangan o'qituvchilarning malakasini oshirishdan tashqari, o'qituvchilarni o'qib o'rganishda davom etadigan kadr bo'lishiga undashi mumkin. Ustozlar ilm-fan ehtiyojlari va rivojlanishiga ko'ra, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish va har bir o'quvchini faol o'rganuvchi bo'lishiga ilhomlantirishi uchun kasbiy kompetensiyalarni yangilashda davom etishi zarur.


ISSN 2181-3841



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Acquah, P. C., Frimpong, E. B., & Borkloe, K. J. (2017). THE COMPETENCY BASED TRAINING (CBT) CONCEPT OF TEACHING AND LEARNING IN THE TECHNICAL UNIVERSITIES IN GHANA: CHALLENGES AND THE WAY FORWARD . Asia Pacific Journal of Contemporary Education and Communication Technology, 172-182.
2. Baumert, J., & Kunter, M. (1 January 2006 г.). The COACTIV Model of Teachers' Professional Competence. Springer Nature, 8, 25-48. Получено из https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-1-4614-5149-5_2.
3. Carreker, S., & Boulware, R. (2015). Through the Eyes of the Classroom Teacher. Philadelphia: Center on Innovations in Learning. Получено из www.adi.org.
4. Darling-Hammond, L. (October 2010 г.). Evaluating Teacher Effectiveness. Получено из Center for American Progress: https://cdn.americanprogress.org/wp-content/uploads/issues/2010/10/pdf/teacher_effectiveness.pdf.
5. Donaldson, G., Grahovac, M., Kirandžiska, S., Jelić, M., Milić, S., Miljević, G., . . . Vranješević, J. (2013). TEACHING PROFESSION FOR THE 21ST CENTURY. Belgrade: Centre for Education Policy.
6. Goldstein, I. L., & Ford, J. K. (б.д.).
7. Haddouchane, Z. A., Ajana, S., Gassem, K., & Bakkali, S. (1 March 2017 г.). The Application of the Competency Based Approach to Assess the Training and Employment Adequacy Problem. International Journal of Education, 5(1). doi:http://dx.doi.org/10.5121/ije.2017.5101.
8. Kabadayi, A. (June 2016 г.). A Suggested In-service Training Model Based on Turkish Preschool Teachersí Conceptions for Sustainable Development. Journal of Teacher Education for Sustainability, 18(1), 5-15. doi:https://doi.org/10.1515/jtes-2016-0001.
9. Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. (17 Sentyabr 2021 г.). Получено из lex uz: https://lex.uz/docs/-5641270.
10. O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. (10 Oktyabr 2024 г.). Получено из Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish 2024-yil 29-oktyabr kuni boshlanadi: https://gov.uz/oz/uzedu/news/view/25056.
11. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (10 Oktyabr 2024 г.). Получено из Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish 2024-yil 29-oktyabr kuni boshlanadi: https://gov.uz/oz/uzedu/news/view/25056.
12. Okeke, C. I., & Pamela, M. N. (16 June 2017 г.). Teacher Job Dissatisfaction: Implications for Teacher Sustainability and Social Transformation. Journal of Teacher Education for Sustainability, 19(1), 54-68. doi:https://doi.org/10.1515/jtes-2017-0004.
13. Redding, S. (2014). Personal Competencies in Personalized Learning. Center on Innovations in Learning. Получено из https://eric.ed.gov/?id=ED558063.
14. Roelofs, E., & Sanders, P. (2007). Towards a framework for assessing teacher competence. European Journal of Vocational Training(40), 123-139. Получено из www.cedefop.europa.eu/files/40-en.pdf

# KASBIY TA'LIMDA INFOKOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNING GLOBAL TENDENSIYALARI

**Ravshanov Bexruz Xasanovich,**
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida ta'limni modernizatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali jismoniy tarbiya yo'riqchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi bayon etilgan. Professional ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida o'quvchilar axborot texnologiya vositasi asosida kasbiy rivojlanishi, kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil yechishga, uni ta'lim jarayonida qo'llashga qodir mutaxassis bo'lib tayyorlanadi. Shu bois ushbu maqola sohadagi muammolar yechimi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Infokommunikatsiya, valeologiya, neyro-psixofiziologik, fiziologik, sensorimotor, virtual realnost, gamifikatsiya, wearable devices, smart watches, platforma.

**Аннотация:** В данной статье описана методология модернизации образования в области физического воспитания и спорта и развития профессиональной компетентности инструкторов физического воспитания посредством использования цифровых технологий. В образовательном процессе профессиональных образовательных учреждений студенты готовятся стать специалистами, обладая знаниями, навыками и квалификацией, приобретенными в образовательном процессе, самостоятельно решать проблемы, возникающие в их профессиональном развитии, на основе инструментов информационных технологий. Поэтому данная статья направлена на решение следующих проблем.

**Ключевые слова:** Инфокоммуникации, валеология, нервно-психофизиологические, физиологические, сенсомоторные, виртуальная реальность, геймификация, носимые устройства, умные часы, платформы.

**Annotation:** This article describes the methodology of modernizing education in the field of physical education and sports and developing the professional competence of physical education instructors through the use of digital technologies. In the educational process of professional educational institutions, students are prepared to become specialists with the knowledge, skills and qualifications acquired in the educational process, to independently solve problems that arise in their professional development based on information technology tools. Therefore, this article is aimed as a solution to the following problems.

**Key words:** Infocommunication, valeology, neuro-psychophysiological, physiological, sensorimotor, Virtual reality, Gamification, wearable devices, smart watches, platform.

Respublikamizda globallashuv jarayoni integratsiyasi sport sanoati uchun axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni talab qiladigan yangi ustuvor vazifalarni belgiladi. Shu bois jismoniy tarbiya yo'riqchisi yo'nalishi o'quvchilarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish bo'yicha mutaxassis sifatida tayyorlash sifatini oshirish hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Xorijiy olimlarning ta'kidlashicha, jismoniy tarbiya yo'riqchilari, murabbiylar, sport hakamlari va boshqa shu kabi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida jismoniy tarbiya, sportning bir nechta turi bo'yicha o'quv jarayonida axborot texnologiya vositalaridan


ISSN 2181-3841

foydalanish masalalari dolzarbligini aytib o‘tishgan.

MDH olimlarining qarashlarida esa jismoniy faollikni optimallashtirish masalalari kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda adaptiv holatning individual diagnostikasi asosida ko‘rib chiqiladi, mazkur bildirilgan fikrga ko‘ra, jismoniy va adaptiv madaniyat nazariyasi va metodologiyasi, sport mashg‘ulotlari, psixofiziologiya, pedagogik valeologiya va sport tibbiyotida qiziqish uyg‘otadi. Quyidagi tadqiqotlar ortida sog‘liqni saqlash infratuzilmasining pedagogik modeli taqdim etilgan bo‘lib, u insonning harakat faoliyatini rivojlantirish trayektoriyasini shakllantirish va sog‘lom turmush tarzi asoslarini singdirish uchun tashkiliy-pedagogik va ijtimoiy sharoitlar majmuyini belgilaydi. Mualliflar, shuningdek, shaxsning moslashuvchan holati darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni (neyro-psixofiziologik, fiziologik, sensorimotor) har tomonlama baholash uchun mo‘ljallangan tizimli tadqiqot modellarini ishlab chiqqanlar.

Soha mutaxassislarining ta’kidlashicha bugungi kunda axborotni qo‘llab-quvvatlashning an’anaviy shakllari mutlaqo yetarli emas, chunki amaliy natijalarga erishish va eng qisqa vaqt ichida dolzarb muammolarni hal qilish uchun tashkiliy, ilmiy, texnik va iqtisodiy kuch va vositalarni birlashtirish zarur. Shu bois, axborot tizimlari va jarayonlarining qo‘llanilishini ishlab chiqish va tashkil etish, boshqaruvning turli darajalarida qarorlar qabul qilishda axborot texnologiyalari va tizimlaridan foydalanishga yangi yondashuvlar talab etiladi.




Jismoniy tarbiya sohasida masofaviy ta’lim va onlayn platformalar yordamida o‘quvchilarni tayyorlashning ahamiyati ortmoqda. Hozirgi kunda onlayn kurslar va videodarslar orqali o‘quvchilar jismoniy tarbiya va sportni o‘rganish imkoniyatiga ega. Masalan, sport sohasidagi o‘qituvchilar onlayn treninglar, vebinarlar va video konsultatsiyalar orqali o‘quvchilarni o‘qitishmoqda. Masofaviy ta’lim, ayniqsa, uzoq hududlarda yashovchi o‘quvchilar uchun jismoniy tarbiya bo‘yicha bilimlarni olishda samarali vositaga aylanmoqda.

Virtual realnost (VR) va kengaytirilgan realnost (AR) texnologiyalari jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. AR va VR yordamida sportchilar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari virtual muhitda turli xil sport mashqlari va strategiyalarni o‘rganishlari mumkin. Misol uchun:

- VR yordamida sportchilarga texnik mashqlarni virtual ravishda ko‘rsatish va ularni yaxshilash,

- AR yordamida sportchilar o‘z jismoniy holatlarini real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish,

- Virtual realnost orqali jismoniy tarbiya darslarida turli xil sport o‘yinlarini sinovdan o‘tkazish.

IKT yordamida jismoniy tarbiya sohasida sportchilarni tayyorlashda raqamli monitoring va tahlil vositalari keng qo‘llanilmoqda. Bu vositalar orqali sportchilarning jismoniy

holatini va natijalarini real vaqt rejimida kuzatish mumkin. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari va murabbiylar sportchilarning natijalarini tahlil qilish, ularning kuchini, tezligini, chidamliligini va texnik ko'nikmalarini o'rganish uchun raqamli asbob-uskunalardan foydalanmoqda. Sportdagi yutuqlarni o'lchash va optimallashtirish uchun bu texnologiyalar juda muhim ahamiyatga ega.

Onlayn sport treninglari yordamida jismoniy tarbiya yo'riqchisi mutaxassislarini tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Onlayn treninglar, video mashg'ulotlar va interaktiv platformalar yordamida sportchilar va o'quvchilarga masofaviy ta'lim olish imkoniyati yaratilmoqda. Bu jarayon jismoniy tarbiya sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun samarali vosita hisoblanadi.

Gamifikatsiya — ta'lim jarayonini o'yin elementlari bilan boyitish, o'quvchilarga motivatsiya berish va ularni o'rganishga qiziqtirish usuli sifatida jismoniy tarbiya yo'riqchisi mutaxassislarini tayyorlashda keng qo'llanilmoqda. Gamifikatsiya elementlari orqali o'quvchilar mashqlarni bajarishda yoki sport o'yinlarida mukofotlar, ballar va reytinglar orqali rag'batlantiriladi. Bu metod sportchilarni qiziqtiradi, ularning o'rganish jarayonini osonlashtiradi va samarali qiladi.

Jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashda sport tibbiyoti va sog'liqni saqlash texnologiyalarining integratsiyasi rivojlanmoqda. Bu sohada wearable devices (kiyimda taqiladigan qurilmalar) va smart watches (aqlli soatlar) orqali sportchilarning jismoniy faoliyatlarini kuzatish va o'rganish mumkin. Sportchilarni tayyorlashda ular tomonidan o'lchangan ma'lumotlar (masalan, yurak urish tezligi, harakat tezligi, kaloriyalar) tahlil qilinib, individual trening rejalari tuziladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun raqamli resurslar va o'qitish platformalarining rivojlanishi jismoniy tarbiya yo'riqchisi mutaxassisini tayyorlashda samarali yondashuvlarni taqdim etadi. Pedagogik platformalar orqali o'qituvchilar trening metodikasini yaratish, o'quvchilarga individual yondashuvlar va o'quv rejalari tuzish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu tizimlar o'qituvchilarga o'z ishlarini takomillashtirish va o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish imkoniyatini yaratadi.

Sun'iy intellektdan (SI) sportchilarni tayyorlash jarayonini optimallashtirishda foydalanilmoqda. SI algoritmlari yordamida jismoniy tarbiya sohasida sportchilarning mashg'ulotlarini optimallashtirish, ularning fizikal holatini tahlil qilish va individual trening rejalari yaratish mumkin. SI orqali o'quvchilarga tayyorlov dasturlari va mashg'ulotlarni moslashtirish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish imkoniyati mavjud.

Jismoniy tarbiya yo'riqchisi mutaxassislarini tayyorlashda, sport psixologiyasini o'rganishda ham AKT vositalaridan foydalanish keng tarqalmoqda. Masalan, sportchilarning ruhiy holatini tahlil qilish, psixologik mashqlarni onlayn rejimda bajarish va videokonsultatsiyalar orqali psixologik yordam ko'rsatish mumkin. Bu jarayon sportchilarning stressni yengish, o'ziga motivatsiya berish va raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

> ***Jismoniy tarbiya darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar salomatligini saqlash va mustahkamlashdir. Inson salomatligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sog'lom turmush tarzi bo'lib, uning barcha jihatlarini yoshlik davrida o'zlashtirish keyinchalik kattalarning turmush tarzini shakllantirishdan iboratdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun S.V.Guryev an'anaviy jismoniy tarbiya usullari bilan birgalikda kompyuterdan foydalangan holda katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodologiyasini taklif qiladi.***


ISSN 2181-3841



***S.V.Guryev jismoniy tarbiya tizimida AKT vositalari imkoniyatlarini joriy etish zarurligini qayd etib, axborot texnologiyalardan foydalanish sharoitida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash konsepsiyasini ishlab chiqish; yangi avlodning malaka tavsiflari va davlat ta'lim standartlariga kiritish uchun jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini axborotga tayyorlashga qo'yiladigan talablarni shakllantirish; jismoniy tarbiya va sport bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning kasbiy yo'nalishini hisobga olgan holda o'quv jarayonini ta'minlash uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalarini, shu jumladan elektron shaklda tayyorlash; jismoniy tarbiya va sport oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining axborot-texnologiya vositalaridan foydalanish sohasida tizimli ravishda malakasini oshirish; jismoniy tarbiya muassasalarini tegishli texnik vositalar va kommunikatsiyalar bilan jihozlash kerakligini ta'kidlaydi.***

Bugungi kunda jamiyatni jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori sifatli texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoji bilan axborot texnologiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi va ulardan jismoniy tarbiyada, xususan, darsdan tashqari soatlarda, sog'liqni saqlash bo'yicha maslahatlar tashkil etish jarayonida foydalanish o'rtasida muammo mavjud. Axborot texnologiya vositalaridan nafaqat ma'lumotlarni qidirish va saqlash, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirish, monitoring qilish va boshqarish muammolarini hal qilishda emas, balki jalb qilinganlarning sog'lig'i va jismoniy tayyorgarligi darajasini diagnostika qilish, jamoalarni tanlash va jalb qilish, sportchilarni tayyorlash uchun ham foydalanish kerak. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya darslarida intellektual, ijtimoiy-psixologik va harakat komponentlari o'rtasidagi munosabatlarni amalga oshirish, sog'lom turmush tarziga munosabatni shakllantirish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanish zarur.

Tadqiqotchining axborot vositalari o'quv jarayonini yangi, yuqori darajada tashkil etish, o'quv materialini to'liqroq o'zlashtirishni ta'minlash va shu bilan inson shaxsini rivojlantirishga hissa qo'shish imkonini beradi, degan fikri maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, sport mashqlarini modellashtirishda matematik usullardan foydalanish kerakli yechimni tezroq va samaraliroq topish imkonini beradi.

Zamonaviy mutaxassislarni tayyorlash jarayonida infokommunikatsiya o'quv vositalarini qo'llash pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Bu dastur o'quvchiga o'quv mashqlari majmuasini bajarishni taklif qiladi, ularning bajarilishini baholaydi, maslahatlar, odatiy xatolarni tushuntirish va tegishli nazariy materialni taqdim etish shaklida tezkor yordam beradi. Dasturdan foydalanish o'quvchilarga materialni mashq qilish uchun ko'proq vaqt beradi, ularga chuqurroq bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish va sifatini oshirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, o'qitish uchun ajratilgan vaqt davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan individual ishlashga ko'proq vaqt ajratishi va o'rganilayotgan materialni yaxshiroq tushunishga yordam berishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport darslarining




gan darajada foydalanishga imkon bermaydi, chunki "Jismoniy tarbiya" fanini o'qitish va o'quv-jarayon mashg'ulotlarini o'tkazishning asosiy yo'nalishi jismoniy faollikdir. Shu munosabat bilan jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida kompyuter bilan interfeysli vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ta'limda ushbu turdagi eng mashhur va keng qo'llaniladigan qurilmalardan biri mobil ilovalardir. Mobil ilovalar uchun maxsus dasturiy ta'minot matn va obyektlar, audio va video materiallar, internet resurslari bilan ishlash, ochiq hujjatlar ustiga to'g'ridan to'g'ri qo'lda yozilgan yozuvlar yozish va ma'lumotlarni saqlash imkonini beradi. Mobil ilovadan foydalanib, siz sport o'yinlari qoidalarini tahlil qilishingiz, raqibingiz o'yinining taktikasini ko'rib chiqishingiz, o'zingizning harakat taktikangizni va strategiyangizni aniqlashingiz mumkin va hokazo.

Ta'kidlash joizki, yuqoridagilarni amalga oshirish uchun axborot kommunikatsiya vositalarini chuqur o'rganish va ulardan kelajakdagi kasbiy faoliyatda foydalanish sohasida maxsus tayyorgarlikdan o'tish zarur. Shu munosabat bilan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda tayanch ta'lim dasturiga o'quvchilarning o'qitish, murabbiylik va ilmiy tadqiqot faoliyati sohasidagi umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan fanlar kiritilishi kerak. Bundan tashqari, ushbu fanlar bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy mashg'ulotlarning kiritilishi majburiy shart bo'lib, o'quvchilarning o'quv va kelajakdagi kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya yo'riqchilarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish loyiha usulining pedagogik va didaktik funksiyalarini to'liq ochib berishga va unga xos bo'lgan potensial imkoniyatlarni amalga oshirishga imkon beradi. Jismoniy tarbiya darslarida axborot va dizayn texnologiyalarini samarali integratsiyalash o'quvchining individualligini, uning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam beradi hamda dasturiy ta'minotning yangi avlodi (multimedia, gipermedia, internet texnologiyalari asosida) paydo bo'lishi kadrlarni jismoniy tarbiya va sport sohasida ishlashga tayyorlash, ularning infokommunikatsion vositalardan foydalanish malakasini oshirishga yangicha yondashuvlarni taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. L.X.Gaffarov O'quvchilar davomatini nazorat qiluvchi mobil ilova ishlab chiqish texnologiyasi // educational research in universal sciences. - 2024. - т. 3. - №. 3. - c. 251-254.
2. L.X.Gaffarov, J.S.Qalandarov Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini individuallashtirishning tashkiliy jihatlari //educational research in universal sciences.-2024.-T.3.-№. 1. - c. 147-151.
3. B.X.Ravshanov Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashda infokommunikatsion texnologiyalarning roli //Golden Brain. - 2023. - т. 1. - №. 10. - c. 311-316.
4. B.X.Ravshanov Increasing professional skills of physical education graduates using an electronic educational base //educational research in universal sciences. - 2024. - т. 3. - №. 1. - c. 724-727.
5. B.Ergashev. Professional ta'lim tizimida raqobatbardosh bitiruvchilarni shakllantirish strategiyalari // Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. - 2021. - №3, 6 - 8-b.
6. N.A.Muslimov, va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.


ISSN 2181-3841

# KASBIY TA'LIM MUASSASALARIDA INDIVIDUAL YONDASHUV ORQALI RAHBAR XODIMLARNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

**Yangibayev Kamol Norboyevich,**
Professional ta'limni rivojlantirish instituti
Toshkent shahar hududiy qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti dekani

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasbiy ta'lim muassasalarida individual yondashuv orqali rahbar xodimlarning boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlari o'rganilgan. Boshqaruv samaradorligi rahbar kadrlarning kasbiy ko'nikmalari, shaxsiy xususiyatlari va individual rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, maqolada boshqaruv samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar, individual yondashuvning nazariy asoslari va turli davlatlar tajribasida qo'llanilayotgan rivojlanish usullari tahlil qilingan. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv asosida rahbar kadrlarni rivojlantirish ularning ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Maqolaning yakuniy qismida boshqaruv samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Individual yondashuv, boshqaruv samaradorligi, kasbiy ta'lim, rahbar xodimlar, rivojlanish metodlari.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются механизмы повышения эффективности управления руководителями учреждений профессионального образования за счет индивидуального подхода. Эффективность управления тесно связана с профессиональными навыками, личностными качествами и индивидуальным развитием руководителей. В статье анализируются факторы, влияющие на эффективность управления, теоретические основы индивидуального подхода и методы развития, используемые в различных странах. Результаты исследований показывают, что развитие управленческих компетенций с помощью индивидуального подхода значительно повышает эффективность работы. В заключение статьи даются практические рекомендации по дальнейшему повышению эффективности управления..

**Ключевые слова:** индивидуальный подход, эффективность управления, профессиональное образование, руководящий состав, методы развития.

**Annotation:** This article explores the mechanisms for enhancing management effectiveness of leaders in vocational education institutions through an individualized approach. Management effectiveness is closely tied to the professional skills, personal qualities, and individual development of leaders. The article analyzes factors influencing management efficiency, theoretical foundations of the individualized approach, and development methods used in various countries. Research results indicate that developing managerial competencies through an individualized approach significantly improves performance. The article concludes with practical recommendations to further enhance management effectiveness.

**Key words:** Individualized approach, management effectiveness, vocational education, leadership staff, development methods.

Jahonda bilimga asoslangan iqtisodiyotning rivojlanishi barobarida malakali va samarali boshqaruv kadrlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Boshqaruv samaradorligi, xususan, kasbiy ta'lim muassasalari rahbarlari uchun alohida ahamiyat kasb etadi,

chunki ularning faoliyati nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligiga, balki jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga ham ta'sir qiladi. Samarali boshqaruv uchun rahbar kadrlarning individual kompetensiyalarini oshirish zarur. Ularning boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishda individual yondashuv asosiy o'rin tutadi, chunki bu yondashuv har bir rahbarning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olib, ularning kasbiy ko'nikmalari va boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida kasbiy ta'lim muassasalari rahbar kadrlarining boshqaruv samaradorligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Xususan, rahbar kadrlarning boshqaruvdagi samaradorligini oshirishga qaratilgan individual yondashuv asosidagi rivojlanish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bunday yondashuv kasbiy ta'lim muassasalarida muvaffaqiyatli boshqaruv tizimini yaratishga, shuningdek, jamoaning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ushbu maqolada individual yondashuv orqali rahbar kadrlarning boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlari batafsil o'rganiladi.

Boshqaruv samaradorligi bu – tashkilot maqsadlariga erishish uchun rahbar kadrlar faoliyatining qanchalik samarali ekanligini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkich. Boshqaruv samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar bir nechta bo'lib, ular rahbar xodimning professional kompetensiyasi, shaxsiy ko'nikmalari, yetakchilik qobiliyatlari va ish jarayonidagi motivatsiyaga bog'liq.

**Kasbiy ta'lim muassasalarida rahbar kadrlarning boshqaruv samaradorligiga ta'sir qiluvchi quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:**

- ***Professional kompetensiya:*** *rahbarning bilim va ko'nikmalari, ya'ni tashkilot maqsadlariga erishishda ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil qilish qobiliyati.*
- ***Shaxsiy xususiyatlar va yetakchilik qobiliyatlari:*** *rahbarning jamoani boshqara olishi, samarali qarorlar qabul qilishi va muammolarni tezkorlik bilan hal qilishi.*
- ***Motivatsiya va ijobiy munosabat:*** *rahbarning faoliyatga munosabati, maqsadga erishish uchun kuchli xohish va harakatlar.*
- ***Ta'lim va individual rivojlanish:*** *rahbarning shaxsiy rivojlanishi, uning o'qishga va yangi bilimlarni egallashga bo'lgan intilishi.*

| Omillar | Qisqacha mazmun | Ta'sir ko'rsatuvchi | Rivojlantirish usullari |
|---|---|---|---|
| **Professional kompetensiya** | Rahbarning kasbiy bilim va ko'nikmalari, ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil qilish qobiliyati, maqsadlarga samarali erishish qobiliyati. | Bilim, tajriba va malaka | Ixtisoslashgan treninglar, malaka oshirish dasturlari |
| **Shaxsiy xususiyatlar va yetakchilik qobiliyatlari** | Rahbarning yetakchilik ko'nikmalari, ya'ni jamoani boshqarish, samarali qarorlar qabul qilish va muammolarni tezkorlik bilan hal qilish qobiliyati. | Shaxsiy xususiyatlar va yetakchilik qobiliyatlari | Liderlik seminarlari, kouching va mentorlik dasturlari |
| **Motivatsiya va ijobiy munosabat** | Rahbarning faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabati, maqsadlarga erishish uchun kuchli xohishi va tashabbuskorlik qobiliyati. | Ruhiy holat, emotsional motivatsiya | Motivatsiyani oshirishga yo'naltirilgan treninglar va qo'llab-quvvatlash dasturlari |
| **Ta'lim va individual rivojlanish** | Rahbarning shaxsiy rivojlanishga intilishi, doimiy o'quv jarayoniga va yangi bilimlarni egallashga xohishi. | Oliy ta'lim, doimiy o'quv jarayoni | Kasbiy rivojlanish kurslari, yangi sertifikat dasturlari |


ISSN 2181-3841

Kasbiy ta'lim muassasalarida rahbar kadrlarning boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar doimiy tadqiqotlarni talab etuvchi murakkab jarayonlarning bir qismi hisoblanadi. Jadvalda ushbu omillar va ularning tafsilotlari ko'rsatilgan bo'lib, ular rahbar kadrlar samaradorligini oshirish uchun muhim asosiy yo'nalishlarni aniqlashga yordam beradi. Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, rahbar kadrlarning boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin: professional kompetensiyalar, shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya va individual rivojlanishga bo'lgan intilish. Bu omillarning har biri rahbar kadrlarning boshqaruv qobiliyatini oshirish va ularning tashkilotga ta'sirini kuchaytirishda asosiy rol o'ynaydi.

**Birinchidan**, rahbar kadrlarning professional kompetensiyalari ularning tashkilotda muvaffaqiyatli va samarali boshqaruvni amalga oshirish qobiliyatini shakllantiradi. Professional kompetensiyalar rahbarning ish faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va tajribalarni o'z ichiga olganligi sababli, ular rahbar kadrlarning boshqaruvdagi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir rahbar uchun ularning kasbiy yo'nalishiga mos keluvchi malaka oshirish dasturlari va tajriba almashinuvi imkoniyatlari yaratilishi ularning professional rivojlanishiga yordam beradi. Bu jarayonda rahbar kadrlarga maxsus o'quv kurslari va seminarlarda qatnashish imkonini berish ularning professional kompetensiyalarini doimiy rivojlantirib borishda katta ahamiyatga ega.

**Ikkinchidan**, shaxsiy xususiyatlar, jumladan rahbar kadrlarning shaxsiy qobiliyatlari, ularning boshqaruvga bo'lgan yondashuvini aniqlaydi. Masalan, tashabbuskorlik, mas'uliyat, tizimli fikrlash va qaror qabul qilish kabi xususiyatlar rahbar kadrlarning samarali boshqaruvdagi ustunliklarini ta'minlaydi. Shu sababli, rahbar kadrlarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish ularning boshqaruv samaradorligini yanada yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda rahbar kadrlarga shaxsiy rivojlanish rejalarini yaratish va ularni doimiy ravishda yangilab borish orqali ularning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'mak berish mumkin.

**Uchinchidan**, motivatsiya ham rahbar kadrlarning boshqaruv samaradorligida muhim omil hisoblanadi. Motivatsiyaning turli ko'rinishlari, xususan, ichki va tashqi motivatsiya vositalari rahbar kadrlarning ishga bo'lgan munosabatini belgilaydi va ularning tashkilotdagi mavqeyini mustahkamlaydi. Ichki motivatsiya rahbar kadrlarning ishga bo'lgan qiziqishi va ularning shaxsiy qiymatlari bilan bog'liq bo'lsa, tashqi motivatsiya rahbarga tashqaridan ko'rsatiladigan yordam va rag'batlantirish choralarini o'z ichiga oladi. Boshqaruv samaradorligini oshirish uchun ichki va tashqi motivatsiyaning uyg'unligini ta'minlash talab etiladi. Buning uchun rahbar kadrlarga tashkilot ichida rag'batlantirish tizimini joriy etish, ularning mehnatini qadrlash va ularni turli motivatsion dasturlar orqali qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

**To'rtinchidan**, individual rivojlanishga bo'lgan intilish rahbar kadrlarning shaxsiy va kasbiy maqsadlarini ro'yobga chiqarishga bo'lgan yondashuvlarini ifodalaydi. Individual rivojlanishga intilishning mustahkam asosga ega bo'lishi rahbar kadrlarning tashkilotdagi muvaffaqiyatli faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ularning rivojlanishga bo'lgan intilishi tashkilotning umumiy strategik maqsadlariga uyg'un keladi. Individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish va ularni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish rahbar kadrlarning kasbiy rivojlanishiga yordam beradi. Bu jarayonda kouching va maslahat xizmatlaridan foydalanish, ularning ish jarayonida duch keladigan muammolarni hal qilishga yordam beruvchi vositalarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, jadvalda ko'rsatilgan omillarni doimiy qo'llab-quvvatlash va ularni rivojlantirish mexanizmlari orqali rahbar kadrlar boshqaruv samaradorligini oshirish mumkinligi ta'kidlanadi. Buning uchun kasbiy ta'lim muassasalarida rahbar

kadrlarning rivojlanishini kuzatib borish, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni baholash va muvofiq chora-tadbirlarni belgilash talab etiladi. Har bir omilni yaxshilashga yo'naltirilgan maxsus dasturlar orqali rahbar kadrlarning boshqaruv samaradorligini yanada oshirish mumkin. Individual yondashuv asosida rahbar kadrlarning samaradorligini oshirishning doimiy baholash tizimini joriy etish orqali ularning boshqaruv samaradorligini uzluksiz takomillashtirib borish imkoni tug'iladi. Bu tizim rahbar kadrlar uchun bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash va ularning boshqaruvdagi yutuqlarini baholash imkonini beradi. Natijada, individual yondashuv asosida ishlab chiqilgan rivojlanish dasturlari orqali rahbar kadrlarning boshqaruv samaradorligi mustahkamlanib, ularning tashkilotdagi rolini kuchaytirishga hissa qo'shadi.

Individual yondashuvni tatbiq etish rahbar kadrlar uchun yoqimli muhit yaratish, ularning ishdan qoniqish darajasini oshirish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishlariga yordam berish orqali kasbiy ta'lim muassasalarida umumiy boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim qadamdir. Individual yondashuv rahbar kadrlarning har biriga alohida yondashishni talab etadi, bu esa har bir rahbarning shaxsiy ko'nikmalari, ish jarayonidagi imkoniyatlari va xususiyatlarini inobatga olishga asoslanadi.

**Bu yondashuv bir qancha samarali usullarni qo'llashni o'z ichiga oladi:**

- **Shaxsiy rivojlanish rejalari:** har bir rahbar uchun alohida rivojlanish rejasi ishlab chiqish. Bu reja ularning shaxsiy qobiliyatlari va kasbiy ehtiyojlariga mos keladi.
- **Mashg'ulotlar va kouching:** kasbiy va shaxsiy rivojlanishni ta'minlash uchun treninglar, kouching va maslahatlashuvlar tashkil etish.
- **Egallash jarayonidagi qo'llab-quvvatlash:** rahbar kadrlarga shaxsiy murabbiylar, maslahatchilar yordamida ularning professional o'sishiga yordam berish.
- **Faoliyat tahlili va muvaffaqiyatni baholash:** rahbar xodimlarning faoliyatini muntazam baholash va ularning o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlarini tahlil qilish orqali yangi maqsadlar qo'yish.

Xorijiy davlatlardagi tajribalarga ko'ra, Finlandiya, Yaponiya va Singapur kabi mamlakatlarda individual yondashuv asosida rivojlanish dasturlari keng qo'llanilmoqda. Bunday dasturlar rahbar kadrlarning shaxsiy rivojlanishini samarali boshqarishga, ularning boshqaruv va yetakchilik qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar individual yondashuv asosida boshqaruv samaradorligini rivojlantirishga oid ko'plab natijalarni ochib berdi.

D.Sh. Temirov o'zining «Ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy rivojlanishi» nomli maqolasida ta'lim muassasasi rahbarining kasbiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiladi. Muallif rahbarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni, kasbiy-shaxsiy rivojlanish dinamikasining bosqichlarini, kasbiy rivojlanish istiqbollarini, shaxsiy-tipologik tavsif va ma'naviy dunyosi, kasbiy anglanganlik darajasi, pedagogik jamoa bilan munosabatlari hamda faoliyat mezonlari va ko'rsatkichlarini muhokama qiladi. Shuningdek, N.A. Muslimov o'zining «Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish» asarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanish jarayonini o'rganadi. Muallif kasbiy shakllanishning nazariy-metodik asoslarini tahlil qiladi va bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'llarini ko'rsatadi. Bundan tashqari, M.A. Innazarov «Individual yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari» maqolasida individual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim sifati qanday oshirilishi mumkinligini tahlil qiladi. Muallif individual yondashuvning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yoritadi va uning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi. Ushbu tadqiqotlar ta'lim muassasalarida rahbar xodimlarning kasbiy rivojlanishi va boshqaruv samaradorligini


ISSN 2181-3841

oshirishda individual yondashuvning ahamiyatini yoritib beradi. Bu tadqiqotlardan kelib chiqib, individual yondashuv orqali rahbar kadrlarning boshqaruv samaradorligini oshirishdagi asosiy omillarni aniqlash mumkin. Individual yondashuv asosida rahbar kadrlarning boshqaruv samaradorligini oshirishda ijobiy natijalarga erishish mumkinligiga qaramay, bu jarayonni amalga oshirishda ba'zi muammolar mavjud. Masalan, bu yondashuv moliyaviy sarmoya va resurslarni talab qiladi. Shu bilan birga, rahbar kadrlarning shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan ko'nikmalar va resurslar samarali bo'lishi uchun tizimli yondashuv talab qilinadi.

Ammo individual yondashuv, rahbar xodimlarning ish samaradorligini oshirish, ularning ishdagi motivatsiyasini yuqori darajada saqlash va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning boshqaruv samaradorligini maksimal darajada rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli, ushbu yondashuv kelajakda kasbiy ta'lim muassasalarida keng qo'llanilishi mumkin. Ushbu metodologiyani rivojlantirish uchun qo'shimcha tadqiqotlar va ta'lim dasturlari zarur.

Kasbiy ta'lim muassasalarida rahbar xodimlarning boshqaruv samaradorligini oshirishda individual yondashuv qo'llash muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, bu yondashuv orqali rahbar kadrlarning shaxsiy qobiliyatlari, bilim va tajribalari to'liq inobatga olinib, ularning tashkilotdagi vazifalarini samarali bajarishlari ta'minlanadi. Inson resurslarini boshqarish nazariyasiga asosan, individual yondashuvda rahbarlarning shaxsiy xususiyatlari va ularning professional rivojlanish ehtiyojlari inobatga olinishi kerak, chunki har bir shaxsning boshqaruv usuli, ishlash qoidalari, o'ziga xos kuchli va zaif tomonlari mavjud.

Individual yondashuv, avvalambor, rahbar kadrlarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Har bir rahbar uchun individual rivojlanish rejasini ishlab chiqish orqali ularning o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanligini oshirish, murakkab vaziyatlarda samarali boshqaruv qarorlari qabul qilish qobiliyatini kuchaytirish mumkin. Rivojlanish rejasiga asosan, rahbarlarga shaxsiy rivojlanish yo'l xaritasi ishlab chiqiladi va bu jarayonda ularning shaxsiy qobiliyatlari, tajribalari va o'ziga xos ehtiyojlari inobatga olinadi. Shu tariqa, rahbar kadrlar o'z ishiga yanada yuqori darajada jalb etiladi va ularning professional rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Shuningdek, individual yondashuvning yana bir muhim jihati — rahbar kadrlarga moslashtirilgan o'quv dasturlari va kouching faoliyatini joriy qilish orqali ularning boshqaruvdagi samaradorligini oshirishdir. Kasbiy ta'lim muassasalari rahbarlari uchun maxsus mashg'ulotlar, kouching va treninglarni tashkil etish ularning shaxsiy



ehtiyojlarini qondirishga va shu orqali boshqaruv mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Maxsus tayyorlangan o‘quv dasturlari orqali rahbar kadrlar o‘zlari uchun yangi ko‘nikma va bilimlarni o‘zlashtiradilar, bu esa ularning kasbiy samaradorligini oshiradi. Individual yondashuv doirasida rahbar kadrlarga psixologik yordam ko‘rsatish va motivatsiyalash vositalarini ishlab chiqish ham katta ahamiyatga ega. Rahbar kadrlar ko‘pincha stressli vaziyatlarda qaror qabul qilishiga to‘g‘ri keladi va bu ularning boshqaruv qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Tashkilotda psixologik yordam va maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish orqali rahbarlar o‘z ishiga yuqori darajada jalb etiladi, ularning motivatsiyasi oshadi va bu jarayonda ularning shaxsiy muammolariga yaqindan yondashish imkoniyati yaratiladi. Bunday yordam berish tizimi rahbar kadrlarning ishdan qoniqish darajasini oshirish va ularning boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Individual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan rivojlanish jarayonlarini muntazam ravishda baholab borish ham rahbar kadrlarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali kasbiy ta’lim muassasalari rahbarlarining shaxsiy rivojlanishlarini baholash imkoni tug‘iladi va bu ularning ish natijalarini yaxshilash uchun ko‘mak beradi. Ta’lim muassasalarida muntazam ravishda rivojlanish samaradorligini tahlil qilish va baholash tizimini joriy qilish, o‘z navbatida, rahbar kadrlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlash va ularning boshqaruv samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan aniq chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi. Individual yondashuv asosidagi boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar ta’lim muassasalarida samarali boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish va rahbar kadrlarning shaxsiy imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishda muhim qadam hisoblanadi. Har bir rahbarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan yondashuv orqali ta’lim muassasalarining boshqaruv jarayonlarini sifatli va yuqori samarali tashkil etish mumkin bo‘ladi.

**Individual yondashuv asosida boshqaruv samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagilar taklif qilinadi:**

**1. Shaxsiy rivojlanish rejalarini ishlab chiqish:** har bir rahbar uchun individual rivojlanish rejasi tuzish, shu orqali ularning o‘zgarishlarga tayyorligini ta‘minlash va muvaffaqiyatli boshqaruv ko‘nikmalariga ega bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash.

**2. Maxsus mashg‘ulot va kouching dasturlarini joriy qilish:** rahbar xodimlarning shaxsiy ehtiyojlariga mos keluvchi o‘quv dasturlarini tashkil etish, bu esa ularning boshqaruvdagi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**3. Ta’lim muassasalarida psixologik va ko‘makchi resurslarni yaratish:** rahbar kadrlarning shaxsiy rivojlanishi uchun maslahatchi va kouchlar tayyorlash, ularga zarur ko‘mak va motivatsiyani ta‘minlash.

**4. Rivojlanish jarayoni samaradorligini muntazam baholash:** individual yondashuv asosida amalga oshirilgan rivojlanish jarayonini tahlil qilish va uning samaradorligini oshirish uchun doimiy ravishda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish.

Ushbu takliflar kasbiy ta’lim muassasalari rahbar kadrlari uchun individual yondashuv asosidagi boshqaruv samaradorligini rivojlantirish jarayonida muhim qadamlar bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. D.Sh.Temirov, (2022). Ta’lim muassasasi rahbarining kasbiy rivojlanishi. Kasbiy ta’lim, 3(2), 45–53.
2. N.A.Muslimov, (2020). Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirishning didaktik xususiyatlari. O‘zbekiston ta’limi, 4(1), 27–34.
3. N.A. Muslimov, (2021). Oliy ta’lim muassasalari ixtisoslik fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Ilm va hayot, 5(3), 68–75.
4. M.A.Innazarov, (2019). Individual yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari. Ta’lim sifatini oshirish, 2(4), 12–19.

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФИЛАКТИКЕ НАРКОМАНИИ СРЕДИ МОЛОДЁЖИ: ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

**Сирожиддинов Илхом Иброхимович,**
Соискатель Института развития профессионального образования

**Аннотация:** Статья посвящена исследованию использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в профилактике наркомании среди молодежи. Исследование охватывает такие ИКТ-инструменты, как мобильные приложения, социальные сети и интерактивные образовательные платформы, и их роль в повышении осведомленности и формировании устойчивых защитных установок против употребления наркотиков. Результаты показывают, что использование ИКТ способствует значительному повышению уровня вовлечённости и информированности участников о последствиях наркомании по сравнению с традиционными методами. Также обсуждаются ограничения и направления для дальнейших исследований, включая необходимость учета особенностей доступа к ИКТ и оценку долгосрочных эффектов их использования.

**Ключевые слова:** наркомания, информационно-коммуникационные технологии, профилактика, молодежь, мобильные приложения, социальные сети.

**Annotatsiya:** Maqola yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishni o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va interaktiv ta’lim platformalari kabi AKT vositalarini hamda ularning xabardorlikni oshirish va giyohvand moddalarni iste’mol qilishga qarshi barqaror himoya munosabatlarini shakllantirishdagi rolini qamrab oladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, AKTdan foydalanish an’anaviy usullarga nisbatan giyohvandlikning oqibatlari to‘g‘risida ishtirokchilarning ishtiroki va xabardorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Shuningdek, keyingi tadqiqotlar uchun cheklovlar va yo‘nalishlar, shu jumladan (AKT) ga kirish xususiyatlarini hisobga olish va ulardan foydalanishning uzoq muddatli ta’sirini baholash zarurligi muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** giyohvandlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, profilaktika, yoshlar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar.

**Annotation:** This article explores the use of information and communication technologies (ICT) in the prevention of drug addiction among youth. The study examines the impact of ICT tools such as mobile applications, social media, and interactive educational platforms on raising awareness and building resilient attitudes against drug use. Findings indicate that ICT significantly enhances engagement and awareness of the dangers of drug abuse compared to traditional methods. The article also discusses limitations and future research directions, including the need to consider access to ICT resources and to evaluate the long-term effects of their use.

**Key words:** drug addiction, information and communication technologies, prevention, youth, mobile applications, social networks.

**Введение (Introduction).** Зависимость от психоактивных веществ действительно представляет собой одну из самых значимых и опасных социальных проблем, сказывающихся на всём обществе. Особую угрозу наркомания представляет для молодёжи, находящейся в самом уязвимом социальном, психологическом и физиологическом положении. Подростковый и юношеский возраст характеризуется стремлением к новым впечатлениям, поиском себя и утверждением независимости, что делает молодых людей особенно восприимчивыми к внешнему влиянию, включая распространение наркотических веществ. Исследования показывают, что потребление наркотиков в юном возрасте значительно увеличивает риск развития хронической зависимости, а также может привести к целому ряду негативных последствий, таких как ухудшение психического и физического здоровья, снижение образовательных и трудовых перспектив, и, как следствие, рост социальной дезадаптации. Кроме того, наркомания в подростковом возрасте имеет тесную связь с асоциальным поведением, что может усугубить проблему преступности и насилия в обществе. С точки зрения общественного здоровья и биостатистики, важно учитывать влияние различных факторов риска: социально-экономическое положение, неблагоприятные условия в семье, отсутствие образования о последствиях наркотиков, а также доступность психоактивных веществ в той или иной среде. Подход к борьбе с этой проблемой должен быть многогранным и включать профилактику на всех уровнях, начиная с семьи и образовательных учреждений и заканчивая законодательными мерами. Важно, чтобы программы профилактики наркомании среди молодёжи разрабатывались с учётом психологических особенностей этой возрастной группы, опирались на современные данные и имели поддержку на государственном уровне.

Наркомания остаётся одной из наиболее острых социальных проблем, оказывающих разрушительное воздействие на общество, особенно на молодёжь, которая наиболее уязвима к её влиянию. По данным Управления ООН по наркотикам и преступности (UNODC), в 2021 году около 296 миллионов человек во всём мире употребляли наркотики, что на 23% больше по сравнению с 2011 годом. Из них 39,5 миллиона человек страдали от расстройств, связанных с употреблением наркотиков, что представляет собой рост на 45% за десятилетие. Традиционные методы профилактики наркомании, такие как лекции, печатные материалы и разовые мероприятия, часто оказываются недостаточно эффективными, поскольку не всегда учитывают поведенческие особенности и способы взаимодействия современной молодёжи с информацией. В связи с этим информационно-коммуникационные технологии (ИКТ) могут выступать в качестве мощного инструмента для улучшения существующих профилактических мер.

**Использование ИКТ в профилактике наркомании среди молодёжи позволяет:**

- **Повысить доступность информации:** онлайн-ресурсы, такие как специализированные сайты и мобильные приложения, обеспечивают круглосуточный доступ к достоверной информации о вреде наркотиков и способах их избегания.
- **Увеличить интерактивность обучения:** цифровые платформы позволяют создавать интерактивные программы, игры и симуляции, которые способствуют более глубокому пониманию последствий употребления наркотиков.
- **Обеспечить анонимность и конфиденциальность:** молодые люди могут получать консультации и поддержку онлайн, не опасаясь осуждения или раскрытия личной информации.
- **Расширить охват аудитории:** социальные сети и мессенджеры позволяют распространять профилактическую информацию среди широкой аудитории, включая труднодоступные группы молодёжи.


ISSN 2181-3841

Исследования подтверждают эффективность использования ИКТ в профилактике наркомании. Например, создание интернет-порталов, направленных на информирование молодёжи о рисках употребления наркотиков, способствует формированию негативного отношения к наркотикам и снижению уровня их потребления.

Таким образом, интеграция информационно-коммуникационных технологий в программы профилактики наркомании среди молодёжи является перспективным направлением, способным повысить эффективность профилактических мероприятий и снизить распространённость наркотической зависимости в молодёжной среде.

**Постановка проблемы.** Традиционные формы профилактики, такие как лекции в образовательных учреждениях, распространение печатной информации и проведение офлайн мероприятий, имеют свои ограничения и не всегда достигают целевой аудитории. С учётом растущей вовлечённости молодёжи в цифровое пространство, включая социальные сети, онлайн-сообщества и мобильные приложения, существует необходимость в разработке инновационных подходов на базе ИКТ. Эти технологии позволяют не только предоставлять необходимую информацию, но и формировать устойчивые поведенческие паттерны, снижая риск вовлечения в наркопотребление. Однако вопросы практического применения ИКТ в профилактических мероприятиях остаются малоизученными, и влияние различных цифровых инструментов на сознание и поведение молодежи требует эмпирической проверки.

**Цель исследования:** Настоящее исследование направлено на изучение эффективности инновационных методов использования ИКТ профилактических мероприятиях против наркомании среди молодёжи. В частности, оно оценивает, насколько такие инструменты, как социальные сети, мобильные приложения и интерактивные образовательные платформы, могут способствовать повышению осведомлённости о вреде наркотиков и укреплению защитных установок.

**Методы (Methods).** Для оценки эффективности использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в профилактике наркомании среди молодежи была выбрана многослойная структура исследования. На первом этапе проведена разработка и внедрение различных ИКТ-инструментов, ориентированных на целевую аудиторию — школьников и студентов. В качестве ключевых компонентов использовались мобильные приложения, платформы социальных сетей и онлайн-мероприятия. На втором этапе проводилась оценка воздействия этих инструментов на осведомленность и восприятие наркотической зависимости среди участников, что позволило выявить эффективность каждого из используемых ИКТ-инструментов.

В исследовании участвовали группы молодежи, включающие учащихся начальных и средних школ, а также студентов университетов в возрасте от 12 до 22 лет. Общая численность участников составила 1,200 человек, из которых 700 были школьниками, а 500 — студентами. Для достоверности исследования опрос участников эксперимента был проведен анонимно, важно было провести оценки влияния программы часть опросов и оценок также среди родителей участников (250 человек), что позволило собрать данные о влиянии ИКТ на их детей с точки зрения взрослых и их восприятия изменений в поведении молодежи.

**Исследование было организовано в три ключевых этапа:**

**1-этап внедрения ИКТ-инструментов:** В этом этапе разработаны и внедрены мобильное приложение и онлайн-платформа с профилактическими и образовательными материалами о наркомании. Мобильное приложение включало интерактивные тесты и образовательные модули, направленные на повышение осведом-

ленности, а также функции отслеживания прогресса в обучении. В социальных сетях проводились информационные кампании с привлечением популярных блогеров, которые делились личными историями или образовательным контентом о вреде наркотиков. Для студентов организовывались виртуальные семинары, на которых специалисты объясняли последствия наркотической зависимости и методы её предотвращения.

**2-этап сбора данных:** Сбор обратной связи от участников проводился через анкетирование и онлайн-опросы, направленные на оценку восприятия материала и осведомленности участников о последствиях наркомании до и после прохождения ИКТ-программы. Анкеты включали вопросы по основным поведенческим установкам, эмоциональному восприятию полученного материала и уровню вовлечённости в процессе.

**3-этап оценки и анализа активности:** Данные об активности участников на платформе и в мобильном приложении были собраны для анализа уровня вовлеченности. Активность оценивалась на основе таких показателей, как количество завершённых тестов, частота взаимодействий с контентом, и посещаемость виртуальных мероприятий. Например, в мобильном приложении был зафиксирован высокий уровень вовлеченности: 65% участников прошли хотя бы три модуля из пяти, а 45% завершили все предложенные тесты. В социальных сетях охват информационной кампании превысил 150,000 человек, при этом уровень вовлечённости (лайки, комментарии и репосты) составлял около 15%.

**Собранные данные были подвергнуты комплексному анализу с целью выявления корреляции между участием в ИКТ-мероприятиях и изменением уровня осведомленности участников о наркомании. Анализ данных включал следующие этапы:**

- **Анкетирование**: Участники до и после прохождения программы заполняли анкеты. По итогам анкетирования выявлено, что после участия в программе 70% участников продемонстрировали значительное повышение уровня осведомленности о негативных последствиях наркотиков (по сравнению с 40% на начальном этапе).
- **Онлайн-опросы:** Результаты опросов показали, что 55% участников стали более осознанно относиться к проблеме наркомании, а 60% отметили, что получили новые знания, полезные для дальнейшей жизни и общения с друзьями.
- **Активность на онлайн-платформах:** Анализ вовлеченности показал, что уровень интереса к образовательным и профилактическим материалам был выше среди старшеклассников и студентов (около 75% регулярно взаимодействовали с материалами) по сравнению с младшими школьниками (около 50%).

Собранные данные позволили получить всестороннюю картину воздействия ИКТ-инструментов на молодежь и оценить их потенциал как эффективных средств профилактики наркомании.

Результаты (Results). Результаты анализа данных продемонстрировали значительное повышение уровня осведомленности и изменения отношения к проблеме наркомании среди участников программы на основе ИКТ. Согласно результатам опросов, после завершения программы 72% участников стали более осознанно относиться к угрозе наркомании, по сравнению с 38% на начальном этапе. Кроме того, 65% участников отметили, что чувствуют себя более уверенными в способности избежать ситуаций, связанных с предложениями наркотических веществ, и сообщили о повышении знаний в вопросах их воздействия на здоровье. В частности, среди учащихся старших классов и студентов был выявлен наибольший уровень понимания последствий употребления наркотиков и повышение заинтересованности в профилактических мерах. Участники продемонстрировали лучшее понимание механизмов защиты и навы-

ков противодействия соблазнам наркопотребления.

Анализ эффективности отдельных ИКТ-инструментов выявил несколько значимых результатов. Информационная кампания в социальных сетях достигла охвата более 150,000 человек, причём высокий уровень вовлечённости был зафиксирован у 17% участников (активные лайки, комментарии, репосты). Пользователи социальных сетей сообщали о том, что предоставленные материалы были информативными и вызвали осознание серьёзности проблемы наркомании. Мобильное приложение оказалось не менее эффективным: 68% пользователей завершили все модули, содержащие образовательные материалы, и оставили положительные отзывы, отметив удобный формат подачи информации и возможность регулярно отслеживать свои знания и установки. Отзывы участников также подтверждают, что интерактивные форматы, такие как онлайн-игры и тесты на платформе, вызывали активный интерес у молодежи и способствовали закреплению знаний. При этом более 60% респондентов отметили, что им было бы интересно участвовать в дальнейших мероприятиях, связанных с профилактикой, и рекомендовать приложение своим сверстникам.

***Сравнительный анализ.*** Сравнение традиционных и инновационных методов профилактики показало, что ИКТ-методы значительно превосходят традиционные подходы по ряду параметров. В то время как лекции и раздача печатных материалов способствовали повышению осведомленности у 35% участников, вовлечённых в эти мероприятия, цифровые мероприятия продемонстрировали более высокий уровень вовлеченности (около 70%) и запоминания информации. Участники отметили, что информация, представленная в социальных сетях и мобильном приложении, была более доступной, наглядной и понятной, чем традиционные информационные листовки. Также молодёжь указала, что цифровой формат позволяет ей изучать материалы в удобное время, повышая вероятность регулярного взаимодействия с ними.

***Оценка результативности.*** Результаты исследования подтверждают, что ИКТ-инструменты обладают высоким потенциалом для использования в профилактике наркомании среди молодежи. Молодежь продемонстрировала значительное повышение уровня осведомленности, а также выраженное желание участвовать в интерактивных образовательных программах, повышающих её защитные установки и укрепляющих знание о негативных последствиях наркомании. Инновационные ИКТ-методы позволяют влиять на восприятие наркомании и формировать устойчивое неприятие наркотических веществ, что подтверждает их потенциал как значимого компонента комплексных профилактических мероприятий.

**Обсуждение (Discussion).** Результаты настоящего исследования демонстрируют, что использование информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) для профилактики наркомании среди молодёжи является эффективным подходом для повышения осведомленности о вреде наркотиков и формирования устойчивых защитных установок. Повышенный уровень вовлечённости молодежи в профилактические мероприятия на базе ИКТ, зафиксированный в ходе исследования, указывает на то, что такие методы обладают значительными преимуществами перед традиционными способами информирования и воздействия. Включение мобильных приложений, социальных сетей и интерактивных образовательных платформ позволяет охватывать широкую аудиторию и предоставлять информацию в доступной и интересной форме, что способствует лучшему запоминанию и усвоению информации.

Уникальные преимущества ИКТ в данном контексте включают возможность персонализированного и интерактивного обучения. Молодежь, активно использую-

щая цифровые устройства и онлайн-платформы, может получать необходимую информацию в формате, близком к их повседневному опыту. ИКТ позволяют своевременно реагировать на изменения интересов и поведения пользователей, благодаря чему материалы и содержание профилактических программ могут быть адаптированы под потребности целевой аудитории. Более того, интерактивные форматы, такие как онлайн-тесты и виртуальные мероприятия, побуждают молодых людей к активному участию, что положительно влияет на формирование устойчивых защитных установок в отношении наркотиков.

Ограничения и недостатки исследования. Несмотря на положительные результаты, данное исследование имеет определённые ограничения. Во-первых, состав участников был относительно ограничен и включал только школьников и студентов из определённых регионов. Это может снижать обобщаемость результатов на более широкие популяции, поскольку различия в демографических, культурных и социально-экономических характеристиках могут оказывать влияние на восприятие и эффективность ИКТ в профилактике наркомании. В частности, молодёжь из сельских или менее развитых регионов может иметь ограниченный доступ к ИКТ-ресурсам, что требует учёта при разработке дальнейших программ. Во-вторых, в ходе исследования возникли технические проблемы, связанные с доступностью и функционированием некоторых ИКТ-инструментов. Например, не у всех участников были устройства, поддерживающие мобильное приложение, а также наблюдались перебои в доступе к интернету, что затрудняло регулярное взаимодействие с образовательными платформами. Эти факторы указывают на необходимость учитывать техническую доступность ИКТ-инструментов, чтобы охватить максимальное количество участников и избежать выпадения данных. Кроме того, влияние ИКТ на изменение поведенческих установок требует долгосрочного наблюдения, так как выявление устойчивых изменений требует более продолжительных и повторных измерений. В рамках данного исследования изменения в поведении и установках фиксировались сразу после завершения программы, что не позволяет однозначно утверждать, что эти изменения сохранятся на длительный срок.

Сравнение результатов данного исследования с предыдущими работами в области использования ИКТ для профилактики наркомании показывает как сходства, так и отличия. В предыдущих исследованиях также отмечалась высокая вовлечённость молодёжи при использовании ИКТ-методов, таких как социальные сети и мобильные приложения, для профилактики рискованного поведения. Например, исследование, проведённое в 2018 году, показало, что молодёжь воспринимает информацию из цифровых источников более серьёзно, если она предоставляется в формате, понятном и удобном для восприятия, например, через социальные сети или приложения с интерактивными функциями. Однако в отличие от данных исследований, наше исследование впервые интегрировало многослойный подход, сочетающий несколько форматов ИКТ (онлайн-мероприятия, мобильные приложения, социальные сети), что позволило оценить их кумулятивный эффект на восприятие и осведомленность. Также в ряде исследований наблюдались неоднозначные результаты, связанные с использованием ИКТ среди молодежи, включая случаи игнорирования профилактических программ в социальных сетях, если они не учитывают интересы или психологические особенности целевой аудитории. В отличие от этих работ, в нашем исследовании при разработке контента особое внимание уделялось его адаптации под интересы молодых людей, что, вероятно, и повысило уровень вовлечённости и эффективности программы.

Основываясь на полученных резуль-


ISSN 2181-3841

татах и выявленных ограничениях, можно выделить несколько направлений для дальнейших исследований и усовершенствования профилактических программ на основе ИКТ. Прежде всего, рекомендуется расширить географию исследования и включить более разнообразные группы участников с различными культурными и социально-экономическими характеристиками, чтобы повысить обобщаемость и достоверность результатов. Важно также учитывать тех участников, которые имеют ограниченный доступ к ИКТ, и разрабатывать альтернативные варианты программ, включающие оффлайн-элементы для этих групп. Кроме того, будущие исследования могут сосредоточиться на изучении долгосрочного воздействия ИКТ на поведенческие установки, проводя повторные измерения через несколько месяцев или даже лет после завершения программы. Это позволит оценить устойчивость и долговременность изменений в восприятии и отношении к наркомании. Ещё одним перспективным направлением является использование новых технологий, таких как виртуальная и дополненная реальность, которые могут усилить эффект погружения и вызвать эмоциональный отклик у участников. Виртуальная реальность, например, позволяет моделировать ситуации, в которых участники могут научиться отказываться от наркотиков или противостоять давлению сверстников, что будет способствовать закреплению навыков в реальных условиях. Наконец, перспективным является создание комплексной профилактической платформы, включающей возможности не только для информирования, но и для взаимодействия с психологами, консультантами и специалистами в режиме реального времени, что поможет обеспечить комплексную поддержку для молодёжи.

Таким образом, использование ИКТ в профилактике наркомании демонстрирует значительный потенциал, однако требует дальнейших исследований и адаптации для различных групп населения.

**Список литературы:**


1. Закон Республики Узбекистан «О государственной молодежной политике». 14 сентября 2016 г., № ЗРУ-406.
2. Указ Президента Республики Узебкистан « О стратегических мерах по утсранению негативного влияния на здоровье населения и генофонд нации наркотических средств и психотропных веществ посредством переечения их незаконного оборота в республике Узбекистан» 6 мая 2024., №УП-73.
3. Закон Республики Узбекистан «О наркотических средствах и психотропных веществах» 19 августа 1999 г., № 813-I.
4. Управление ООН по наркотикам и преступности. Всемирный доклад о наркотиках за 2023 год. [Электронный ресурс]. Доступно по ссылке: https://www.unodc.org/unodc/ru/frontpage/2023/June/world-drug-report-2023_-296-million-people-worldwide-used-drugs-in-2021--with-39-5-million-suffering-from-drug-use-disorders.html
5. Храмцова Ф.И., Терехова А.И., Андрейковец Е.М. Интернет-портал как информационный ресурс профилактики наркомании среди молодёжи. // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2021. – №4-1. – С. 6-9. [Электронный ресурс]. Доступно по ссылке: https://cyberleninka.ru/article/n/internet-portal-kak-informatsionnyy-resurs-profilaktiki-narkomanii-sredi-molodezhi

# KASBIY TA’LIM TIZIMINING TURIZM MUTAXASSISLARINI O‘QITISH JARAYONIDA MUAMMOLI TA’LIMNING AHAMIYATI

**Xasanova Nargiza Atxamovna,**
Toshkent kimyo xalqaro universiteti “Turizm” kafedrasi katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasbiy ta’limning turizm mutaxassislarini o‘qitishda muammoli ta’limning ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida o‘quvchilar va pedagoglar o‘rtasida so‘rovnoma va intervyular o‘tkazilib, muammoli ta’lim metodlarining samaradorligi baholangan.
**Kalit so‘zlar:** kasbiy ta’lim, muammoli ta’lim (PBL), turizm ta’limi, tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv, pedagogik metodlar, ta’lim usullari, zamonaviy ta’lim, keys metodi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется значение проблемного обучения в подготовке специалистов туризма профессионального образования. В рамках исследования были проведены анкетирование и интервью среди студентов и педагогов, оценена эффективность проблемно-ориентированных методов обучения.
**Ключевые слова:** профессиональное образование, проблемное обучение (ПОП), туристическое образование, аналитическое мышление, творческий подход, педагогические методы, методы обучения, современное образование, кейс-метод.

**Annotation:** This article analyzes the importance of problem-based learning in the training of tourism specialists of professional education. As part of the research, questionnaires and interviews were conducted among students and pedagogues, and the effectiveness of problem-based learning methods was evaluated.
**Key words:** Professional education, problem-based learning (PBL), tourism education, analytical thinking, creative approach, pedagogical methods, educational methods, modern education, case method

**KIRISH.** Hozirgi globallashuv jarayonida turizm sohasi davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizm nafaqat mamlakatning xalqaro maydondagi imijini yaxshilash, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash va chet ellik sayyohlarni jalb qilish orqali valyuta tushumlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va farmonlar, xususan, turizm yo‘nalishidagi ta’limni takomillashtirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha strategik vazifalarni belgilab beradi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-sonli Farmoni va 2024-yil 18-iyuldagi “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-269-sonli qarori ushbu yo‘nalishda muhim qadamlar hisoblanadi.

Mazkur farmon va qaror doirasida professional ta’limning turizm mutaxassislarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlardan, jumladan, muammoli ta’lim metodlaridan foydalanishning ahamiyati oshdi. Chunki muammoli ta’lim usullari o‘quvchilarda murakkab holatlarni tahlil qilish, ijodiy fikrlash, mustaqil qarorlar qabul qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa turizm sohasida raqobatbardosh


ISSN 2181-3841

mutaxassislarni yetishtirishda muhim omil hisoblanadi.

Ushbu maqolada muammoli ta'limning professional ta'limning turizm mutaxassislarini o'qitishdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, amaliyotdagi o'rganishlar va natijalar tahlil qilinadi. Maqsad – o'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun muammoli ta'lim imkoniyatlarini o'rganish va uning ijobiy samaralarini ko'rsatishdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida professional ta'limning Toshkent, Samarqand, Buxoro va Marg'ilon texnikumlarining turizm yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchilar va pedagoglar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada muammoli ta'lim usullaridan foydalanish tajribasi, ushbu metodning o'quvchilarga ta'siri va mavjud qiyinchiliklar bo'yicha savollar qamrab olindi. Shuningdek, pedagoglar va mutaxassislar bilan intervyular tashkil etildi, ularning fikr va takliflari o'rganildi. Professional ta'limning turizm yo'nalishida qo'llaniladigan keyslar tahlili o'tkazildi va ularning samaradorligi baholandi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilindi va muammoli ta'limdan foydalangan va foydalanmagan guruhlar o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazildi. Bu metodning professional ta'limning turizm yo'nalishida ahamiyati aniqlanib, xulosalar chiqarildi.

So'nggi yillarda turizm sohasida mutaxassislarni tayyorlash muammolari faol tadqiqot obyekti bo'lib, muammoli ta'limning (PBL) professional ta'limda qo'llanilishi o'quvchilarda zaruriy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi, bu esa bir qator ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Professional ta'limning turizm yo'nalishida muammoli ta'lim (PBL) usullarini joriy qilish va ularning samaradorligini o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu maqolada professional ta'limning turizm yo'nalishida malakali kadrlar tayyorlash, muammoli ta'limning samaradorligi va metodik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar tahlil qilindi.

A.Y.Ernazarov turizm sohasida kadrlar tayyorlashning pedagogik aspektlarini ko'rib chiqadi, muammoli ta'lim usullarining turizm ta'limiga integratsiyasining ahamiyatini ilgari surgan [1]. S.T.Nurtazin va boshqalar muammoli ta'lim usulining samaradorligini tahlil qilib, o'quvchilar uchun ijodiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda uning ahamiyatini ko'rsatib bergan [2]. Y.P.Belkina turizm yo'nalishidagi o'quvchilar uchun muammoli ta'lim metodikasining afzalliklarini ko'rsatib bergan va uning o'quvchilarda kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ta'kidlagan [3]. M.Hakimova yangi O'zbekiston oliy ta'lim tizimida muammoli ta'limni qo'llashning istiqbollarini tahlil qiladi, uning ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [4]. S.K.Egamova muammoli ta'lim usullarining o'quv jarayonidagi faoliyatini tahlil qiladi, bilimlarni amaliyot bilan bog'lash va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ilgari surgan [5]. A.S.Oralbekova va boshqalar muammoli ta'lim usullarining turizm sohasidagi professional kadrlar tayyorlashdagi samaradorligini tahlil qilgan [6]. Y.V.Rodionova va boshqalar muammoli ta'lim modelini turizm sohasida kadrlarni tayyorlash jarayonida qo'llashning afzalliklari va samaradorligini muhokama qilgan. Bunda faqat nazariya bilan cheklanmay, balki hayotiy vaziyatlar va real muammolar ustida ishlash orqali o'zlashtirilishi kasbiy ko'nikma va malakalarni oshirishlariga yordam berishini ta'kidlab o'tgan [7].

Ushbu tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, muammoli ta'lim metodlari professional ta'limning turizm yo'nalishida ta'lim oluvchi o'quvchilarda ijodiy yondashuvlarni, mustaqil fikrlashni va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, muammoli ta'lim turizm sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirishga, turizm sohasidagi zamonaviy me'yorlar va talablar asosida rivojlanishga, shuningdek, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Muammoli ta'lim metodlari professional ta'limning turizm yo'nalishida ta'lim oluvchi o'quvchilarda ijodiy yondashuvlarni, mustaqil fikrlashni va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**NATIJA.** Tadqiqot natijalari shundan dalolat berdiki, professional ta'limda turizm yo'nalishida muammoli ta'limdan foydalanish o'quvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. So'rovnoma va intervyular orqali o'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra, muammoli ta'lim usullari tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali ekanligi tasdiqlandi. Bunda o'quvchilarning bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati sezilarli darajada oshgani qayd etildi.

Muammoli ta'limdan foydalangan guruh o'quvchilari o'rganish jarayonida yuqori samaradorlik ko'rsatgani, ya'ni ularning bilimlarni o'zlashtirish darajasi 25–30% ga yuqori bo'lgani aniqlandi. Shuningdek, ular jamoaviy ishlash, murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, ijodiy yondashuv va mijozlar bilan ishlash sohasida yuqori ko'nikmalarni namoyon etdilar.

Professional ta'lim turizm yo'nalishida muammoli ta'limni joriy etish jarayonida pedagoglar qator qiyinchiliklarga duch kelayotgani ham aniqlandi. Keyslarni tayyorlash, metodga moslashgan o'quv-metodik materiallarning yetishmasligi va pedagoglarning tayyorgarligi kabi muammolar mazkur metodning to'liq joriy etilishiga to'sqinlik qilmoqda.

**MUHOKAMA**. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar professional ta'lim turizm yo'nalishida muammoli ta'limning samaradorligini yanada chuqurroq tushunishga imkon berdi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi, ularning mustaqil fikrlash va muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Turizm sohasi doimiy o'zgarishlar va yangiliklarga yo'naltirilgan bo'lgani sababli, bunday ko'nikmalar mutaxassislar uchun juda muhimdir.

Muammoli ta'limning asosiy afzalliklari shundaki, u o'quvchilarni real hayotda uchraydigan holatlarga tayyorlaydi. Keyslarga asoslangan mashg'ulotlar, holatli tahlil va ijodiy yondashuv o'quvchilarga nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkoniyatini yaratadi. Bu esa ularning malaka va ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida muammoli ta'limdan foydalangan guruhlarda yuqori natijalar qayd etilgani ushbu metodning samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, ushbu metodni qo'llash jarayonida qator qiyinchiliklar mavjud. Pedagoglarning tayyorgarlik ko'rishi uchun ko'proq vaqt va resurs talab etilishi, o'quv jarayoniga moslashtirilgan metodik materiallar yetishmasligi va amaliyotda ushbu metodga mos infratuzilma mavjud emasligi asosiy muammolar sifatida qayd etildi. Ayniqsa, o'quvchilarni turli darajadagi murakkab holatlarga tayyorlash uchun keyslarni to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

Muammoli ta'limni yanada samarali qo'llash uchun pedagoglarning professional malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv dasturlari joriy etilishi zarur. Shuningdek, zamonaviy interaktiv vositalarni ta'lim jarayoniga kiritish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning bilim olish jarayonida faol ishtirokini ta'minlash mumkin.

**XULOSA**. Professional ta'lim turizm yo'nalishida muammoli ta'limdan foydalanish o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod o'quvchilarda tahliliy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari muammoli ta'lim usullari orqali bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, murakkab holatlarni hal qilishda tezkorlik va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ko'rsatdi.

Muammoli ta'limdan foydalangan guruh o'quvchilari nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq qilishda yuqori natijalarga erishgani, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda bu metod samarali ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, muammoli ta'limni qo'llash jarayonida pedagoglarning tayyorgarligi va metodik resurslar yetarli darajada ta'minlanmaganligi ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotgani qayd etildi.

Muammoli ta'lim professional


ISSN 2181-3841




ta'lim turizm yo'nalishida yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashda strategik ahamiyatga ega. Ushbu metodning yanada keng qo'llanilishi uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish uchun maxsus o'quv kurslarini joriy etish.
2. Muammoli ta'limga moslashtirilgan zamonaviy o'quv-metodik materiallar yaratish.
3. Ushbu metodni qo'llash jarayonida zamonaviy interaktiv texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, muammoli ta'lim o'quvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi samarali usul bo'lib, uning yanada keng joriy etilishi turizm ta'limining sifatini oshirishda muhim qadam bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ernarzov A. E., Turizm sohasida kadrlar tayyorlashning pedagogik aspektlari // Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 4-9.
2. Нуртазин С. Т. и др. Инновационный метод «Проблемно-ориентированного обучения»(Problem-based learning-PBL) //Успехи современного естествознания. – 2013. – Т. 5. – С. 112-114.
3. Белкина Е. П. Методика проблемно-профессионального обучения иностранному языку студентов направления подготовки» Туризм» //Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2019. – Т. 12. – №. 2. – С. 245-250.
4. Hakimova M. Yangi O'zbekiston oliy ta'lim tizimida muammoli ta'limni qo'llash istiqbollari // Milliy ta'lim tadqiqotlari jurnali. – 2023. – T. 4. – №. 6. – S. 12-18.
5. Эгамова С. К. Методы активного обучение (PBL) в практике высшего образования //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 170-174.
6. Оралбекова А.С. и др. Актуальность метода обучения PBL (Problem Based Learning) для будущих специалистов //Культура и искусство в современном образовательном пространстве. – 2022. – С. 183-188.
7. Родионова Е. В., Агранович В. Б., Карлова Л. В. Проблемно-ориентированное обучение (PBL)–образовательная модель подготовки кадров в сфере ТУРИЗМА //Актуальные проблемы гуманитарных наук. – 2013. – С. 408-410.

# TEXNIKA YO‘NALISHIDA TAYYORLANADIGAN MUTAXASSISLARNI YARATUVCHANLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA SOHANI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHNING ZARURATI

**To‘raqulova Marjona Qiyom qizi,**
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari doktori (PhD), dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada texnika yo‘nalishidagi magistrlarni ixtirochilik faoliyatiga tayyorlashda sohaga raqamli transformatsiyalarni joriy etishning ijtimoiy zarurati haqida fikr yuritadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari texnika sohasidagi bilimlarni integratsiyalash, yaratuvchanlik salohiyatini oshirish, shuningdek, amaliy muammolarni hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan. Magistrlarni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ixtirochilik faoliyatiga tayyorlash orqali milliy iqtisodiyotda innovatsion mahsulotlarni yaratish imkoniyatlari oshirilishi, raqamli transformatsiya tamoyillari, texnika sohasida innovatsion kadrlarni shakllantirish va ushbu jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida muhim xulosalarni o‘z ichiga oladi.

**Kalit so‘zlar:** transformatsiya, ixtiro, salohiyat, integratsiya, raqamli texnologiya, milliy iqtisodiyot, neft-gaz sanoati, qayta muhandislik, tannarx muhandisligi, qiyoslash muhandisligi, interdisipliner.

**Аннотация:** В статье рассматривается общественная необходимость внедрения цифровых преобразований в сферу подготовки технических специалистов для изобретательской деятельности. Было подчеркнуто, что процессы цифровой трансформации важны для интеграции технических знаний, повышения творческого потенциала и решения практических задач. Содержит важные выводы о повышении возможностей создания инновационной продукции в народном хозяйстве путем подготовки магистров изобретательской деятельности с использованием цифровых технологий, принципах цифровой трансформации, формировании инновационных кадров в технической сфере, социально-экономическом значении этого..

**Ключевые слова:** трансформация, изобретение, потенциал, интеграция, цифровые технологии, национальная экономика, нефтегазовая промышленность, реинжиниринг, стоимостный инжиниринг, сравнительный инжиниринг, междисциплинарный.

**Annotation:** This article discusses the social necessity of introducing digital transformations into the field in preparing masters in technical fields for inventive activity. It is emphasized that digital transformation processes are important for integrating knowledge in the field of technology, increasing creative potential, and solving practical problems. It contains important conclusions about the principles of digital transformation, the formation of innovative personnel in the field of technology, and the socio-economic significance of this process, which will increase the opportunities for creating innovative products in the national economy by preparing masters for inventive activity using digital technologies.

**Key words:** transformation, invention, potential, integration, digital technology, national economy, oil and gas industry, reengineering, cost engineering, benchmarking engineering, interdisipliner.

**KIRISH**. Iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish uchun bizga yuqori malakali muhandis-texnologlar suv bilan havodek zarur. Har bir vazir, tarmoq rahbari, rektor va professor-o‘qituvchi mas‘uliyatni chuqur his qilib, qattiq ishlasa, izlansa, bunga albatta erishamiz, - dedi Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 20-iyun kuni muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida.

Dunyoda raqobat kuchaygan bugungi zamonda mamlakatimiz ichki resurslarga tayanib, industrial rivojlanish yo‘lidan borayotganligi, yiliga 3 mingta sanoat korxonasi ishga tushirilib, 150 ming atrofida ish o‘rni yaratilayapti. Shunga mutanosib ravishda davlat tomonidan ilm, ta’lim va innovatsiyaga e‘tibor qaratilmoqda. Masalan, o‘tgan to‘rt yilda 1 ming 727 ta amaliy, innovatsion, fundamental va startap loyihalarga 2,2 trillion so‘m yo‘naltirildi. Lekin bu boradagi natijalar, yuqori malakali muhandislar hali yetarli emas. Oliy o‘quv yurtlari bilan sanoat o‘rtasida uzilish mavjud.

Davlatimiz rahbari avvalo sohadagi qator muammolar jumladan, texnika yo‘nalishidagi 36 ta davlat oliygohda yiliga 67 ming bitiruvchi dastur va mutaxassisliklar ishlab chiqaruvchilar talabiga mos emasligi oqibatida muhandislarning 60 foizi o‘zi o‘qigan yo‘nalishda ishlamasligi, oliy ta’lim muassasalarifundamentaltadqiqotlaro‘tkazish bilan cheklanganligi, iqtisodiyot uchun amaliy ishlanmalar juda kamligi. muhandislik yo‘nalishida yuzlab startap va innovatsion loyihalar “qog‘oz”da qolib ketayotganligini xorijiy universitetlarda “tannarx muhandisligi” “qiyoslash muhandisligi”, “qayta muhandislik” kabi ixtisosliklar kabi bizdagi texnika oliygohlarida ham yo‘lga qo‘yilishi zarurligi oqibatida mahalliy sanoat tarmoqlari katta mablag‘ sarflab, ishchilarini xorijda o‘qitishga yoki chetdan mutaxassis olib kelishga majbur bo‘lmasligi kabi masalalar o‘z yechimini topishi ta‘kidlandi. Muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha “eng yaxshi g‘oya”, “eng yaxshi loyiha” va “eng yaxshi ixtiro” respublika tanlovi o‘tkazilishi belgilandi.[1]

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Texnika yo‘nalishidagi magistrlar faoliyatini raqamli transformatsiya kontekstida tayyorlash bugungi kun ijtimoiy va iqtisodiy zaruratlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy qilish ilmiy-texnik rivojlanishni tezlashtiradi va yangi innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Biroq, raqamli transformatsiyaga mos ravishda texnik mutaxassislarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodologik asoslar yetarli darajada o‘rganilmagan [6,85-86]. Raqamli transformatsiya, texnologiyaning tez rivojlanishi va avtomatlashtirishning kengayishi bilan bog‘liq ravishda, texnik mutaxassislarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Buning uchun quyidagi metodologik asoslar muhim ahamiyatga ega:




*1-rasm. Texnika yo‘nalishidagi magistrlarni ixtiro qilish faoliyatiga tayyorlashning metodologik asoslari.*

Integratsiya va multidisipliner yondashuv - raqamli transformatsiya o‘zida turli sohalarni birlashtiradi (IT, elektronika, robototexnika, sun’iy intellekt va boshqalar). Texnik mutaxassislar bu sohalarning kesishgan nuqtalarida ishlashlari kerak, bu esa ular uchun ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Shuning uchun, ta’lim dasturlari bir nechta fanlar o‘rtasida integratsiyani ta’minlashi zarur.

Ijodiy muammolarni hal etish metodlari - raqamli texnologiyalarni yaratish va optimallashtirishda ijodiy muammolarni hal etish muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun “design thinking” yoki “lean startup” kabi metodologiyalarni o‘rganish foydalidir. Bu yondashuvlar texnik mutaxassislarning muammolarni ijodiy va samarali tarzda hal qilishga yordam beradi. [4, 25-36]

Kreativ o‘yinlar va simulyatsiyalar - texnik mutaxassislar uchun o‘yinlar, simulyatsiyalar va interaktiv platformalar yordamida yangi texnologiyalarni o‘rganish va qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu usullar ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi va yangi g‘oyalarni amalga oshirishga imkon beradi. Masalan, neft va gaz sohasidagi texnologik jarayonlar va ularda qo‘llaniladigan jihozlarning ishlash prinsipi, tuzilishi, yuzaga keladigan avariya holatlarni bartaraf etish yoki oldini olish yo‘llarini kreativ yondoshib izlash uchun ham o‘quv trenajorlari hamda jarayon va qurilma simulyatsiyasini VR zona orqali bemalol o‘rganib chiqishlari mumkin bo‘ladi.

Yuqori texnologiyalarga erkin kirish va tajriba o‘tish - texnik mutaxassislar uchun o‘zlarining ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishda yangi texnologiyalarga oson kirish va ularni sinab ko‘rish juda muhim. Buning uchun ochiq manbalar, virtual laboratoriyalar va boshqa resurslardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ko‘p tarmoqli jamoalarda ishlash - ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun jamoaviy ish muhim ahamiyatga ega. Texnik mutaxassislar boshqa soha vakillari bilan (dizaynerlar, menejerlar, marketing mutaxassislari) birgalikda ishlashni o‘rganishlari kerak. Bunday yondashuv interdisipliner qarashlarni yaratadi va ijodiy yechimlarni rivojlantirishga yordam beradi. O‘z-o‘zini rivojlantirish va doimiy o‘qish - raqamli transformatsiya doimiy o‘zgarishlarni talab qiladi. Texnik mutaxassislar uchun yangi bilimlarni olish va o‘z bilimlarini yangilash, masalan, onlayn kurslar, vebinarlar va malaka oshirish dasturlariga qatnashish muhim. Etika va mas’uliyat - raqamli texnologiyalarning jahon miqyosida ta’siri katta. Texnik mutaxassislar uchun texnologiyalarni ishlab chiqishda va ularni joriy etishda etik tamoyillarni tushunish va amalda qo‘llash zarur. Bu ijodiy va mas’uliyatli ishlashni rag‘batlantiradi.

Ushbu metodologik asoslar texnik mutaxassislarni raqamli transformatsiya jarayonida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ixtirochilik qobiliyati — bu yangi va original g‘oyalarni ishlab chiqish, mavjud narsalarni yangilash yoki yangi yechimlar topish qobiliyatidir. Bu turli sohalarda, jumladan, ilm-fan, texnologiya, san’at, biznes va boshqalarda muhim ahamiyatga ega [5, 8-10]. Ixtirochilikni rivojlantirish uchun bir nechta usullarni qo‘llash mumkin: Ijodiy fikrlashni o‘rganish - ixtirochilik ko‘pincha ijodiy fikrlashga asoslanadi. Bunga yangi fikrlar va g‘oyalarni yaratishga yordam beradigan mashqlar, masalan, “brainstorming” (fikrlar to‘plash) yoki “mind mapping” (fikrlarni boshqarish xaritalari) kabi usullarni qo‘llash kiradi. Yangi tajribalar orttirish – xorij tajribalarini o‘rganish, olimlar bilan tanishish yoki yangi texnologiyalarni tuzilishini o‘rganish natijasi esa yangi g‘oyalar paydo bo‘lishiga yordam beradi. Kitoblar o‘qish va bilim olish - yangi bilimlar olish, turli sohalarda (texnika, ijtimoiy, iqtisodiy) kitoblar o‘qish yoki onlayn kurslarda qatnashish, ixtirochilikni rivojlantirishga yordam beradi. Ko‘proq bilimga ega bo‘lish fikrlashni va tahlil qilishni yaxshilaydi. Sabr va qat’iyat - ixtirochilik bir zumda rivojlanadigan jarayon emas. Fikrlarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda sabrli bo‘lish, muvaffaqiyatga erishishda muhim hisoblanadi. Muammolarni hal qilishga harakat qilish - kundalik hayotda duch kelgan muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni qo‘llash va yangi usullarni sinash talabalarni ixtirochiligini oshiradi.

**NATIJALAR:**

Texnika yo‘nalishidagi magistrlarni ixtirochilik faoliyatiga tayyorlashda raqamli transformatsiyalarni joriy etish muhim ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv:

- ijodiy salohiyatni oshiradi - raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar magistrlar uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi.
- fanlararo integratsiyani ta’minlaydi - IT, robototexnika, sun’iy intellekt va boshqa sohalar birlashuvi natijasida innovatsion yechimlar yaratiladi.

- innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi - mahalliy sanoat uchun yangi texnologik mahsulotlarni yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi.
- texnika sohasidagi muammolarni hal qilishni tezlashtiradi - magistrlarni amaliy loyihalar va startaplarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyorlaydi.

Shuningdek, magistrlarni texnologik jarayonlarga jalb qilish orqali milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shilishini ta'kidlash mumkin. Ushbu jarayonda yuqori texnologiyalar, raqamli simulyatsiyalar va kreativ yondashuvlarni qo'llash kadrlarning malakasini oshirish va milliy sanoatning raqobatbardoshligini ta'minlashda asosiy omillardan biri bo'ladi. Bundan tashqari neft va gaz sohasida hozirgi kunda texnologik rivojlanish, yashil energiya va raqamlashtirish tendensiyalari bilan bog'liq yangi mutaxassisliklarni talab qilmoqda [9, 29-31].

Bu mutaxassisliklar nafaqat hozirgi magistrlar uchun muhim, balki kelajakda neft va gaz sohasi barqaror va innovatsion rivojlanishi uchun ham asosiy o'rin tutadi.

**MUHOKAMA**. Texnika yo'nalishidagi magistrlarni ixtiro qilish faoliyatiga tayyorlashda raqamli transformatsiyaning o'rni juda muhimdir. Bu jarayon zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalar yordamida ixtiro qilish ko'nikmalarini shakllantirish, texnik tafakkurni rivojlantirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi. Magistrlarni ixtirochilikka tayyorlash uchun quyidagi o'quv metodlari va texnologiyalardan foydalaniladi [10, 16-17].

Bu metodlar va texnologiyalar magistrlarning ijodiy va innovatsion salohiyatini oshirishga yordam beradi va ularni zamonaviy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

**XULOSA**. Texnika yo'nalishidagi magistrlarni ixtiro qilish faoliyatiga tayyorlashda sohaga raqamli transformatsiyani joriy etish bugungi kunda jamiyat uchun muhim ijtimoiy zarurat hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat texnik bilimlar va ko'nikmalarni takomillashtirishni talab qiladi, balki innovatsion fikrlashni rivojlantirish, ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda amaliyotda dolzarb texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Sohani raqamli transformatsiyalash orqali texnologik taraqqiyotni tezlashtirish, milliy iqtisodiyotga hissa qo'shuvchi yangi ishlanmalarni yaratish va global raqobatbardoshlikni oshirishga erishiladi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya magistrlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashda samarali vosita sifatida maydonga chiqib, kelajak avlod mutaxassislarining malakasini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim tizimida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, pedagogik metodlarni modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va muhandislik ta'limini rivojlantirish bo'yicha 2024-yil 20-iyundagi yig'ilishi
2. M.Turakulova, Z.Tukhtaeva, B.Turakulova, M.Muminova, Pedagogical innovation and the use of debate method in teaching technical sciences.// International Engineering Journal For Research & Development. April 2020. Vol.5, Issue 3. Impact factor: 6.03 –151-155 pages.
3. M.Turakulova, K.Rakhmonov, Identification and development of the abilities and creativity of gifted students in higher educational institutions.// Asian journal of multidimensional research. 2020. Special issue.–170-174 pages.
4. M.Turakulova, Z.Tukhtaeva, K.Rakhmonov, Z.Hasanova, Technical creativity of students as a means of improving quality and the process of integrating their professional training.// Annals of the Romanian Society for Cell Biology. 2021. Vol 25, Issue 3. –7048-7061 pages
5. M.Turakulova, Scientific And Creative Training Of Teachers In The Formation Of Technical Creativity Of Talented Students.// International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences. – Malaysia, 2022. –P. 3-6.
6. M.Turakulova, Development of technical creative thinking skills of gifted students// World Bulletin of Social Sciences (WBSS). 2022. Vol. 14. –12-16 pages.
7. K.Schwab. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2016.
8. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. W.W. Norton & Company, 2014.
9. Creswell J.W. Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches. Sage Publications, 2017.

# KASBIY TA’LIM TIZIMIDA O‘QUVCHI-YOSHLARNING KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO‘NALISHLARI

**Muzaffarov Musaxon Najmiddinovich,**
Professional ta’limni rivojlantirish instituti bosh mutaxassisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada yoshlar ma’naviyatidagi salbiy o‘zgarishlar oldini olish va ularda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda kitob o‘qish madaniyatining ahamiyati yoritilgan. Kitobning inson ma’naviyati va dunyoqarashini yuksaltirishdagi o‘rni, bilim va tafakkurni boyitishga ko‘rsatadigan ta’siri ta’kidlangan. Shundan kelib chiqib, oila, ta’lim muassasalari va pedagoglar tomonidan bolalarning kitobga bo‘lgan mehrini oshirish va adabiyotga qiziqishini tarbiyalash zarurligi qayd etilgan. Maqola yosh avlodni ma’naviy kamolotga yetaklashda kitob o‘qishning tarbiyaviy qimmatini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** internet, ijtimoiy tarmoq, gajetlar, tadqiqotlar, biblioterapiya.

**Аннотация:** В этой статье подчеркивается важность культуры чтения для предотвращения негативных изменений в духовности молодежи и формирования у нее нравственных ценностей. Подчеркивается роль книги в повышении духовности и мировоззрения человека, а также ее влияние на обогащение знаний и мышления. Исходя из этого, семья, образовательные учреждения и педагоги отметили необходимость прививать детям любовь к книге и воспитывать у них интерес к литературе. В статье раскрывается воспитательное значение чтения книг для приведения молодого поколения к духовной зрелости.

**Ключевые слова:** интернет, социальная сеть, гаджеты, исследования, библиотерапия.

**Annotation:** This article reveals the importance of the culture of reading books in preventing negative changes in the spirituality of young people and the formation of their moral values. The role of the book in enhancing a person’s spirituality and worldview, as well as its influence on enriching knowledge and thinking, is emphasized. Based on this, the need to cultivate a love of books and interest in literature on the part of the family, educational institutions and teachers was noted. The article emphasizes the educational value of reading books in the spiritual formation of the younger generation.

**Key words:** internet, social network, gadgets, research, bibliotherapy.

Dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo‘li esa bitta – kitob o‘qishdir.

Kitob – insonning eng yaqin sirdoshi va maslahatchisi, ruhiy quvvat, aql va bilim manbayi, hayot yo‘llarini yorituvchi nur. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbayi. Insonning madaniyati uning kitobida aks etadi. Biz insonlar ma’naviy ozuqani qayerdan olamiz? Albatta, “bilimlar manbayi” bo‘lmish kitobdan.

Kitob – bebaho boylik ekani barchamizga ma’lum. Kitobxonlik oiladagi va ta’lim muassasasidagi muhitga ham bog‘liq. Farzandlarining o‘zidan-da bilimli, axloqli, ma’rifatli bo‘lishini xohlamagan ota-ona bo‘lmasa kerak. Mana shu xohish mana shu istak tufayli eng yaxshi bog‘cha, eng yaxshi maktab va eng yaxshi ta’lim muassasalarida o‘qitishni istaymiz albatta.

Inson o‘zining fikrlash qobiliyati, ma’naviy dunyosi bilan tirik. Odamni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi omillardan biri ham uning ma’naviyati hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan kitob mutolaasi muhimligi, yoshlar, rahbarlar orasida buni targ‘ib qilish lozimligi haqida ko‘p bora aytildi, aytilmoqda. Davlat rahbari tomonidan

yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning bittasi aynan kitobxonlikka qaratilgan bo'lib, u yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Yaqinda professional ta'lim muassasalarining Yoshlar yetakchilari bilan bo'lib o'tgan seminarda Qashqadaryo viloyati ta'lim muassasalarining birida faoliyat olib borayotgan yoshlar yetakchisining aytishicha, tuman hokimligi, tuman prokuraturasi va ta'lim muassasasi hamkorligida yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish maqsadida kasb-hunar maktabining kirish darvozasi oldiga yo'laklarga bir nechta kichik (mini) kutubxonalar (akfa shishali) tashkil etildi. Eshiklari har doim ochib qo'yilib, eng yaxshi sara asarlar bilan boyitilgan. Yoshlar xohlagan payti kitoblardan foydanishi va atrof aholini ham jalb qilish maqsad qilingan edi. Ming afsuski, ushbu kutubxonalarga ham e'tibor juda ham sust,-deydi yetakchi.

Bugungi kunda jamiyatimizda go'zal xulq va axloq namunalariga har qachongidan ham ko'proq ehtiyoj sezilmoqda. Shu nuqtayi nazardan ta'lim muassasalarida bolalarni kitob o'qishga targ'ib qilishni kuchaytirishimiz, talabchanlikni yanada oshirishimiz zarur. Hayotimning asosiy qismi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishga bag'ishlandi va mana shu hayotiy tajribalarim asosida to'plangan va sinovlardan o'tgan ta'lim muassasalarida o'qiyotgan o'quvchilarning kitob o'qishini tashkil etish uslubini tavsiya qilmoqchiman.

Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kitob o'qishini tashkil etish uslubi.

1. Ushbu jarayonda ta'lim muassasasining rahbari shaxsan bosh bo'lishi, jonbozlik, tashabbuskorlik, fidoiylik, talabchanlik qat'iylik ko'rsatishi eng muhim omil hisoblanadi.

2. Ta'lim muassasasida pedagogik kengash o'tkazib unda o'quvchilarni kitob o'qishga targ'ib etish va kitob o'qishini tashkil etish hamda ta'lim muassasasida o'qiyotgan har bir o'quvchi bir oyda bitta badiiy asar o'qish loyihasi masalasi ko'rib chiqilishi, tegishli qarorlar qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik kengashda:

- Rahbarning "O'quvchilarni kitob o'qishga targ'ib etish va kitob o'qishini tashkil etish" loyihasining mazmun mohiyatini izohlovchi ma'ruzasi;

- Pedagogik kengashda barcha o'qituvchilar "O'quvchilarni kitob o'qishga targ'ib etish va kitob o'qishini tashkil etish" loyihasini to'liq qo'llab-quvvatlashlari.

- "O'quvchilarni kitob o'qishga targ'ib etish va kitob o'qishini tashkil etish" ishchi guruh a'zolarini saylash (ishchi guruhga guruh rahbarlari, ona tili va adabiyot o'qituvchilari, kutubxona xodimlarini kiritish mumkin);

-"O'quvchilarni kitob o'qishga targ'ib etish va kitob o'qishini tashkil etish" komissiya a'zolari saylanib ularni tasdiqlash (komissiya a'zolari tarkibiga direktor, direktor o'rinbosarlari, psixolog, yoshlar yetakchisi, ota-onalar qo'mitasi raislarini kiritish mumkin);

- Ishchi guruh a'zolari va Komissiya a'zolari tomonidan amalga oshiriladigan vazifalarni belgilab olish.

3. Ota-onalar majlislari o'tkazilib, loyiha haqida tushuntirish ishlari olib boriladi. Kitob o'qishning farzandlar uchun naqadar foydali ekanligi uning ilm olishi va go'zal xulq egasi bo'lishida kitoblarning o'rni beqiyos ekanligi aytilib, bu borada hamkorlikda faoliyat olib borish lozimligi tushuntiriladi. Bolalarni majburlash, haqoratlash, sen kitob o'qiyolmaysan, kallang ishlamaydi deya kamsitish teskari reaksiya berishini tushuntirish. Farzandlariga kitob tanlashda ko'maklashish, bo'sh vaqtlarida birgalikda o'qib muzokaralar qilib borish kerakligi uqtirilishi lozim.

- o'zingiz televizor ko'rar ekansiz, bolaga kitob o'qi deysiz. Bolaning nazdida «kitob» jazo bo'lib ko'rinadi.

- O'zingiz telefondan ko'z uzmay, soatlab internetda o'tirar ekansiz, bolani majburlab yotog'iga jo'natasiz, bolaning nazdida «uyqu» jazo bo'lib ko'rinadi.

- O'zingiz do'stlaringiz (dugonalaringiz) bilan mazza qilib vaqt o'tkazar ekansiz, boladan darslarini bajarishni talab qilasiz.

-Bolaning nazdida «dars» jazo bo‘lib ko‘rinadi.

4. Har haftada o‘tkaziladigan “Ma’naviyat soati” darslarini unumli va samarali o‘tilishini ta’minlash maqsadida ushbu soatlarda o‘quvchilarni kitob o‘qishga targ‘ib etish va kitob o‘qishini tashkil etish va ta’lim muassasasida o‘qiyotgan har bir o‘quvchi bir oyda bittadan badiiy asar o‘qish “O‘quvchilarni kitob o‘qishga targ‘ib etish va kitob o‘qishini tashkil etish”ni yo‘lga qo‘yish ishlari olib boriladi. (Har haftaning bir kunida darsdan tashqari “Kitob o‘qish mashg‘uloti”ni belgilab tashkil etilsa ham maqsadga muvofiq bo‘ladi)

5. Har bir guruh rahbari o‘ziga biriktirilgan guruh o‘quvchilari bilan “Ma’naviyat soati” yoki darsdan tashqari “Kitob o‘qish mashg‘uloti”darslarida qo‘yidagi ishlarni olib boradi:

a) Targ‘ibot ishlari boshlangan birinchi darsda kitob haqida, kitob o‘qishning ahamiyati va foydalari haqida ta’sirli ma’ruza, she’r, rivoyatlar va kitob o‘qib ilm olish orqali muvafaqqiyatga erishgan insonlar haqidagi tahliliy ma’lumotlar bilan tanishtiradi hamda o‘quvchilarga qarata “Hurmatli bolajonlar ta’lim muassasamizda o‘qiyotgan har bir o‘quvchi bir oyda bitta badiiy asar o‘qish loyihasi amalga oshirilmoqda o‘ylaymanki biz ham guruhimiz bilan ushbu loyihada faol ishtirok etamiz” deb targ‘ibot ishlarini olib boradi.

b) Guruh rahbari dars yakunida o‘quvchilarga kelgusi darsimizga har bir o‘quvchi o‘zga ma’qul bo‘lgan bir dona roman, qissa, hikoyalar to‘plamini o‘zlari bilan olib kelish kerakligi to‘g‘risida topshiriq beradi. Ushbu kitoblarni uydan, maktab kutubxonasidan, yaqin qarindoshlardan, o‘rtog‘idan vaqtincha olib turishi yoki kitoblar do‘konidan sotib olish mumkinligi to‘g‘risida tavsiya beradi. Bolalarning yoshiga qarab qanday kitoblarni o‘qish uchun tanlashlari yuzasidan tavsiyalar berilsa yanada maqsadga muvofiq bo‘ladi.

v) Ikkinchi darsimizda guruh rahbari o‘quvchilardan berilgan topshiriq yuzasidan jurnal bo‘yicha har bir o‘quvchi o‘qish uchun o‘zi bilan qanday kitob olib kelganini so‘rab asarning nomi avtorini alohida daftarga yozib oladi. Nega aynan shu kitobni tanlaganligi to‘g‘risida qisqa izohlarni so‘rash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Guruh rahbari o‘quvchilarga o‘zlari tanlagan kitoblarini mazmun mohiyatini tushunib o‘qishlari, undan kerakli xulosalar chiqara olishlarini, tushunmagan joylarini belgilab qo‘yib kelgusi darslarda birgalikda muhokama qilishlarini ta’kidlash joiz bo‘ladi.

g) Keyingi darslarda guruh rahbari har bir o‘quvchidan kitobni qanday o‘qiyotganligi, qancha qismini o‘qiganligi, asardagi qahramonlarning kechinmalari haqida so‘rab borish kerak. Bu bilan o‘quvchilar kitobni o‘qiyotgan yoki o‘qimayotganligi nazorat qilinadi hamda o‘quvchilar xotirasida mustahkam o‘rnashadi. Qolgan o‘quvchilarda o‘rtog‘im o‘qiyotgan kitob qiziqarli ekan bu safar men ham shu kitobni o‘qiyman degan xulosaga kelishiga erishiladi. Bolalar kitoblar haqida ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lishadi.

6. Guruhlarda kitob o‘qishga qiynaladigan, tushunishi qiyin bo‘lgan bolalar bo‘lsa ular aniqlashtirilib rahbar, rahbar o‘rinbosarlari, psixolog, yoshlar yetakchisi, kutubxona xodimlari, ona tili va adabiyot o‘qituvchilariga biriktiriladi. Ular haftaning ma’lum kunlarini va vaqtini belgilab o‘zlariga biriktirilgan o‘quvchilarga mos asarni o‘qib izohlab berishadi.

Ushbu jarayon juda murakkab bo‘lib mas’ullardan sabr-toqat, o‘ta fidoiylik va bolalarga psixologik yondashish zarur bo‘ladi. Bolalarga o‘qib berish bilan ularning individual xususiyatlarini hisobga olib o‘zlariga mustaqil ravishda, masalan kichik hikoya, rivoyat, asarning ma’lum bir betlarini o‘qib kelish topshiriqlarini berib borish bilan mustaqil o‘qiy olish ko‘nikmasini shakllantirish lozim bo‘ladi. (Ushbu o‘quvchilarga bir oyda bitta kitob o‘qish majburiyati yuklanmaydi. Ularning imkoniyatlaridan kelib chiqiladi)

7. Yaxshi o‘zlashtiradigan va kitobxon o‘quvchilarni kitob o‘qishga qiynaladigan o‘quvchilarga biriktirish.

8. Oy yakunida guruh o‘quvchilaridan o‘qigan kitoblaridan olgan taassurotlari chiqargan xulosalari yuzasidan insho


ISSN 2181-3841

yozdiriladi.

Yil yakunida “Meni o‘zgartirgan kitob” loyihasi tashkil etiladi. Bu jarayonda o‘quvchi kitobdan olgan taasurotlari va xulosalarini, uning ong-u shukuhiga ta’sir qilgan xulqu odobini o‘zgarishiga sababchi bo‘lgan kitob haqida insholar tanlovi o‘tkaziladi.

9. Ushbu jarayon shu tariqa xar oyda davom ettirib boriladi va bir o‘quv yilida har bir o‘quvchi 10 tadan badiiy kitob o‘qishiga erishiladi. ( Biz 100 % lik natijaga harakat qilamiz albatta lekin kitob o‘qishga qiyalayotgan ba’zi o‘quvchilarni bir yoki ikkita kitob o‘qishlariga erishish xam yaxshi natija chunki butun umri davomida birorta ham kitob o‘qimaydiganlar qancha...)

10. Guruhdagi eng faol o‘quvchilar rag‘batlantirilib, orqada qolayotgan, erinchoqlik qilayotgan o‘quvchilarga ruhiy motivatsiya berib boriladi.

12. O‘quv yili davomida ta’lim muassasasining “Eng yaxshi kitobxon” tanlovini o‘tkazish ularni munosib taqdirlash ishlarini tashkil etish mumkin. Bunda homiylar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

13. Ta’lim muassasasi rahbari va o‘rinbosarlari har bir jarayonni to‘liq nazorat qilib borishlari lozim. Kitobxonlik darslariga kirish, o‘quvchilar bilan suhbatlashish, o‘qiyotgan kitoblari haqida hamda kitobning mazmun mohiyati va yana qanday imkoniyat va sharoitlar yaratilishi zarurligi borasida o‘quvchilarning takliflarini so‘rab amalga oshirish choralarini ko‘radi.

14. Ta’lim muassasasi psixologi guruh rahbarlari bilan o‘quvchilardagi psixologik o‘zgarishlarni tahlilini olib borish. Psixolog ko‘proq xulqida og‘ish bo‘lgan bolalarga e‘tibor qaratib ular bilan “Biblioterapiya” mashg‘ulotlarini olib borishi tavsiya etiladi.

13. Guruhida kitob o‘qishni yuqori saviyada tashkil etgan guruh rahbarlarini va faol o‘qituvchilar hamda xodimlarni rag‘batlantirib borish.

15. Atoqli adiblar shoir yozuvchilar bilan badiiy uchrashuvlar, kitobxonlik kunlarini tashkil etish.

16. Eng asosiysi ushbu jarayon o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishiga xalaqit qilmasligi aksincha ilm olishlariga yanada rag‘bat uyg‘otishini ta‘minlash lozim.

17. O‘quvchilarga kitob o‘qishni rejalashtirish va qanday vaqtlarda o‘qish kerakligi to‘g‘risida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib borish.

Ushbu olib borilgan ishlar natijasida ta’lim muassasasidagi barcha o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar kitob o‘qishiga hamda ma’naviy barkamollik sari qadam tashlashlariga, hayotni teran anglashlari, hayotning turli sinovlariga ruhan tayyor bo‘lishlariga erishiladi. Har qanday ish tartibli va davomli bo‘lsagina natijaga erishiladi. Ta’lim muassasalarida ushbu jarayon an’ana tusiga kiritilib har yili shu tartibda, kerak bo‘lsa tajribalar asosida yanada boyitilgan holda tashkil etilsa o‘ylaymanki bizdan ilmli, bilimli, go‘zal xulqli taraqqiyot asoschilari bo‘lmish kitobxon avlod qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi “2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-5953-son Farmoni.
2. 2020 — 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Milliy dastur;
3. Odiljon Narzullayev “Kitob – millatning madaniy va ma’naviy merosi”
4. Alisher Naimov “Kitob – ilm va hikmat manbai”.
5. Tarjimon Zokirjon Sharipov “Ilm olish sirlari” Imom Zarnujiyning “Ta’limul muta‘allimi tarich at-ta’allumi” (1901 yil Qozon Imperator universiteti tipolitografiyasida chop etilgan), ya’ni “Shogirdning ilm egallash yo‘l- yo‘riqlarini o‘rganishi” kitobining tarjimasi va sharhi
6. Zarif Quvonov “Qancha kitob o‘qish kerakmi, qanday kitobni o‘qish kerak?”

## TAHRIRIYAT MINBARI

«O‘zbekistonda professional ta’lim» jurnalining 2024-yil 4-soni yuzasidan qisqacha sharh — 2

O‘zbekistonda kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirish: dual ta’lim va xalqaro hamkorlikning ahamiyati — 4
*Xudayberdiyev Zayniddin Yavkachevich*

## KASBIY TA’LIM ISLOHOTLARI

Kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirishninig zamonaviy yo‘llari va yechimlari — 9
*Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich*

Dual ta’limda oliy ta’lim va ishlab chiqarish hamkorligidagi integratsiya darajalari — 14
*Siddiqova Sadoqat G‘afforovna*

Natijaga yo‘naltirilgan kasbiy ta’limda kompetentlikni rivojlantirish didaktik mexanizmining ayrim jihatlari — 18
*Qo‘chqorov Diyorbek Ulug‘bekovich*

Kasbiy ta’lim tizimida rahbar kadrlarning intellektual salohiyati va kompetensiyasini takomillashtirishning metodologik asoslari — 22
*Xolmuxamedov Murodullo Maxmudovich*

## KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI

Bo‘lajak muhandislarda loyiha konstruktorlik kompetentligini shakllantirishda “Mexanika” (Mashina detallari) fanining ahamiyati — 27
*Ruziyev Islambay Samandarov*

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy ma’rifiy faoliyatga tayyorlashda ilmiy metodologik muammolar tahlillari — 31
*Ergashev Bobirjon Bohodirovich, Xolikov Eldor Muxamadalievich*

O‘quvchilarni mutaxassisligi bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashda dual ta’limining ahamiyati — 34
*Ibodov Zafar Muhiddinovich*

Kasb ta’limi “Dizayn” yo‘nalishi talabalariga 3D max texnologiyasining maxsus dasturlarida ishlash bosqichlarini o‘rgatish metodi — 37
*G‘ofurova Aziza Xidirnazar qizi*

## ILM-FAN VA INNOVATSION FAOLIYAT

Kasbiy ta’limda bo‘lajak tibbiyot xodimlarining innovatsion faoliyatida kompetensiyalarni safarbar etishning ahamiyati — 42
*Jamolov Anvar Kuchkarovich*

Kasbiy ta’lim muassasalari o‘quvchilarida xorijiy tillarni o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish — 49
*Jalilova Hulkar To‘rayevna*

Ta’lim integratsiyasi asosida talabalarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish — 54
*Mamataliyeva Mohinur Ilxom qizi*

Kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga meta texnologiyalar asosida tayyorlash yo‘nalishlari — 58
*Soliyev Elyor Ravshanbek o‘g‘li*

Raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak iqtisodiyot mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning algoritmik bosqichlari — 61
*Tagayev Odil Nurmuminovich*

## KADRLAR TAYYORLASH SIYOSATI

Uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanishni ta’minlash maqsadida pedagog kasbiy mahoratini baholashni rivojlantirish — 65
*Xalimov Zafar Xatamovich*

Kasbiy ta’limda infokommunikatsion texnologiyalar asosida mutaxassislar tayyorlashning global tendensiyalari — 70
*Ravshanov Bexruz Xasanovich*

Kasbiy ta’lim muassasalarida individual yondashuv orqali rahbar xodimlarning boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlari — 75
*Yangibayev Kamol Norboyevich*

Использование информационно-коммуникационных технологий в профилактике наркомании среди молодёжи: оценка эффективности и перспективы развития — 81
*Sirojiddinov Ilxom Ibroximovich*

Kasbiy ta’lim tizimining turizm mutaxassislarini o‘qitish jarayonida muammoli ta’limning ahamiyati — 88
*Xasanova Nargiza Atxamovna*

Texnika yo‘nalishida tayyorlanadigan mutaxassislarni yaratuvchanlik faoliyatiga tayyorlashda sohani raqamli transformatsiyalashning zarurati — 92
*To‘raqulova Marjona Qiyom qizi*

Kasbiy ta’lim tizimida o‘quvchi-yoshlarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo‘nalishlari — 96
*Muzaffarov Musaxon Najmiddinovich*



ISSN 2181-3841

# O‘ZBEKISTONDA
## – PROFESSIONAL TA’LIM –

**2024 - yil, 4-son**

Tahrir hay’ati raisi
**Kongratbay Sharipov**
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari
**Shaxrux Daliyev**
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari

Bosh muharrir
**Zayniddin Xudayberdiyev**
Professional ta’limni rivojlantirish instituti direktori

Tahrir kengashi a’zolari:
**Risbay Djurayev**
**Qalandar Abdurahmonov**
**Valeriy Golubovskiy**
**Qahramon Olimov**
**Narzulla Muslimov**
**Ekaterina Artamonova**
**Sanobar Ashurova**
**Marina Urazova**

Muassis:

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta’limni rivojlantirish instituti**

Manzil:
**Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-chimboyko‘chasi, 96-uy.**

Telefon: 71-246-90-37
E-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz

Jurnal O‘zbekistondagi professional ta’lim muassasalariga tarqatiladi.

Mas’ul muharrir:
**Nodir Yusupov**

Ijodiy jamoa:
**Husan Nishonov**
**Doniyor Teshayev**
**Shavkat Shadiyev**

Dizayner va sahifalovchi
**Tohir Xudayberganov**

Mazkur jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 2022 yil 24 aprel kuni №1591 raqamli guvohnoma bilan ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan hamda O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan 2181-38-41 raqamli ISSN olingan bo‘lib, obuna indeksi: 1396. Shuningdek, “O‘zbekistonda professional ta’lim” jurnali Oliy attestasiya komissiyasi rayosatining 2023 yil 29 avgustdagi 342/2-son qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Adadi 1000 nusxa. Buyurtma №001


# HURMATLI JURNALXONLAR!

**“O‘zbekistonda professional ta’lim” jurnali tahririyatisizni o‘zaro hamkorlikka taklif etadi.**

**Jurnalimiz sahifalarida professional ta’lim tizimini rivojlantirishga, o‘quv jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy, tahliliy maqolalar nashr etiladi.**

**Professional ta’limda qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar, kasb-hunar o‘rganishga oid metodik tavsiyalar haqida, shuningdek, joriy etilgan ilg‘or tajribalar hamda tizimda amalga oshirilayotgan ibratli ishlar va yangiliklar haqida o‘z fikrlaringizni biz bilan o‘rtoqlashishingiz mumkin. Hurmatli professional ta’lim fidoyilari, ustozlar!**

**Tahririyatimiz siz bilan hamkorlik qilishdan juda mamnun. Maqolalaringizni quyidagi manzillar orqali bizga yuboring, tajribalaringizni hamkasblaringiz bilan bo‘lishing!**


**Telefon: +99871-227-19-24**
**Mobil: +99898-210-88-58**
**E-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz**



**“Innovatsion rivojlanish” nashriyot-matbaa uyi**

## Obuna indeksi 1396




# edu.profedu.uz
## Metodik ta’minlash platformasi

**Platformaning asosiy sahifalari:**

O‘quv-me’yoriy hujjatlar;
Darsliklar;
O‘quv qo‘llanmalar;
Qo‘shimcha adabiyotlar;
O‘qitish materiallar to‘plami;
Qisqa muddatli kurslar;
Metodik tavsiyalar;
Metodik yo‘riqnomalar;
Video resurslar;
Infografikalar.

Ushbu axborot tizimi professional ta’lim muassasalarigaonlayn metodik ta’minotni amalga oshiradi

**edu.profedu.uz**
Professional ta’lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining faoliyatini metodik ta’minlash platformasi

**my.moqt.uz**
Professional ta’limning masofaviy malaka oshirish va qayta tayyorlash platformasi

**vacancy.edu.uz**
Oliy va professional ta’lim muassasalarida mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga hujjatlarni onlayn yuborish platformasi

**e-texnikum.uz**
Professional ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonni raqamlashtirish platformasi

**prof-talim.edu.uz**
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining akademik litsey va professional ta’lim muassasalari platformasi

**cgtvet.uz**
Kattalarga ta’lim berish va o‘qitish xalqaro dasturi bo‘yicha onlayn malaka oshirish platformasi

**help.edu.uz**
Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tizimiga oid eng ko‘p beriladigan savollarga javoblar portali

Professional ta’limni rivojlantirish instituti
PTRI
PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI